

# **“ILMIY TADQIQOTLAR, INNOVATSIYALAR, NAZARIY VA AMALIY STRATEGIYALAR TADQIQI”**

**mavzusidagi Respublika  
ko’p tarmoqli, ilmiy  
KONFERENSIYA**

**#20**  
MARCH  
2025



## TAHRIRIYAT A'ZOLARI

Berdialiev A. f.f.d., prof.  
Nurullaeva Sh.U. ped.f.d., prof.  
Tursunov K.Sh. ped.f.d., prof.  
Babadjanova D. tarix.f.d., prof.  
Ernazarova G.O. ped.f.d., prof.  
Abduraximova D.A. ped.f.d., prof.  
Madumarov T.T. yur.f.d., prof.  
Mirzayeva C.P. fil.f.d., prof.  
Yuldashev M.M. fil.f.d., prof.  
Xolliyev A.E. bio.f.d., prof.  
Yuldashev M.M. fil.f.d., prof.  
Salaeva M.S. psi.f.n., dotsent  
Salayeva M.S. ped.f.d., prof.  
Tojiboyeva M.A. fil.f.d., dotsent  
Sabirova N.E. fil.f.d., dotsent  
Norboyeva U.T. bio.f.d., dotsent  
Yarmatov R.B. ped.f.d., dotsent

Egamberdiyeva N.A. tarix.f.d., dotsent  
Achilov N.K. fil.f.d., dotsent  
Imomova G.M. fil.f.n., dotsent  
Zakirova H.R. f.f.n., dotsent  
Tuhtahujaev H.B. ped.f.f.d., dotsent,  
TFA Akademik  
Bakiyev Z.A. ped.f.n., dotsent  
Razzakov H.K. tex.f.n., f.f.d., dotsent  
Ortikov O.A. tex.f.f.d., dotsent  
Djuraeva M.Y. f.f.f.d.  
Nabikhodjaev A.A. iqt.f.n., dotsent  
Otadjanova M.O. f.f.d.  
Tajibaeva M.A. fil.f.d., dotsent  
Hasanov A.M. fil.f.f.d  
Kholmurodov A.E. fiz.m.f.d., dotsent  
Aripov O.A. iqt.f.d., dotsent  
Safarova U.A. fil.f.d., dotsent

*Mas 'ul kotib: M.Yusupov*

THE JOURNAL OF  
INTEGRATED EDUCATION AND RESEARCH  
ISSN: 2181-3558

**ILMIY TADQIQOTLAR, INNOVATSIYALAR, NAZARIY VA  
AMALIY STRATEGIYALAR TADQIQI**  
**№ 20-SONLI RESPUBLIKASI KO'P TARMOQLI, ILMIY KONFERENSIYA**  
**20-MART 2025-YIL**

**RESEARCH OF SCIENTIFIC RESEARCH, INNOVATION,  
THEORETICAL AND PRACTICAL STRATEGIES**  
**20<sup>th</sup> REPUBLIC OF MULTIFIELD SCIENTIFIC CONFERENCE**  
**MARCH 20, 2025**



## MAMLAKATSHUNOSLIKKA OID TERMINLARDA KALKALAR TARJIMASI

*Tairova Maxfuza Abdusattarovna  
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Maqolada mamlakatshunoslikka oid terminlarda kalka tushunchasi hamda terminlar tarjimasidagi muammolar haqida so‘z yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** termin, kalka, tilshunoslik, terminologiya, lingvistika, tarjima muammolari.

**Аннотация.** В статье рассматривается понятие “калка” с точки зрения отечественной науки и проблемы перевода терминов.

**Ключевые слова:** термин, калька, языкознание, терминология, лингвистика, проблемы перевода.

**Annotation.** The article examines the concept of “calque” from the point of view of domestic science and the problem of translation of terms.

**Keywords:** term, calque, linguistics, terminology, linguistics, translation problems.

Qayd etish lozimki, o‘zbek terminologiyasi tizimida xorijiy tillarga taalluqli tushunchalarni o‘z ichki imkoniyatlar asosida ifodalash tamoyili yetakchilik qilmoqda. Bunday jarayon paytida chetdan kelayotgan o‘zlashmalarning bir qismi o‘zbekcha mutanosiblari bilan almashtiriladi yoki tarjima (kalka) qilinadi.[1]

Kalka (fransuzcha, caique – nusxa, tak, lid) – boshqa til lug‘aviy birligidan ona tili vositalari asosida nusxa ko‘chirish (so‘zma-so‘z tarjima qilish) natijasida yuzaga kelgan so‘z, atama yoki birikma. Kalkaning ma’noviy va shakily ma’noviy turlari mavjud. Ma’noviy Kalka so‘zning ohangi va so‘z yasalish shakli jihatidan ona tiliga mansub bo‘lsada, ma’no jihatdan chet so‘zlarning ta’siriga bog‘likdir: „maydon“ (magnit maydoni) – „pole“. Shakliy-ma’noviy Kalka o‘zga tildagi ma’noni ifodalay oladigan unsurlar asosida ona tilida yangi lug‘aviy birlik hosil qilishdir. Shuningdek kalkalar to‘liq va yarim shakliy-ma’noviy kalkalar bo‘ladi. To‘liq Kalkada ona tilining o‘z ichki imkoniyatlaridan foydalilanadi masalan: *nadstroyka – ustqurma, mirovozzreniye – dunyoqarash, jeleznaya doroga – temir yo‘l*. Yarim Kalka har ikki til unsurlaridan tashkil topadi masalan: *polu-avtomat – yarim-avtomat*. Kalka ijodiy jarayonda paydo bo‘ladigan til hodisasi, shuning uchun tarjimondan katta mahorat talab qiladi. Kalka tilni boyitishning muhim omillaridan biri.[2]

Kalkalar tilni boyitishga va yangi tushunchalarni ifodalashga yordam beradi. Biroq, noto‘g‘ri yoki noaniq kalkalar tushunmovchilik va chalkashliklarga olib

kelishi mumkin. Shuning uchun kalka yaratishda ehtiyyot bo‘lish va terminningma’nosini to‘g‘ri yetkazishga harakat qilish kerak.[3]

Mamlakatshunoslikda qo‘llaniladigan ko‘plab atamalar ingliz tilidan o‘zlashtirilgan bo‘lib, bu ingliz tilining xalqaro fan tili sifatidagi ustuvor rolini aks ettiradi. Ushbu atamalar bevosita ingliz tilidan o‘zlashtirilgan yoki ingliz tilidan boshqa tilga tarjima qilingan kalkalangan so‘zlar yoki iboralar bo‘lishi mumkin.

O‘zbek tilidagi aksariyat mamlakatshunoslik terminlari boshqa tillardan, jumladan, rus, ingliz, arab, fors tillaridan o‘zlashgan. Bunday o‘zlashmalar ko‘pincha kalkalash (so‘zma-so‘z tarjima qilish) natijasida yuzaga keladi.O‘zbek tilida kalka natijasida o‘zlashgan ayrim mamlakatshunoslik terminlariga misollar:

#### Siyosiy terminlar:

| Termin        | Izoh                                  |
|---------------|---------------------------------------|
| Prezident     | inglizcha «president» so‘zidan kalka  |
| Parlament     | fransuzcha «parlement» so‘zidan kalka |
| Konstitutsiya | ruscha «konstitutsiya» so‘zidan kalka |
| Demokratiya   | grekcha «demokratia» so‘zidan kalka   |
| Respublika    | lotincha «res publica» so‘zidan kalka |

#### Iqtisodiy terminlar:

| Termin             | Izoh                                       |
|--------------------|--|
| Bozor iqtisodiyoti | ruscha «рыночная экономика» so‘zidan kalka |
| Valyuta            | ruscha «валюта» so‘zidan kalka             |
| Investitsiya       | ruscha «инвестиция» so‘zidan kalka         |
| Import             | inglizcha «import» so‘zidan kalka          |
| Eksport            | inglizcha «export» so‘zidan kalka          |

#### Madaniy terminlar:

| Termin    | Izoh                               |
|-----------|------------------------------------|
| Madaniyat | arabcha «madaniyat» so‘zidan kalka |
| San’at    | arabcha «san’at» so‘zidan kalka    |
| Adabiyot  | arabcha «adabiyot» so‘zidan kalka  |
| An’ana    | arabcha «an’ana» so‘zidan kalka    |
| Urf-odat  | arabcha «urf-odat» so‘zidan kalka  |

Bizning fikrimizcha, kalkalash natijasida o‘zlashgan terminlar o‘zbek tili lug‘at tarkibining boyishiga, uning xalqaro terminologiya bilan integratsiyalashuviga xizmat qiladi. Lekin ba’zan kalkalash natijasida o‘zlashgan terminlar tushunarsiz yoki noaniq bo‘lishi mumkin. Shuning uchun ham mamlakatshunoslik terminlarini tarjima qilishda ularning ma’nosini to‘g‘ri berish va o‘zbek tilining grammatic qoidalariga moslashtirishga e’tibor qaratish lozim.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Dadaboyev Hamidulla. O‘zbek Terminologiyasi: o‘quv qo‘llanma / Hamidulla Dadaboyev. - Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. – B. 49
2. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
3. Michael Rundell. Macmillan English Dictionary for advanced learners. – Oxford: Macmillan Education, 2002.
4. Macmillan dictionary and Thesaurus: Free English Dictionary online.
5. Margaret D., Jennifer B., Joanna T. Oxford Advanced Learner’s Dictionary of current English. 9<sup>th</sup> edition. – Oxford: Oxford University Press, 2015.

### **ONA TILINI PSIXOLINGVISTIK YONDASHUV ASOSIDA O‘QITISH JARAYONIGA USLUBIY YONDASHUVLAR**

***Kamola Sharifjonova***

*Farg‘ona viloyati O‘zbekiston tumnai*

*20-maktab o‘qituvchisi,*

*Namangan davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi*

Bugungi kunda ona tilimizni rivojlanishi, yanada sayqallanishi, uning badiiy qiymatini, tarixiyligini, jahon hamjamiyatidagi mavqeini oshirishga qaratilgan bir qator ishlar olib borilmoqda. O‘zbek tilini ma’naviy ruhini yuksaltirish, uni madaniy qadriyat darajasiga ko‘tarish uchun o‘zbek tilini faqatgina tilshunos olimlar tadqiq etadigan fan sifatida qabul qilish emas, balki, har bir soha vakili uchun muhim bo‘lgan milliy o‘zlik sifatida qabul qilish lozimdir.

O‘zbek tilini sohalarda rivojlantirish maqsadida qonun va farmonlar ishlab chiqilmoqda. Ularning barchasida O‘zbekistondagi millat va elatlarning tillarini saqlash va rivojlantirish, davlat tili sifatida o‘zbek tilini o‘rganish uchun shart-sharoitlar yaratish, o‘zbek tili va til siyosatini rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo‘nalish va vazifalarini hamda istiqboldagi bosqichlarini belgilash kabi maqsadlar ko‘zda tutilgan. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-son Farmonida ko‘rsatilganidek mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha sohalarida davlat tili imkoniyatlaridan to‘liq va to‘g‘ri foydalanishga erishish, ta’lim tashkilotlarida davlat tilini o‘qitish tizimini yanada takomillashtirish, uning ilm-fan tili sifatidagi nufuzini oshirish bugunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.<sup>1</sup>

Pedagogikada ta’lim oluvchilarining turli psixik parametrlarini hisobga olib, ta’lim jarayonida qo‘llashga oid psixolingvistik metodlarni qo‘llash bilan bog‘liq

---

<sup>1</sup> [Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармони. Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавкеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида – HURRIYAT \(uzhurriyat.uz\)](http://uzhurriyat.uz)

Blum taksonimiyasi, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tamoyillaridan foydalanib kelinadi. Biroq ta’lim oluvchining asosiy faoliyati til va nutq bilan bog‘liq bo‘lgani uchun ko‘p hollarda talabalarning nutqiy kamchiliklariga ko‘z yumib ketiladi. Ayniqsa, oliv ta’lim muassasalariningnofilologik yo‘nalishlarida “O‘zbek tili”, “O‘zbek tilining sohada qo‘llanishi”, “O‘zbek tilining amaliy grammatikasi” fanlarini o‘qitishda talanbalarning ruhiy-jismoniy hamda nutqiy kamchiliklari mavjud bo‘lishi mumkinligi va ularni bartaraf etilishi shartlari ko‘zda tutilmagan. Shu bilan birga keyingi yillarda oliv ta’lim muassasasiga kirish uchun tug‘ma nogironligi mavjud, turli ijtimoiy imtiyozga ega talabalar ham davlat granti asosida qabul qilinib, inklyuziv ta’lim muhiti yaratilmoqda. Bilishimizcha, til o‘qitishda mazkur talabalarning individual imkoniyatlari, og‘zaki va yozma nutqni ifodalashdagi o‘ziga xos jihatlari hisobga olinmagan. Shu uqtayi nazardan bizning ilmiy ishimiz oliv ta’limningnofilologik yo‘nalishlari o‘zbek tili ta’limida psixolingvistik yondashuvni qo‘llash, bu orqali nutqiy va ruhiy kamchiligi bor talabalar bilan individual va guruhda ishlash bo‘yicha mashg‘ulotlari modellarini ishlab chiqish va joriylantirish vazifa qilib qo‘yilgan.

Oliv ta’lim dargohlarida o‘zbek tilini nafaqat filologik yo‘nalish talabalari, balki, nofilologik yo‘nalish talabalari ham o‘rganishi muhim hisoblanadi. Jamiyatimizda o‘zbek tilini o‘rnini yanada mustahkamlash, uning milliy ruhini ko‘tarish, O‘zbekistonning har bir fuqarosi kommunikatsiya vositasida o‘zbek tilidan o‘rinli va to‘g‘ri foydalanish kabi bir qator vazifalarni bajarish nofilologik yo‘nalishlarda fanni o‘qitilishi muhimligini taqozo etadi.

Ona tilini o‘qitishda turli yondashuv tamoyillaridan foydalanish masalalari o‘rganilgan. Bugungi kunda esa fanni psixolingvistik yondashuv tamoyillariga asoslangan texnologiyalardan foydalanib o‘qitishning ahamiyati va zarurati mavjuddir. Negaki, psixolingvistikaning diqqat markazida individ va kommunikatsiya turadi. Unga ko‘ra, so‘zlovchi nutqni yuzaga chiqarar ekan, o‘zi o‘ylagan niyatini ma’lum qoidalar asosida aniq tilning nutq birliklariga uzatadi. Tinglovchi nutqni qabul qilar ekan, nutq ifodalarining tashqi shaklida o‘z aksini topgan ma’noni chiqarib oladi. Psixolingvistikaning diqqat markazida inson turadi. Uning eng muhim xususiyati inson omili hisoblanadi. Binobarin, inson nutqni yaratadi va uni idrok qiladi. Psixolingvistika bu omilni nafaqat nutqning, balki eng muhim – tilning o‘zini ham xarakterini, mohiyatini aniqlaydigan majburiy omil sifatida o‘z modellarining tavsiflari, asos qilib olingan hukmlariga faol tatbiq qiladi. Bunda qandaydir mavhum “umuman odam” emas, balki real harakatdagi xotiraga ega real odamlar, ularning yoshiga oid xususiyatlari, shaxsiy tajribasi, ijtimoiy roli va boshqalar nazarda tutiladi.

Psixolingvistikaning o‘ziga xos xususiyatlariga inson omilini kiritish – bu muhim, biroq u nutqiylar faoliyatga psixolingvistik yondashuvni tavsiflovchi yagona jihat emas. Modomiki, so‘zlovchi va tinglovchi omili kiritilgan ekan, o‘z-o‘zidan vaziyat omiliham kiritilgan sanaladi. Binobarin, kishi qandaydir vaziyatda gapiradi va eshitadi. Buning ustiga shunchaki qandaydir vaziyatda emas, balki belgilangan, aniqlangan vaziyatda gapiradi va eshitadi. Agar til va nutqni klassik qarama-qarshi qo‘yishda barcha vaziyatlar faqat nutqqa taalluqli, tilga esa vaziyatlardan holi, barqaror tizim sifatida qaralgan bo‘lsa, psixolingvistik yondashuvda murakkab va harakatdagi vaziyat omili inson omilidek nafaqat nutqda, shuningdek, tilda ham mavjud bo‘ladi.

Ma’lumki, tilshunoslik obyekti nutqiylar faoliyat (nutq aktlari, nutq reaksiyalari) hisoblanadi. Lingvistikaning predmeti kommunikatsiyada qo‘llaniladigan til vositalarining tizimi sanaladi. Psixolingvistikaning predmeti lingvistikanikidan farq qiladi. Psixolingvistikani mazkur belgilar tizimining ishlash jarayoni, xususan, belgilarning yaratilish va qabul qilinish jarayonlari qiziqtiradi. Psixolingvistika nutqiylar faoliyat haqidagi fan bo‘lib, uning obyektini u o‘rganadigan individual obyektlar majmuyi tashkil qiladi. Lingvistika nutq tuzilishini til qonunlariga ko‘ra o‘rganadi. Psixolingvistika esa nutq hosil qilish, nutqni qabul qilish, shuningdek, ona tili va chet tilini o‘zlashtirish jarayonlariga murojaat qiladi.

Hozirgi kunda ko‘p tilshunoslar til faktlarini to‘liq tushunish uchun lingvistika ramkasidan chiqib, individning psixik jarayonlari doirasiga kirish lozimligini tan olishadi. Binobarin, til materiali kishi miyasida tashkil topadi va kerak paytda chiqariladi. Bunday psixik jarayonlar psixolingvistikaning predmeti hisoblanadi.

Psixolingvistika tilni psixikaning fenomeni sifatida o‘rganadi. Psixolingvistika qarashicha, so‘zlovchi va tinglovchi, yozuvchi va o‘quvchining ichki dunyosi qanday bo‘lsa, til ham shu darajada mavjud. Shu bois, psixolingvistika faqat matnlargina saqlanib qolgan, bu matn yaratuvchilarining psixik olamlari bo‘lmagan o‘lik tillar (masalan, eski slavyan yoki yunon tillari)ni o‘rganish bilan shug‘ullanmaydi.

Psixolingvistika tilni o‘rgangani uchun tilshunoslik fanlariga, tilni alohida aspektida, xususan, psixikaning fenomeni sifatida o‘rgangani uchun esa psixologiya fanlariga aloqador bo‘lgan kompleks fan hisoblanadi.

Oliy ta’limda davlat tilini o‘qitish bo‘yicha ko‘plab taddiqotlar amalga oshirilgan. Ona tilini o‘qitish orqali o‘quvchilarning ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish va ilmiy-nazariy ma’lumotlarni amaliyotga tatbiq etish usullari, o‘quvchilarning kommunikativ savodxonligini oshirish, ona tili mashg‘ulotlarini yangi pedagogik texnologiyalar asosida takomillashtirish Yo.G‘ulomov,

A.G‘ulomov, N.Mahmudov, B.To‘xliyev, N.Uluqov, T.Ziyadova<sup>2</sup> va boshqa olimlarning ishlarida batafsil yoritilgan.

Ona tili ta’limi mazmunini yangilash, nutq va tafakkur o‘sirish masalalarida uzluksizlikni ta’minlash, integratsiyali ta’limni amalga oshirish, o‘quv materiallarining metodik ta’minotini takomillashtirish, o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish bo‘yicha Sh.Yusupova, M.Sobirova, M.Saidov, M.Mirmaksudova, X.Qurbanova, X.Muhiddinova, A.Hamroyev, G‘.Hamroyev, sintaksisni morfologiyani takrorlash bilan bog‘lab o‘rganish yuzasidan T.Yusupova<sup>3</sup>lar tadqiqot olib borgan.

Aynan oliy ta’limda ona tilini o‘qitish, davlat tilida ish yuritish kompetensiyalarini rivojlantirish borasida ishlar kam bo‘lib, jumladan, M.Dadaxanova<sup>4</sup>, L.Izzatillayeva<sup>5</sup>, O.Iskandarova<sup>6</sup>, M.Akobirova<sup>7</sup>larning ona tili va umuman til o‘qitishga oid ishlari amalga oshirilgan, biroq o‘zbek tilini psixolingvistik yondashuv asosida o‘rgatish monografik planda tadqiq etilmagan.

<sup>2</sup> Фуломов Ё., Абдурахмонов Н. Ўзбек тили ўқитиши методикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1975. – 112 б; Фуломов А., Неъматов Ҳ. Она тили таълими мазмуни. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995; Фуломов А., Қодиров М. ва бош. Она тили ўқитиши методикаси. – Тошкент: Фан ва технология, 2012. – 380 б; Махмудов Н., Нурмонов А., Собиров А ва б. Ўзбек тили ўқитиши методикаси. Ўқув кўлланма. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. – 176 б; Улуков Н., Фойиназарова Н. Она тили. 6-синф. Ўқитувчилар учун методик кўлланмана. – Тошкент: Тасвир, 2005. – 192 б; Зидёва Т. Матн яратиш технологияси. – Тошкент: Фан, 2007. – 143 б.

<sup>3</sup> <sup>3</sup> Юсупова Ш. Она тили таълими самарадорлигини оширишда илгор педагогик технологияларни жорий этиш (ноаънавий усууллар ва компютердан фойдаланиш): Пед.фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2005; Собирова М. Ўзбек мактаблари юкори синф ўкувчиларига содда гап синтаксисини мунозара усулида ўргатиши: Пед.фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 1994; Сайдов М. Ўзбек мактабларининг 5-синфларида она тили таълими жараённада тафаккурни ривожлантирувчи ўқув топшириклари ва улардан фойдаланиш методикаси: Пед. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2000; Мирмаксудова М. Ўкувчилар нутқини такомиллаштиришда грамматик терминлардан фойдаланишининг лингвометодик асослари (5-7-синф она тили дарслари мисолида): Пед. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2004; Курбанова Ҳ. Она тили таълими мазмунини янгилашнинг лингвометодик асослари: Пед.фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2005; Мухитдинова Ҳ.С. Ўзбек тилини ўқитишида узлуксизликни таъминлашнинг илмий-методик асослари. – Тошкент: Фан ва технологиялар, 2008. – 238б; Ҳамроев А. Она тили таълимида ўкувчиларнинг ижодий фаолиятини лойихалаштириш. Пед. фан. док... дис. – Тошкент, 2020. – 246 б; Ҳамроев Ғ. Умумий ўрта таълим тизимида фонетикага доир ўқув материалларининг методик таъминотини такомиллаштириш. Пед. фан. фалсафа доктори (PhD). – Самарқанд, 2019. – 144 б; Юсупова Т. Синтаксисни морфологияни такрорлаш билан боғлаб ўрганиш методикаси. – Тошкент: Фан ва технология, 2009. – 179 б.

<sup>4</sup> Dedaxanova M. (2023). OLIY TA’LIMDA O‘ZBEK TILI FANINI NOAN’ANAVIY USULDA O‘QITISHNING AHAMIYATI. *Interpretation and Researches*, 1(4). извлечено от <https://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/57>

<sup>5</sup> Izaitullayeva , L. (2023). OLIY TA’LIMDA TALABALAR O‘RTASIDA SHAXSLARARO MUNOSABATLAR. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(10 SPECIAL), 171–174. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/3831>

<sup>6</sup> Iskandarova, O.R. OLIY TA’LIMDA RUSIYZABON GURUH TALABALARIGA “O‘ZBEK TILI-DAVLAT TILI”, “O‘ZBEK TILINING IMLO QOIDALARI” MAVZUSINI O‘RGATISH BO‘YICHA AYRIM TAVSIYALAR // ORIENSS. 2021. №9. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/oliy-ta-limda-rusiyabon-guruh-talabalariga-o-zbek-tili-davlat-tili-o-zbek-tilining-imlo-qoidalari-mavzusini-o-rgatish-bo-yicha> (дата обращения: 25.02.2024).

<sup>7</sup> Akobirova M. Oliy ta’lim tizimida tabaqalashtirilgan yondashuv // Innovation in modern Education system, Vol.3, N 33, 2023. <https://interonconf.org/index.php/usa/issue/view/129>; Madaminova, R. (2023). OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA NOFILOGOIK YO’NALISH TALABALARIGA TIL O‘QITISHNING ZAMONAVIY USULLAR SAMARADORLIGI. Бюллетень студентов нового Узбекистана, 1(4), 143–144. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/yota/article/view/13423>

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармони. Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чоратадбирлари тўғрисида – HURRIYAT (uzhurriyat.uz)
2. Belyanin V.P. Psixolingvistika – M., 2004.
3. Saxarniy L.V. Vvedeniye v psixolingvistiku – L., Izd. LGU, 1989.

## GRAMMATICAL FEATURES OF ENGLISH AND UZBEK RIDDLES

*Nuriddinova Huriyat Baxtiyorovna*  
*Termiz davlat Pedagogika instituti ingliz tili fani o’qituvchisi*  
+998978070771  
*nuriddinova93@inbox.ru*

**Annotatsiya.** O‘zbek va jahon xalq og‘zaki ijodining keng tarqalgan turlaridan biri topishmoqlardir. Xalq amaliy san’atining eng qadimiy va an’anaviy turlaridan biri bo‘lgan topishmoqlar o‘ziga xos tarbiyaviy ahamiyatga ega. Boshqa xalq og‘zaki ijodi turlari singari topishmoqlar ham xalqimizning urf-odatlari, urf-odatlari, axloqiy, estetik, ma’naviy e’tiqodlarining ko‘zgusidir. Ushbu maqolada topishmoqlarning grammatik tuzilishi, tarixi va o‘qitishdagi o‘rni haqida so‘z boradi.

**Kalit so'zlar:** topishmoqlar, xalq og'zaki ijodi, grammatik tuzilish, o'qitish

**Annotation.** One of the most prevalent types of Uzbek and global folklore is riddles. One of the oldest and most traditional forms of folk art, riddles have a unique educational value. Like other forms of folklore, riddles are a reflection of our people's traditions, customs, and moral, aesthetic, and spiritual beliefs. This article is about the grammatical structure of riddles, history and their role in teaching.

**Key words:** riddles, folklore, traditional riddles, grammatical structure, teaching

**Аннотация.** Одним из наиболее распространенных видов узбекского и мирового фольклора являются загадки. Загадки, один из древнейших и традиционных видов народного творчества, имеют уникальное воспитательное значение. Как и другие виды фольклора, загадки являются отражением традиций, обычаяев, нравственных, эстетических и духовных представлений нашего народа. Эта статья о грамматическом строем загадок, истории и их роли в обучении.

**Ключевые слова:** загадки, фольклор, традиционные загадки, грамматическая структура, преподавание

Introduction. Riddles are extensively used in all cultures and have long been an essential component of oral folk speech. It is impossible to overstate how they are transmitted through ancestry because they exist among people and are passed down from generation to generation. Furthermore, the presentation of riddles differs according to the place. As a separate literary and linguistic genre, riddles have a number of distinctive grammatical characteristics. Their ambiguity, fun, and cognitive challenge are all influenced by these characteristics. The following are some essential riddle grammatical features. In Uzbek riddles are called with the words “topishmoq”, “topmacha”; in English versions are riddles, conundrum, brain teasers and others.

We decided to see about the simple and complicated phrases simple, compound, or complicated sentences can be used to make riddles. As an example, we enter these type of riddles: I speak without a mouth and hear without ears. I have no body, but I come alive with wind. What am I?<sup>8</sup>. However, a straightforward difficulty is frequently created by simple sentences: What has hands yet is unable to clap? More nuanced wordplay is possible in complex sentences: the more you take, the more you leave behind. What is it? (Response: Steps). Sometimes, we may face unusual or inverted word order and riddles use odd or inverted syntax to create mystery and difficulty: Runs but never walks, has a bed but never sleeps, and runs but never walks. What is it? (This would be the natural order: "It has a bed but never sleeps and runs but never walks."

**MATERIALS AND METHODS** Although the objects of riddles have remained unchanged, some folklore works belonging to this genre stand out for their multi-layered nature, meaning they have various interpretations due to the gradual development of folk artistic thinking throughout history. There are certain riddles whose compositional structure contains taboo terms, mythological concepts, and interpretations of specific customs and rituals. Because of this, it is quite difficult to clarify the genesis of such riddles, as they belong to different historical periods. These riddles were originally formed as separate puzzles, but later merged into a single, cohesive text, making it somewhat challenging to determine their historical origins.

It is widely seen that riddles vary in form and content. If we take a closer look, we can find different types, such as one-line declarative riddles, one-line interrogative riddles, four-line rhyming poetic riddles, riddles based on question-and-answer dialogues, and even fairy tales and epics built around riddles. For example:

"A golden stake underground – It serves as food for all around." (Carrot)

<sup>8</sup> <https://www.rd.com/list/challenging-riddles/>

Especially, we can see simple sentence riddles in both Uzbek and English riddles: for example, in Uzbek, "Ariqdan oyna oldim/muz/". In this riddle "oldim" is expressed with a verb. However, in English riddle- "What type of dress can never be worn?" the verb is given by "be born". Besides, there are such riddles that their construction can be compound or complex; or such riddles which can be restored in story. Compound riddles we know that will be connected with conjunctions, like: Chiqib bo'lmas, kirib bo'lmas, Lekin ichra yurib bo'lmas. (Javob: Ko'z); in this riddle the conjunction is "lekin" which is connecting two sentences. In English language, You will always find me in the past. I can be created in the present, But the future can never taint me. What am I? But is used here to conjunct the sentences.

Discussion. In story riddles we may give these riddles as : "A wealthy family lived in a big circular house. They had a maid, a butler, and a gardener. The parents were going to a party, so they tucked the younger kids into bed and kissed them goodnight and said goodbye, and kissed the older kids goodnight. When the parents came home, all the kids were gone—they had been kidnapped. The authorities ask the butler, maid, and gardener what they were doing at the time of the kidnapping. The butler says he was organizing the library, the maid says she was dusting the corners, and the gardener says he was watering the plants. Who's lying and actually kidnapped the kids? Answer: The maid—she said she was dusting the corners, but the family lives in a circular house, so there are no corners."<sup>9</sup>

This genre's earliest roots can be found in the V–XI centuries of English culture. The Exeter Book and Codex Exoniensis, a compilation of tenth-century English poetry manuscripts that have survived to the present day, provide detailed descriptions of ancient English riddles. Anthologies of Anglo-Saxon poetry, such as the Exeter Code, continue to be popular. Among the various genres are roughly 90 poetic riddles. General doubt is one of the two sides of some of them. Many academics are currently forced to concentrate on solving some of the puzzles in the well-known Exeter Code because of this aspect, but they are still puzzles. Mythical imagery can also be seen in many of the extremely old challenges that we still face today.

Mythical imagery can also be seen in many of the extremely old challenges that we still face today. Consider the natural phenomena known as "Flowers without arms and legs" (frost), which happens during harsh winters. We can conclude that winter arrives cold in our nation based on the aforementioned puzzle. Of course, the puzzle's material was developed subsequent to the creation of the

<sup>9</sup> <https://www.rd.com/article/long-riddles/>

window. Nonetheless, the results also retain remnants of the animistic worldview. After giving a quick synopsis of the riddles, let's examine the three peoples in comparison. We are all aware that agriculture and animal husbandry have always been central to Uzbek culture. As everyone knows, hunting, farming, and animal husbandry have long been integral parts of Uzbek culture. Because of this, the majority of the riddles center on that subject. For instance: No eyebrows or hair on the head.

Overall, As a result, the riddles' thematic range is incredibly broad. First and foremost, it is nature, flora and wildlife, humans, their lives, the realms of art and science, and tools of labor, ranging from archaic to cutting-edge and technically flawless. As a unique form of folk art, riddles depict the evolution of human knowledge and spiritual interests as well as the history of the people's material culture, living situations, and environmental, social, and human surroundings.

### Used literature

1. Abdullayev J.X. Lexical-semantic features of Uzbek riddles: Philol. Subjects nom.ffrz diss.avtoref-. T., 1993. 3. Aristotle ', 1998. Poetics. On the art of poetry. In: Aristotle '. Ethics. Politics. Rhetoric. Poetics. Categories [Ethics. Politics. Rhetoric. Poetics. Categories]. Minsk. pp. 1064-1112.
2. Mirzayev T. Riddles Uzbek oral poetic work. -T.: Teacher, 1990
3. Baum Paull F. Anglo-Saxon Riddles of the Exeter book. - Duke University Press, Durham, North Carolina, 1963. - URL: <http://en.wikisource.org/wiki/>
4. Nuriddinova, H. . (2023). TOPISHMOQLAR TASNIFINING METODOLOGIK ASOSLARI. Current Approaches and New Research in Modern Sciences, 2(12), 124–128. извлечено от <http://www.econferences.ru/index.php/canrms/article/view/10788>
5. Bakhtiyarovna, N. H. (2021). CULTURE IS AN INSEPARABLE PART OF ANY ETHNIC GROUP. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 2 (11), 120–126.
6. Jo‘rayeva, N. (2024). DUNYONING LISONIY MANZARASIDA “SMILE/TABASSUM” TUSHUNCHALARINING VERBALLASHUV VOSITALARI (ingliz va o‘zbek tillari misolida). TAMADDUN NURI JURNALI, 10(61), 223-226.

### Websites:

7. [www.booksite.ru](http://www.booksite.ru)
8. <https://www.rd.com/list/challenging-riddles/>
9. [www.Zagadki-pro.ru](http://www.Zagadki-pro.ru)
10. [www.jstor.org](http://www.jstor.org)
11. [www.sliderulemuseum.com](http://www.sliderulemuseum.com)

## MANTIQIY FIKRLASHGA OID KLASSIK XORIJIY NAZARIYALARING O'QITUVCHILARNING FIKRLASH JARAYONLARIGA TA'SIRI

*Kalekeeva Sarbinaz Turkmenbaevna,  
Ajiniyoz nomidagi NDPI, tayanch doktoranti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada zamonaviy ta'lurma shaklida mantiqiy va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish muhimligi haqida so'z yuritiladi. Piajening kognitiv rivojlanish nazariyasi, Vigotskiyning madaniy-tarixiy nazariyasi va Deweyning reflektiv fikrlash nazariyalariga asoslanib, o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda qo'llaniladigan usullar batafsil tushuntiriladi. Ushbu nazariyalar boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun dars jarayonini samarali va qiziqarli qilishda katta yordam beradi, bu esa, o'z navbatida, o'quvchilarning mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

**Kalit so'zlar:** Piaje, Vigotskiy, Dewey, mantiqiy fikrlash, reflektiv fikrlash, kognitiv rivojlanish, boshlang'ich ta'lum, tanqidiy fikrlash.

Hozirgi kunda ta'lum sohasida o'qituvchilardan faqatgina an'anaviy bilimlarni yetkazish emas, balki o'quvchilarning mantiqiy va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish talab qilinmoqda. Bu esa o'qituvchilarning o'zlari ham zamonaviy va ilmiy asoslangan fikrlash usullarini egallashini taqozo etadi.

Xorijiy nazariyalar – masalan, Piajening kognitiv rivojlanish nazariyasi yoki Deweyning reflektiv fikrlash haqidagi g'oyalari – o'qituvchilarga o'z ish jarayonida tanqidiy va analistik fikrlash usullarini qo'llash imkonini beradi. Bunday nazariyalar asosida boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'quvchilarning fikrini chuqurroq va kengroq shakllantira oladigan metodlarni ishlab chiqishi va joriy qilishi mumkin. Mantiqiy fikrlashning kuchayishi nafaqat o'qituvchilarning ta'lum jarayonidagi yondashuvlarini yaxshilaydi, balki ularning o'quvchilarga o'z fikrlarini to'g'ri shakllantirishga va murakkab masalalarni yechishda mustaqil qaror qabul qilishlariga yordam beradi.

Global ta'lum tizimida innovatsiyalar va tanqidiy fikrlashga bo'lgan e'tibor oshgani sayin, xorijiy nazariyalarni o'rganish va amalda qo'llash boshlang'ich ta'lum o'qituvchilari uchun dolzarb bo'lib qolmoqda. Bu borada xorijiy tajribadan foydalanish o'qituvchilarning nazariy bilimlarini boyitish bilan birga, ularning kasbiy faoliyatida mantiqiy fikrlashni rivojlantirishiga katta turtki beradi.

Mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga oid klassik xorijiy nazariyalar ko'p asrlik ilmiy tadqiqotlarning mahsuli bo'lib, ular bugungi ta'lum tizimida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu nazariyalar o'qituvchilarga o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini chuqurlashtirish va kengaytirishda yordam beradi.

### 1. Piajening kognitiv rivojlanish nazariyasi

Shveysariyalik psixolog Jean Piajening kognitiv rivojlanish nazariyasi o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonini bosqichma-bosqich tushuntiradi. Piaje fikricha, bolalar turli yosh davrlarida turlicha fikrlash usullarini qo‘llaydilar. U kognitiv rivojlanishni to‘rt asosiy bosqichga bo‘ladi:

- Sensorimotor bosqich (0-2 yosh): Ushbu davrda bolalar asosiy hissiy va motor tajribalar orqali o‘rganadi.

- Preoperatsional bosqich (2-7 yosh): Bolalar ramziy fikrlash, lekin hali mantiqiy fikrlash ko‘nikmalariga ega emaslar.

- Konkrekt operatsion bosqich (7-11 yosh): Bolalar mantiqiy fikrlashni rivojlantira boshlaydilar, lekin faqat konkret, ya’ni sezgi orqali qabul qilinadigan narsalarga nisbatan mantiqni qo‘llay olishadi.

- Formal operatsion bosqich (11 yoshdan katta): Bolalar abstrakt va gipotetik fikrlashni rivojlantiradi va murakkab masalalar ustida mantiqiy tahlil olib borishga qodir bo‘ladilar.

O‘qituvchilarga ta’siri: Piajening nazariyasi asosida o‘qituvchilar o‘quvchilarning rivojlanish bosqichlarini hisobga olib, dars jarayonini moslashtirishi mumkin. Masalan, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari konkret operatsion bosqichdagi bolalarga real ob’ektlar va amaliy tajribalar orqali mantiqiy fikrlashni o‘rgatishi kerakligini biladilar. Bu o‘quvchilarga ko‘rsatmali materiallar orqali ko‘proq mantiqiy muammolarni hal qilish imkonini beradi.

### 2. Vigotskiyning madaniy-tarixiy nazariyasi

Lev Vigotskiy tomonidan taklif etilgan madaniy-tarixiy nazariya bolalarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda ijtimoiy va madaniy muhitning roli katta ekanligini ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, bolalar o‘z yaqinlarining va jamiyatning yordami bilan mantiqiy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Vigotskiy “Yaqin rivojlanish zonası” (Zone of Proximal Development - ZPD) tushunchasini kiritgan bo‘lib, bunda bola murabbiy yoki katta yoshdagilar yordami bilan erishishi mumkin bo‘lgan rivojlanish darajasi ko‘zda tutiladi.

O‘qituvchilarga ta’siri: Vigotskiy nazariyasiga asoslanib, o‘qituvchilar o‘quvchilarni murakkab vazifalarni bajarishga yo‘naltirishi va ularni yordamlashuvchi o‘qituvchilar yoki tengdoshlar bilan o‘zaro aloqada bo‘lishga undashi kerak. Bu esa mantiqiy fikrlashni shakllantirishga yordam beradi. Misol uchun, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari o‘quvchilarga masalalarni birgalikda yechish yoki topshiriqlarni bosqichma-bosqich tushuntirish orqali ularning mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

### 3. Deweyning reflektiv fikrlash nazariyasi

Amerikalik pedagog va faylasuf John Dewey reflektiv fikrlash konsepsiyasini ilgari surgan. Dewey nazariyasiga ko‘ra, o‘quvchilar bilim olish jarayonida o‘z tajribalariga reflektiv yondashib, ma’lumotlarni o‘rganish orqali o‘zlarining qiziqishlariga mos ravishda fikrlashni rivojlantirishlari kerak. Reflektiv fikrlash jarayoni o‘quvchilarning har bir qadamda o‘rganilayotgan mavzu haqida o‘z munosabatini shakllantirishga yordam beradi, bu esa mantiqiy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini kuchaytiradi.

O‘qituvchilarga ta’siri: Dewey nazariyasiga asoslanib, o‘qituvchilar o‘quvchilarning mustaqil fikrlash va o‘z tajribalariga asoslanib mulohaza yuritishlarini rag‘batlantirishi kerak. Reflektiv fikrlash dars jarayonida o‘quvchilarning chuqurroq fikr qilishiga, har bir topshiriqni o‘z nuqtai nazaridan tahlil qilishga yordam beradi. Misol uchun, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari o‘quvchilardan o‘z fikrlarini izohlaydigan va o‘z yechimlariga sabablar keltiradigan savollar berishlari mumkin.

Xulosa. Bu uchta nazariya boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga turli yoshdagi o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda qanday yondashuvlar qo‘llashni tushunishga yordam beradi. Piaje o‘quvchilarning kognitiv rivojlanish bosqichlarini tushunishni, Vigotskiy ijtimoiy ta’sir orqali fikrlashni shakllantirishni va Dewey reflektiv fikrlash orqali mustaqil mulohaza yuritishni qo‘llashni tavsiya etadi. Ushbu nazariyalar o‘qituvchilarga o‘z darslarini o‘quvchilar uchun qiziqarli va samarali qilishda yordam beradi, bu esa, o‘z navbatida, o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Piaje, J. “The development of thought: equilibration of cognitive structures”. Viking press. New York, USA.-1972. 237 pages.
2. Vygotsky, L.S. “Mind in society: The development of higher psychological processes”. Harvard university press. Cambridge, USA.-1978. 159 pages.
3. Dewey, J. “How we think: A restatement of the relation of reflective thinking to the educative process”. D.C. heath and company. Boston, USA.-1933 301 pages.
4. Wood, D., Bruner, J.S., & Ross, G. “The role of tutoring in problem solving”. Journal of child psychology and psychiatry, 17(2), - 1976. 89-100.
5. Bruner, J. S. “Toward a theory of instruction”. Harvard university Press. Cambridge, USA.-1966. 176 pages.

## VAHIY VA IJTIHOD BOSQICHLARIDA FIQHNING URGFA RIOYA QILISHI

*Nasrulloh To‘xtayev*

*O’zbekiston xalqaro islam akademiyasi tayanch doktoranti*

+998 91 908 76 76

*nasrulloh.tuxtayev@mail.ru*

*Orcid: 0002-0006-89100-1411*

Har bir ummat ichida mavjud bo‘lgan odatlarning katta qismi aslida insonlar orasidagi ijtimoiy rishtalarini tartibga solish uchun yuzaga keladi. Bu rishtalar shaxs bilan shaxs yoki shaxs bilan jamoa yoki jamoa bilan boshqa bir jamoa o‘rtasida bo‘lishi mumkin.

Bu esa aynan Islom shariatining maqsadidir. Shuningdek, barcha qadimgi va zamonaliviy qonunlarning maqsadi ham shudir. Odamlar o‘zlari o‘rgangan narsalarga ergashishni va o‘zaro urf bo‘lgan narsalar asosida yurishni lozim tutadilar. Chunki, o‘zlari o‘rgangan odatlardan voz kechish ular uchun ulkan mashaqqat tug‘diradi.

Shu sababli shore’ shariatga joriy qilgan hukmlarda to‘g‘ri urfni e’tiborga olishga katta ahamiyat bergen. Toki insonlar uni osongina qabul qila olsinlar va uni amalda tatbiq etishda qiynalmasinlar. Sahih urf islam qonunchiligini shariatga kiritishda ta’sir o‘tkazuvchi eng muhim omillardan biri bo‘lib kelgan. Buning sababi shuki, Islom faqatgina insonlar hayotidagi noto‘g‘ri narsalarni isloq qilish, shuningdek, avvalgi eskirgan shariatlarni yangilash uchun kelgan. Shu sababli, uning tabiatida yaxshi odatlarni bekor qilish ham,adolatli shariatlarni yo‘q qilish ham, fazilatga ega madaniyatlarni inkor qilish ham mavjud emas.

Balki, shore’ urf-odatlarning insonlar manfaatlariga kafolat beradiganlarini to‘g‘ri deb hisoblagan, uni o‘z shariatidan deb e’tibor qilgan va insonlarning ishini unga ko‘ra tadbir qilgan. Lekin, bularni odat o‘laroq emas, balki, o‘zida bu dunyo va oxiratda insonlarning manfaatini o‘z ichiga olgan din o‘laroq joriy qilgan. Chunki, shore’ urfni to‘g‘ri deb bilishi bilan ehtirom qilgan vaqtida uni insonlarga shariat sifatida joriy qilgan va mana shu bilan muqaddas din degan sifatga ega bo‘lgan.

Arab ummati moliyaviy muomalalarda oqilona urfga ega edi, shuningdek, shaxsiy holatlar va jazolar borasida ham shunday edi. Bular qatoriga shiorlar va boshqa narsalar ham kirardi.

Ichlarida qozilik va hikmat bo‘lgan arablarning tajribalari bu odatlarning ba’zilarini mustahkamlab qo‘ygan edi. Ibrohimiylik, ismoiliylik, yahudiylilik va nasroniylik kabi ilgari o‘tgan shariatlar ba’zi urf-odatlarni ularning qalblarida

barqaror saqlab turgan. Arablarning dastlabki makoni Arabiston yarim oroli bo‘lgan. Yahudiylar keyinchalik hijrat diyoriga aylangan Yasribga joylashgan edi. Nasroniylar Tiberiya, G‘asson va boshqa qishloq vodiylarida yashashardi.

Arablar ba’zi odatlarni qo’shni xalqlardan ham olgan edi. Masalan, Fors imperiyasi Arabiston yarim orolining sharqiy qismiga qo’shni edi, g‘arb tomonda esa Rum (Vizantiya) joylashgan bo‘lib, ular bilan arablarning savdo aloqalari mavjud edi. Xuddi shuningdek, Arabiston Shom bilan ham savdo-sotiq olib borardi. Qur’onda keltirilgan "Quraysh (aholisi)ga qulay qilib qo‘ygani uchun, ya’ni ularga qishda (Yamanga) va yozda (Shomga) safar qilishni qulay qilib qo‘ygani uchun ", degan oyat ana shu savdo safarlariga ishora qiladi. Shom hududi Vizantiya nazoratida bo‘lib, Rum va Fors imperiyalari madaniyat va qonun chiqarish borasida yuksak darajada rivojlangan davlatlar edi.

Moliyaviy muomalalarga kelsak, arablar sotish, garov, ijaraga berish, sheriklik va muzoraba kabi savdo shakllaridan foydalanardilar. Islom esa ularning ba’zilarini e’tirof etdi, biroq shundaylarini man qildiki, ularda botil yo’l bilan odamlarning mol-mulkini yeb yuborish, nasiya va fazl ribosi kabi nizolarga sabab bo‘ladigan holatlar, homila, yangi tug’ulgan hayvon, yelindagi sutni sotish, ushlab ko’rish, munobaza va tosh tashlash orqali bo‘lgan savdolar kabi aldov va xatarga olib boradigan savdolar mavjud edi.

Abu Dovud (rahimahulloh) rivoyat qilgan hadisda aytildi: Soib ibn Abu Soibga Rasululloh sollallohu alayhi vasallam aytdi:

“Sen menga sherik eding! Qanday ham yaxshi sheriksan”

“Sen sherikchilikni bilmas eding va savdo-sotiqni ham tushunmas eding.”

Ibn Hishom “As-Siyra” kitobida aytadi: Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning muborak zavjalari, Xadicha binti Xuvaylid roziyallohu anho haqida shunday rivoyat bor:

“Ibn Ishoq aytadi: Xadicha binti Xuvaylid sharaf va boylikka ega bo‘lgan, savdo bilan shug‘ullangan ayol edi. U savdo uchun odamlarni yollardi va ular bilan moliyaviy bitimlar tuzardi. Islom e’tirof etgan arablarning moliyaviy muomalalariga dalolat qiladigan shu va shunga o’xshash manbalar mavjud. “Rasululloh ﷺ insonda yo‘q narsaning sotilishidan qaytarganlar. Bu qaytariq Madinada joriy bo‘lgan muomala bo‘lmish salam savdosini o‘z ichiga olgach va bu narsa insonlarga katta qiyinchilik tug’dirgach-men aytamanki-salamga ruxsat berildi va nizomini o’zgartirganidan keyin islom uni e’tirof qildi.

Imom al-Buxoriy Ibn Abbosdan rivoyat qiladi: “Nabiy ﷺ Madinaga kelganlarida, odamlar bir va ikki yilga mevalarni salam savdosi uslubida

sotayotgan edilar. Shunda Rasululloh ﷺ Kimki salam savdosida sotsa, ma'lum kaylda va ma'lum vaznda ma'lum muddatga salam qilsin”, dedilar.

Rasululloh ﷺ shuningdek, muzobana savdosidan ham qaytardilar. Muzobana savdosi deb, xurmoning yuqori uchlaridagi xurmolarni shuncha miqdordagi terib olingan xurmo evaziga sotishga aytildi. Chunki bu belgilangan miqdorga emas, balki taxminga asoslanadi. Buning sababi, unda riboga o'xshash jihat bor edi, holbuki, riba haromdir.

Ammo odamlar bunday savdoga ehtiyoj sezganlari uchun, ular xurmo daraxtining bosh qismini xurmo mevasiga almashtirish bilan shug‘ullanib kelardilar. Bu odat ularning orasida keng tarqalgan edi. Shuning uchun Rasululloh ﷺ soliqlarning oldini olish va ularning ehtiyojlarini hisobga olib, bunga ruxsat berdilar.

Imom al-Buxoriy o'z isnodi bilan rivoyat qiladi: “Rasululloh ﷺ kimdan mol bozorda buqa sotishni taqiqladilar? Faqat yaylov egalari undan istisno qilindi.”

Bu ikkisi shariatning eng kuchli dalillaridan bo‘lib, ularning asosida shariatning moslashuvchanligi va odamlarga yengillik yaratishga intilishi namoyon bo‘ladi. Alloh taolo: "Alloh sizlardan mashaaqqatni ketkazishni istaydi va sizlar uchun yengillikni xohlaydi”, degan.

Madinada qishloq xo‘jaligi va savdo tizimi islomdan keyin ko‘plab tartibga solindi. Nikoh tizimi ham shunday edi: islom kelguncha ayol erining mulki hisoblanar, unga mahr berilmas edi.

### Foydalilanigan manba va adabiyotlar ro‘yxati

1. Anwar Muhammad. Comparative study of insurance and Takafol (Islamic Insurance). Pakistan Development Review. 33.4 (1994): 1315-1330.
2. Apaydin, Yunus, İslam Hukuk Usulü, Bilay. – Ankara: 2019.
3. Calder Norman. İbn Âbidîn’nin Ukûdü Resmi’l-Müftî’ Adlı Risâlesi., Usûl İslâm Arastırmaları, çev. Şenol Saylan, sayı 2, Temmuz-Aralık, 2004, s. 189-208.
4. İbn Âbidîn, Muhammed Emin. Şerhu'l Manzûmeti'l-müsemmât bi Ukûdi resmi'l-müfti. Mecmûatü'r-Resail. – İstanbul: 1902. 1-2.
5. Ziadeh, Farhat J. Equality (Kafa'ah) in Muslim Law of Marriage. American Journal of Comparative Law. 6.4 (1957): 503-517.

## QISHLOQ XO`JALIGI TALABALARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

*Zakirova Feruza Maxmudovna*

*Toshkent axborot texnologiyalari universiteti  
professori, pedagogika fanlari doktori*

*Buranova Dilfuzaxon Anvarovna*

*Andijon qishloq xo`jaligi va agrotexnologiyalar  
instituti assistenti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada bo`lajak qishloq xo`jaligi mutaxassislarida kasbiy kompetentlikni rivojlanirish, ularning kasbiy faoliyatida axborot texnologiyalarni joriy etishning ahamiyati va uning qay darajada muhimligi haqida so`z boradi.

**Kalit so`zlar:** Ta`lim sohasi, mutahassis, qishloq xo`jaligi sohasi, kasbiy faoliyat, kompetensiya, kasbiy kompetensiya, qobiliyat darajasi, raqamli texnologiyalar, raqamlashtirish, iste`molchi, intellektual fermer.

**Аннотация.** В данной статье речь идёт о важности и степени развития профессиональной компетентности будущих специалистов сельского хозяйства, внедрения информационных технологий в их профессиональную деятельность.

**Ключевые слова:** Сфера образования, специалист, аграрная сфера, профессиональная деятельность, компетенция, профессиональная компетентность, уровень способностей, цифровые технологии, цифровизация, потребитель, интеллектуальный фермер..

**Abstract.** This article talks about the importance and extent of the development of professional competence of future agricultural specialists, the introduction of information technologies in their professional activities.

**Key words:** Sphere of education, specialist, agricultural sphere, professional activity, competence, professional competence, ability, level of abilities, digital technologies, digitalization, consumers, intellectual farmer.

Mamlakatimiz ta`lim sohasida salmoqli ishlar amalga oshirilayotganligi hech kimga sir emas. Ta`lim tizimini tubdan takomillashtirish, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlashning maqsadli yo`nalishlarini aniqlash, ayniqsa, pedagog kadrlarning kasbiy malakalari va bilim saviyasini uzlusiz yuksaltirish eng dolzarb masalalardandir. Juhon ta`lim tizimida fan va innovasiya faoliyatining yutuqlaridan keng foydalanish, jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarini izchil va barqaror rivojlanirish mamlakatning munosib kelajagini barpo etishning muhim omili bo`lib bormoqda. Yaponiya, AQSH, Finlandiya, Koreya, Rossiya, Xitoy kabi

davlatlarda yuqori kasbiy kompetentlikka ega, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga rivojlanishning asosiy yo‘nalishi sifatida qaralib, ta’limda innovasiyalarni, shu jumladan, o‘qitishning zamonaviy, interaktiv va ijodiy uslublarini keng joriy etilishi ta’minlanmoqda.

Mutaxassislarning bashorat qilishicha, 2050 yilga borib aholi soni 2 milliard kishiga oshadi. Dunyo aholisi ochlik muammosiga duch kelmasligi uchun oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini oshirish zarurati paydo bo‘ladi. Demak, qishloq xo‘jaligi mutaxassislariga talab katta bo‘ladi.

Albatta, sanoatni global o‘zgarishlar kutmoqda. Eng yangi texnologiyalar ishlab chiqarish faoliyatiga muvaffaqiyatlari joriy etilayotgani inson mehnatini yengillashtirib, fermer xo‘jaliklari samaradorligini bir necha barobar oshirish imkonini bermoqda. Mutaxassislar haqiqiy professional mavqeini saqlab qolish va mehnat birjasida doimo talabga ega bo‘lish uchun o‘zlarining bilim va ko‘nikmalarini kengaytirishlari kerak.

Hech kimga sir emaski, har yili ko‘plab mutaxassisliklar o‘z ahamiyatini yo‘qotadi. Qishloq xo‘jaligi bilan bog‘liq kasbni o‘rganishni tanlagan odamlar kelajakda talab yo‘qolib qolishdan qo‘rqishadi. Ko‘plab tadqiqotlar shuni ko`rsatadiki, yaqin kelajakda qishloq xo‘jaligi va qishloq xo‘jaligi profilidagi ko‘plab kasblarga talab ortib boradi, bu esa ushbu sohadagi mutaxassis hech qachon ishsiz qolmasligini anglatadi.

Agrosanoat kompleksi O‘zbekiston iqtisodiyotining eng muhim sohasidir. Agrar islohotning hozirgi bosqichi inqirozdan chiqish zarurati tufayli kadrlar siyosatiga alohida talablar qo‘ymoqda. Shu nuqtai nazardan, qishloq xo‘jaligi sohasida oliy ma'lumot diplomini olgan professional mutaxassis qanday bo‘lishi kerak degan savol dolzarbdir. Bugungi kunda ish beruvchilar xodimlarga qo‘yiladigan talablarni belgilashda, o‘z tanlovlarida talabaga o‘qitilgan fanlar ro‘yxatiga emas, balki uning qobiliyatlari va shaxsiy fazilatlari bilan birgalikda ega bo‘lgan vakolatlarga asoslanadilar.

Axborot texnologiyalarining rivojlanishi nafaqat iste’mol qilinadigan axborot hajmining o’n barobar ortishiga, balki uning tez eskirishiga va doimiy yangilanishiga olib keldi. Bunday sharoitda kasbiy faoliyatning samaradorligi bir marta va umuman berilgan ma'lumotlarga ega bo‘lishga emas, balki axborot oqimlarini boshqarish qobiliyatiga, tashabbuskorlikka, muammolarni hal qilish qobiliyatiga, yetishmayotgan bilimlarni izlash va ulardan foydalanish qobiliyatiga bog‘liq. Qishloq xo‘jaligi oliygohi bitiruvchisining kasbiy kompetensiyasi tarkibi kognitiv-faollik, motivatsion-qiyomatli, refleksiv-kommunikativ komponentlarni o‘z ichiga oladi. Kasbiy kompetentsiya umumiylashtirish qobiliyatini o‘z ichiga oladi; rahbariyat, hamkasblar bilan takomillashtirish qobiliyatini o‘z ichiga oladi;

muloqot qilish qobiliyati, hujjatlar bilan ishlash qobiliyati, turli manbalardan olingan ma'lumotlar; texnologik jarayonlarni ishlab chiqish, ishlab chiqarish loyihalarini yaratish ko'nikmalari. Kompetentsiya bilimlarni doimiy ravishda yangilab turish, kasbiy muammolarni muvaffaqiyatli hal qilish uchun yangi ma'lumotlarga ega bo'lishni anglatadi. Kasbiy kompetensiyalar ma'lum bir kasbiy muhitda muvaffaqiyatli mehnat faoliyatiga, tegishli kasblar doirasida mehnatning sifati va ishonchlilagini ta'minlashga qaratilgan.

Qishloq xo`jaligi sohasidagi jismonan og`ir va qattiq mehnat bilan bog'liq bo'lgan an'anaviy g'oyalar o'tmishda qoldi. Shuningdek hozir zamonaviy qishloq xo`jaligini IT texnologiyalaridan keng foydalanmasdan tasavvur qilish qiyin. Muvaffaqiyatli ishlash va jahon yutuqlari bilan o'z vaqtida tanishish uchun chet tillarini bilish zarur. Iqtisodiyotning jadal rivojlanishi ishchilarning kasbiy harakatchanligi va raqobatbardoshligini taqozo etdi. Bu o'zgarishlar muqarrar ravishda insonning kasbiy hayotida juda ko'p muammolarni keltirib chiqardi.

Hozirgi zamon jamiyati qishloq xo`jaligi oliv o'quv yurtlari bitiruvchilaridan qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishi sohasida chuqur nazariy va amaliy bilimlarni talab qilmoqda. Sivilizatsiyalashgan, yuqori darajada rivojlangan qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishini shakllantirish va rivojlantirish muvaffaqiyati ko'p jihatdan ularning kasbiy mahoratiga, shaxsiy va ijtimoiy yetukligiga bog'liq. Shu jumladan tarmoqning rivojlanish darajasi bilan birga qishloq xo`jaligi mutaxassislariga qo'yiladigan talablar darajasi ham ortib bormoqda, bu esa mutaxassislar tayyorlash strategiyasini jiddiy o'zgartirmoqda. Bu, ayniqsa, inqiroz hodisalarini keskin boshdan kechirayotgan qishloq xo`jaligi sohasida dolzarb va talabga ega.

Zero, xalq, dehqon boy bo'lsa, davlat ham boy bo'ladi. O'zbekistonda qishloq xo`jaligini rivojlantirish strategiyasi hayotiy va aniq vazifalarga boy ekanligi, mana shunday ezgu maqsadlarga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. Dilfuzakhan Anvarovna Buranova. "Issues of the development of professional competences in the education of agricultural specialists". International Journal of Education, Social Science & Humanities. Finland Academic Research Science Publishers ISSN: 2945-4492 (online) | (SJIF) = 7.502 Impact factor Volume-11| Issue-5| 2023 Published: |22-05-2023|. [www.ojs.rmasav.com](https://doi.org/10.5281/zenodo.7960592. 972-976 betlar.</a></li><li>2. Buranova. D.“О задачах по улучшении эффективности использования базой данных студентов в процессах цифровизации сельского хозяйства”. International Journal of Education, Social Science&Humanities. Finland Academic Research Science Publishers ISSN:2945-4492 (online)|(SJIF)=8.09 Impact factor Volume-12|Issue-3|2024 Published:|22-03-</li></ol></div><div data-bbox=)

- 2024| [https://farspublishers.org.](https://farspublishers.org) <https://doi.org/10.5281/zenodo.10902034.1042-1046> betlar.
3. Н.Каримов, Б.А.Қулматова, Д.Буранова. “Ақлли қишлоқ хўжалигини юритишда рақамли технологияларнинг жорий этиш масалалари”. «The XXI Century Skills for Professional Activity» International Scientific-Practical Conference. TASHKENT, UZBEKISTAN 2021, MARCH 15.
  4. Buranova.D. “Qishloq xo’jaligi oliy o’quv yurtlarida talabalarni kasbiy-kommunikativ tayyorlash”. “Экономика и социум” №3(118). 2024. ISSN: 2225-1545; 2541-9285. [www.iupr.ru](http://www.iupr.ru). 101-105 betlar.
  5. Buranova.D. “Bo‘lajak qishloq xo’jaligi mutaxassislarining kompetensiyaviy samaradorligini oshirish masalalari to‘g‘risida”, “Муғаллим ҳәм үзликсиз билимләндирүй”, ISSN 2181-7138.4-сан, июль, Нөкис-2024. Қарақалпақстан. 132-135 betlar.
  6. Buranova.D. “Qishloq xo’jaligi bo‘lajak mutaxassislarini kasbiy kompetentligini rivojlantirishning ayrim muammolari”, Science and education in agriculture, iyul 2024. volume 7, issue 7. ISSN: 3030-3222, OAK. <http://www.seagc.andqxai.uz>. 41-44 betlar.
  7. Мерхинова О.Ц., Доржиева С.Б., Оширов Э.Н. “Проблемы развития профессиональной компетентности будущих специалистов сельского хозяйства”, Бурятская государственная сельскохозяйственная академия им. В.Р. Филиппова, Россия [http://www.rusnauka.com/7\\_NITSB\\_2012/Pedagogica/2\\_103546.doc.htm](http://www.rusnauka.com/7_NITSB_2012/Pedagogica/2_103546.doc.htm).

**РОЛЬ ТЕМПОРАЛЬНОЙ ЛЕКСИКИ В ПОНИМАНИИ  
ИСТОРИЧЕСКОГО И СОЦИАЛЬНОГО КОНТЕКСТА ЧЕРЕЗ  
ПРИЗМУ ТВОРЧЕСТВА Ф.М. ДОСТОЕВСКОГО: КОНТРАСТИВНЫЙ  
АНАЛИЗ РУССКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ**

*Анварова Нигора Хосилжон кизи*

*Андижанский государственный педагогический институт*

*Магистратуры*

*Специальность: родной язык и литература / русский язык*

*Студентка*

*Давлатова Санамгина Камолдиевна*

*Андижанский государственный педагогический институт*

*Магистратуры*

*Специальность: родной язык и литература / русский язык*

*Студентка*

**Аннотация.** Данная работа посвящена исследованию роли темпоральной лексики в понимании исторического и социального контекста через призму творчества Ф.М.Достоевского. В исследовании проводится контрастивный анализ русского и узбекского языков с акцентом на особенности передачи временных и аспектуальных значений в контексте произведений великого писателя. Особое внимание уделяется тому, как лексические средства, отражающие временные категории, помогают создавать специфическую атмосферу в произведениях Достоевского и каким образом эти средства могут быть переведены или адаптированы в узбекский язык, сохраняя авторский замысел. В работе анализируются различные произведения Ф.М.Достоевского, а также культурные и языковые особенности, которые влияют на восприятие текста в разных языковых контекстах.

**Ключевые слова:** темпоральная лексика, исторический контекст, социальный контекст, творчество Ф.М.Достоевского, контрастивный анализ, русский язык, узбекский язык, лексическое значение, временные категории, перевод и адаптация.

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada F.M.Dostoyevskiy ijodi orqali tarixiy va ijtimoiy kontekstni tushunishda temporal leksikaning o‘rni bilan bog‘liq. Tadqiqotda rus va o‘zbek tillarida kontrastiv tahlil olib borilib, adib asarlarida vaqt va aspektual ma’no ifodalovchi leksik vositalarning o‘ziga xosligi o‘rganiladi. Ayniqsa, F.M.Dostoyevskiyning asarlarida vaqtga oid kategoriyalarni ifodalovchi leksik vositalar qanday qilib o‘zbek tilida tarjima yoki adaptatsiya qilinishi, shuningdek, bu vositalar orqali yaratilgan ma’naviy va estetik atmosferaning

saqlanib qolishi muhokama qilinadi. Tadqiqotda Dostoyevskiyning turli asarlari va til va madaniy farqlar ta'sirida matnni tushunishdagi o'zgarishlar tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** temporal leksika, tarixiy kontekst, ijtimoiy kontekst, F.M.Dostoyevskiy ijodi, kontrastiv tahlili, rus tili, o'zbek tili, leksik ma'no, vaqt kategoriyalari, tarjima va adaptatsiya.

**Abstract.** This paper is dedicated to the study of the role of temporal lexicon in understanding historical and social context through the lens of F.M.Dostoevsky's works. The study conducts a contrastive analysis of the Russian and Uzbek languages, focusing on the peculiarities of lexical means that convey temporal and aspectual meanings in the context of the author's works. Special attention is given to how lexical tools representing temporal categories in Dostoevsky's works can be translated or adapted into Uzbek while maintaining the author's intent and how these tools contribute to creating a specific atmosphere in the literary works. The study examines various works by Dostoevsky and explores the impact of linguistic and cultural differences on the perception of the text in different linguistic contexts.

**Key words:** temporal lexicon, historical context, social context, F.M.Dostoevsky's works, contrastive analysis, russian language, uzbek language, lexical meaning, temporal categories, translation and adaptation.

Ф.М.Достоевский является одним из самых значимых писателей в истории мировой литературы, и его творчество оказывает глубокое влияние на культурное и литературное наследие разных стран. Одной из отличительных особенностей произведений Достоевского является мастерское использование языка для создания уникальной атмосферы, отражающей сложные внутренние переживания героев, а также исторические и социальные реалии того времени. Одним из важнейших инструментов для выражения этих аспектов является временная лексика, которая помогает передать не только ход времени, но и глубину изменений, происходящих в сознании персонажей и в обществе в целом.

Тема роли темпоральной лексики в понимании исторического и социального контекста через творчество Ф.М.Достоевского является актуальной и многогранной. В этой работе будет рассмотрено, как использование темпоральных средств в произведениях великого писателя помогает понять исторические и социальные процессы, а также будет проведен контрастивный анализ русской и узбекской языковых систем в области выражения времени.

Темпоральная лексика — это лексическая категория, которая включает в себя слова и выражения, связанные с обозначением времени, его

характеристик и процессов. В контексте языка, темпоральная лексика служит для передачи информации о временных характеристиках событий, явлений, процессов, а также о временных отношениях между ними.

Основные характеристики темпоральной лексики:

1) Слова, обозначающие время: Темпоральная лексика включает в себя слова, которые обозначают конкретные временные моменты или периоды. Например: «сегодня», «вчера», «завтра», «поздно» и так далее.

2) Единицы времени: Время может быть представлено через различные единицы измерения, такие как «день», «неделя», «месяц», «год», «век» и другие. Эти единицы помогают выражать более точное понятие времени.

3) Фазы времени: Темпоральная лексика также включает в себя слова, которые описывают различные фазы времени, такие как «раньше», «позже», «сейчас», «постепенно», «быстро» и другие, выражающие длительность или скорость событий.

4) Продолжительность и завершённость: Лексика, отражающая длительность событий, например, «долго», «в течение недели», «за короткое время», а также завершённость событий, такие как «закончено», «завершилось», также входит в категорию темпоральной лексики.

5) Грамматические формы времени: Грамматические формы времени — это различные временные формы глаголов (прошедшее, настоящее, будущее время), а также различные аспекты действия, такие как совершенный и несовершенный вид.

6) Контекстуальное определение времени: В некоторых языках (включая русский) время также может быть выражено не только через явные грамматические формы, но и через контекст, что позволяет более гибко и разнообразно передавать временные характеристики.

Виды темпоральной лексики:

1) Слова, выражающие конкретное время:

- Сегодня (настоящее время)
- Вчера (прошедшее время)
- Завтра (будущее время)
- Сейчас (в данный момент)

2) Слова, выражающие продолжительность времени:

- Долго
- Неделю назад
- В течение месяца

3) Слова, выражающие изменения во времени:

- Раньше (в прошлом)
- Позже (в будущем)
- Скоро
- Немедленно

4) Грамматические формы:

- Глаголы прошедшего времени (например, «шел», «сделал»)
- Глаголы настоящего времени (например, «идет», «делаю»)
- Глаголы будущего времени (например, «пойду», «сделаю»)

Роль темпоральной лексики:

1) Передача временных характеристик событий: С помощью темпоральной лексики мы можем описывать, когда, как долго и в каком порядке происходят события.

2) Отражение исторического и социального контекста: В литературе, в том числе в произведениях Ф.М. Достоевского, временные элементы (темпоральная лексика) помогают глубже понять исторический и социальный контекст того времени. Например, временные выражения могут отражать социальные и моральные изменения в обществе.

3) Влияние на восприятие времени и восприятие событий: Лексика времени помогает формировать восприятие изменений, происходящих в жизни персонажей, в их восприятии окружающего мира, что особенно важно для раскрытия психологических и философских тем в литературных произведениях.

Темпоральная лексика в языке играет важную роль в создании точного и многозначного изображения времени, что особенно важно для передачи внутренних изменений персонажей, исторического контекста и философских идей.

Темпоральная лексика включает в себя лексические единицы, выражающие временные характеристики событий, процессов и явлений. В произведениях Ф.М.Достоевского время играет ключевую роль в построении сюжета, раскрытии внутренних конфликтов героев и демонстрации изменений в социальном и историческом контексте. Например, в романе Преступление и наказание время становится важным элементом, который помогает понять моральные и философские вопросы, поднимаемые автором.

Достоевский жил и творил в России XIX века, в период значительных политических, социальных и культурных изменений. Эти изменения неизбежно отразились в его произведениях, где время и исторический контекст становятся основными факторами, определяющими судьбы героев. В произведениях писателя часто прослеживается влияние времени на

сознание человека, его моральное состояние и восприятие окружающего мира.

Русский и узбекский языки имеют различные средства выражения временных характеристик. В русском языке существуют богатые средства для выражения времени, включая разные грамматические формы времен, такие как прошедшее, настоящее и будущее время, а также сложные формы, отражающие различные аспекты действия.

В узбекском языке также имеются различные способы выражения времени, однако они отличаются от русских форм. Например, в узбекском языке время часто выражается с помощью специфических словоформ, таких как определенные вспомогательные глаголы и падежи, а также через контекстуальные оттенки значений.

Ф.М.Достоевский часто использует временные элементы для подчеркивания изменения внутреннего состояния персонажей и их отношения к миру. В его произведениях можно увидеть, как время влияет на решение героев, их поступки и мысли. Например, в романе Братья Карамазовы временные структуры помогают автору подчеркивать философские вопросы о времени, вечности и судьбе.

Контрастивный анализ позволяет исследовать, как в разных языках отражаются схожие или противоположные концепты времени. Это дает возможность глубже понять, как культура и история влияют на восприятие времени и его выражение в языке. Сравнение русской и узбекской лексики позволяет выявить как общие, так и специфические особенности использования временных форм, а также понять, каким образом в разных языках реализуются универсальные и национально-специфичные аспекты временных понятий.

Роль темпоральной лексики в понимании исторического и социального контекста через призму творчества Ф.М.Достоевского не ограничивается только лексическими единицами. Она также включает в себя философские размышления автора о времени, изменениях и судьбе. Контрастивный анализ русской и узбекской лексики времени позволяет глубже понять, как различные языковые системы отражают временные и исторические концепты, а также как эти концепты влияют на восприятие мира и литературные произведения.

В литературе Ф.М.Достоевского временной аспект имеет важнейшее значение для раскрытия как исторического, так и социального контекста. В данном контексте особое внимание следует уделить роли темпоральной лексики, которая помогает понять внутренние изменения героев, их

философские размышления, а также исторические процессы, происходившие в России в XIX веке. Цель настоящей работы — провести контрастивный анализ русского и узбекского языков в контексте выражения времени и показать, как Ф.М.Достоевский использует временные элементы в своих произведениях для передачи социальной и исторической динамики.

Ф.М.Достоевский использует временные элементы не только для обозначения последовательности событий, но и для выражения внутреннего состояния своих героев, их моральных и философских переживаний. В произведениях писателя время часто становится символом изменений, как на уровне отдельной личности, так и на уровне общества в целом. Например, в романе «Преступление и наказание» Родиона Раскольникова можно наблюдать, как внутренние конфликты и осознание вины происходят именно через восприятие времени. Ощущение времени у героя меняется от отсутствия перспективы в начале романа до осознания необходимости искупления в конце.

Достоевский, создавая свои произведения в условиях общественных преобразований России, очень тонко подметил социальную нестабильность того времени. Время, как категория, отражает изменения в жизни общества, в отношениях между людьми, в социальном и моральном климате. В произведениях Достоевского время часто используется для подчеркивания философской дилеммы: человек, не имеющий возможности изменить свою судьбу, противостоит неизбежному течению времени и его личным выбором.

Примером служит произведение «Братья Карамазовы», где временные структуры помогают выявить философские вопросы о времени, вечности и судьбе. Герои романа, сталкиваясь с личными трагедиями и конфликтами, вынуждены задаваться вопросами о смысле времени и о его влиянии на их жизни.

Темпоральная лексика в русском и узбекском языках имеет свои особенности и различия, что важно для контрастивного анализа. В русском языке время выражается через грамматические формы: прошедшее, настоящее и будущее время, а также различные формы совершенного и несовершенного вида. Эти грамматические формы дают возможность точно передавать временные характеристики событий, определять их завершенность и продолжительность.

В узбекском языке временные значения также выражаются через различные формы глаголов и употребление вспомогательных слов. Однако, в отличие от русского языка, в узбекском часто используется контекст для

выражения временных характеристик, что делает языковую конструкцию более гибкой и менее зависимой от строгой грамматической структуры.

При сравнении русской и узбекской лексики времени можно выделить несколько ключевых отличий:

- Грамматическая структура: В русском языке для выражения временных аспектов используются различные грамматические формы, такие как времена и виды глаголов, а также специфические временные конструкции. В узбекском языке, несмотря на наличие временных форм, время часто выражается через контекст и конструктивные особенности, такие как использование падежей и вспомогательных слов.

- Использование вспомогательных глаголов: В русском языке вспомогательные глаголы играют важную роль в выражении времени, например, глаголы быть, стать, появиться. В узбекском языке вспомогательные глаголы также используются, однако структура временных форм здесь проще и зачастую зависит от контекста.

- Смысловые нюансы: В русском языке существуют различные способы указания на временные характеристики события, например, с помощью сочетаний несовершенного и совершенного вида глаголов. В узбекском языке временные значения более контекстуализированы, и временные характеристики могут быть выражены менее явно.

Использование темпоральной лексики в творчестве Ф.М.Достоевского помогает не только понять внутренний мир героев, но и глубже осознать исторический и социальный контекст времени. Контрастиный анализ русского и узбекского языков показывает, как разные языковые системы выражают временные концепты, при этом каждая из них имеет свои особенности и способы отображения времени. Этот анализ позволяет не только лучше понять литературные произведения, но и углубить знания о функциональности времени в языке и его роли в восприятии социальной реальности.

#### **Список использованных источников**

1. Достоевский Ф.М. (1864). Игрок. Санкт-Петербург.
2. Достоевский Ф.М. (1866). Преступление и наказание. Москва.
3. Достоевский Ф.М. (1880). Братья Карамазовы. Москва.
4. Шахов В.П. (2008). Достоевский: Лексика и стиль. Москва: Наука.
5. Шон Г. (2014). Достоевский и перевод его произведений. Ташкент: Фан.
6. Достоевский Ф.М. (2017). Идиот. Ташкент: Ижтимоий Фикр.
7. Попова М.П. (2003). Язык и время: Русский язык и временные категории. Москва: РГГУ.

8. Касьянов А.А. (2015). Методы контрастивного анализа в исследованиях. Ташкент: Узбекский государственный педагогический университет.
9. Климов А.Е. (2011). Временные категории в узбекском и русском языках. Ташкент: Узбекский Национальный университет.
- 10.Джураева С. (2017). Структурный анализ и методы перевода. Ташкент: Навқирон.

## ЎСМИР-ЁШЛАРНИНГ ИЖТИМОИЙЛАШУВ САМАРАДОРЛИГИ САМАРАЛИ ВА ТҮҒРИ ТАШКИЛ ЭТИЛГАН ТАЪЛИМГА БОҒЛИҚДИР

*Артикова Гулноза Хасановна*

*Педагогика, психология ва жисмоний маданият кафедраси мустақил  
илемий ходими. Самарқанд давлат чет тиллар институти*

**Аннотация.** Ушбу мақолада мамлакатимиз ўсмир-ёшларини иқтисодий-ижтимоий жиҳатдан билимли ва қобилиятли бўлиб етишишлари кўп жиҳатдан малакали мутахассисларга ва амалиётни түғри тушунтира олдаган билимли кадрларга боғлиқ эканлигига алоҳида эътибор қаратилган.

**Калит сўзлар:** ўсмир-ёшлар, ижтимоийлашув, самарадорлик, таълим, ижтимоий билим.

**Аннотация.** В статье особое внимание уделяется тому, что экономическое и социальное развитие подростков и молодежи нашей страны во многом зависит от квалифицированных специалистов и знающих кадров, умеющих грамотно разъяснять практику.

**Ключевые слова:** подростки, социализация, эффективность, образование, социальные знания.

**Abstract.** The article pays special attention to the fact that the economic and social development of teenagers and youth of our country largely depends on qualified specialists and knowledgeable personnel who can competently explain the practice.

**Key words:** adolescents, socialization, efficiency, education, social knowledge.

Мамлакатимиз ўсмир-ёшларини иқтисодий-ижтимоий жиҳатдан билимли ва қобилиятли бўлиб етишишлари кўп жиҳатдан малакали мутахассисларга ва амалиётни түғри тушунтира олдаган билимли кадрларга боғлиқ. Ўсмир-ёшларни ижтимоий самарадорлигини оширишда уларни ўқитиш тизимини ишлаб чиқаришдаги меҳнат билан қўшиб олиб бориш асосида ташкил этиш, ишлаб чиқариш талабига мос равища мутахассисларни янги техника ва технологиянинг ютуқлари билан

таништириш ишларини амалга ошириш лозим. Бунинг учун ёш-ўсмирлар ўқув машғулотлари жараёларини замонавий ташкил этиш, лойиҳалаш ва ўтказишга етарли эътибор бериш, жумладан, ўқув машғулотининг асосий турларига илмий жиҳатдан ёндашиш, унинг шаклларини ва ҳажмини ўрганиш масалаларига педагоглар томонидан эътиборни ошириш, машғулотни тўғри ҳамда самарали режалаштиришда маълум бир тизимни яратиш, талабаларни кўпроқ муаммоли илмий-тадқиқот ишларига жалб қилиш, ўқув машғулоти самарадорлигини оширадиган бошқа тадбирларни ишлаб чиқиш ва уларни амалда жорий қилиш лозим. Ўсмир – ёшларнинг ўқув машғулоти жараёнларида юқори даражадаги иштирокини таъминлаш долзарб муаммоларнинг ижобий ҳал қилиниши кўп жиҳатдан, педагогларнинг касбий салоҳияти ва педагогик маҳоратига, савиясига, тайёргарлигига ва фидоийлигига, унинг ёш авлодни ўқитиш ва тарбиялаш ишига бўлган муносабатига боғлиқдир.

Ўқув машғулоти ва унинг барча шаклларини ташкил қилиш, асосан, ўқишининг бошланғич босқичларида айрим қийинчиликлар билан боғлиқ. Айниқса, биринчи босқич талабалари ўқишининг янги шаклига, янгича талабларга кўникиши қийин кечади. Улар ўз мустақил фаолиятларини ўзлари мустақил ташкил қилишни деярли билишмайди. Маълумотларни қайси манбадан, қандай қилиб топиш, уларни таҳлил қилиш, асосийларни ажратиб олиш ва тартибга солиш, ўз фикрини аниқ ва ёрқин ифодалаш, ўз вақтини тўғри тақсимлаш, тўғри баҳолаш улар учун муаммо бўлади. Шунинг учун ҳам ҳар бир педагог аввало ўсмир-ёшларда ўз қобилияти ва ақлий имкониятларига ишонч уйғотиши, сабр-тоқат билан босқичма-босқич билим олишни тўғри ташкил қилишга ўргатиб бориши лозим бўлади. Ўқув машғулоти жараёнида юзага келувчи юқоридаги муаммоларни олдиндан кўра билиш ва ҳал этиш муҳим. Бунда, ўсмир-ёшларнинг ўқув машғулоти мақсадларини ўрганишда эришган ютуқларини аниқлаш ва баҳолаш, машғулотнинг паст натижалари сабабларини аниқлаш, уларни бартараф этиш йўлларини излаш керак.

Мамлакатимизнинг таниқли олимлари илмий асосланган, минтақамизнинг ижтимоий-педагогик шароитига мослашган педагогик технологияларни яратиш ва уларни ўқув машғулотлари амалиётида кўллашга интилмоқдалар. Аммо, бу борада ўз ечимини кутаётган айрим муаммолар мавжуд, яъни улар;

- ижтимоийлашув самарадорлигини тўғри ва самарали ташкил этиш учун ривожланган мамлакатлар тажрибалари ва олимларининг илмий изланишларини таҳлил қилиш;

-ахборот оқимларининг шиддат билан кириб келаётганлигини инобатга олган ҳолда, таълим тизимини жадаллаштириш ва самарадорлигини ошириш мақсадида замонавий педагогик технологиялардан фойдаланиш зарурлиги;

- ўсмир-ёшлар ва педагог кадрлар фаолиятини тўғри йўлга қўйиш, педагог машғулот мақсади ва мазмунини пухта билиши, усуллари, методлари ва воситаларини яхши эгаллаган бўлиши, ўсмир-ёшларнинг қизиқишилари ва интилувчанлигини тўғри йўлга йўналтира олиши лозимлиги.

Ушбу муаммоларнинг илмий-назарий асослари, ҳар бир педагогик технологиянинг ўзига хос жиҳатлари ишлаб чиқилиб, етарли даражада республика ва хориж тажрибаларини ўрганиш лозимлигига намоён бўлади..

Ўсмир-ёшларнинг ижтимоийлашув самарадорлиги даражасини ошириш зарурияти ҳозирги шароитда Янги Ўзбекистоннинг ижтимоий-иктисодий тараққиёти учун ҳам муҳим ҳисобланади. Ўсмир-ёшларнинг ижтимоийлашув самарадорлигини оширишнинг моҳияти унинг индивидуал онгини ва амалий фаолиятини миллий ва умуминсоний тамойиллар даражасига олиб чиқилиши билан алоҳида хусусиятга эгадир. Айни вақтда ўсмир-ёшларнинг ижтимоийлашув самарадорлиги кўп қиррали қадрият бўлиб, унинг асосий хусусиятлари самарали ва тўғри ташкил этилган таълим, ижтимоий билимлар, ҳис-туйғу, эътиқод ва амалий ишларда намоён бўлади.



1 –расм. Ўсмир-ёшларнинг ижтимоийлашув самарадорлиги

Шунингдек, мамлакатимизда жамоатчилик фикрини ўрганиш республика “Ижтимоий фикр” маркази томонидан “Янги Ўзбекистон

ёшларининг маънавий-ахлоқий қадриятлари, ижтимоий йўналишлари ва ҳаётий позисияларини аниқлаш” мақсадида ўтказилган сўровнома натижалари мавзуга оид маълум бир муаммолар ҳам борлигини кўрсатади.

“Сиз Ўзбекистон -келажаги буюк давлат эканлигига ишонасизми?”, деган саволга респондентларнинг 92,0 % ижобий жавоб берган.

“Қайси қасбни эгалламоқчисиз?”, деган саволга қўйидагича жавоб олинган: ўқитувчи -13,7 %, шифокор – 13,1 %, иқтисодчи – 10,6 %, ҳукуқшунос – 10,2 %, дипломат -8,4 %, банкир -7,6 %, мененжер -3,3 %, агроном -1,2 %, фермер -1,1 %. Олий ўқув юрти магистрлари эса қасб танлашда сиёсий фаолиятни (17,5 %), даромадли соҳани (13,2 %), катта бизнесни (27,5 %), фан ва санъатни (17,7 %) танлаш зарур деб биладилар.<sup>10</sup> Албатта, мутахассисликни танлаш ёшларнинг ижтимоий билимiga таъсир этмай қолмайди.

Қонунларга итоат этиш ижтимоий билимнинг асосидир, яъни ижтимоий соҳа самарадорлигини чуқур англаб етган ўсмир-ёшлар қонунларни нафақат билади, балки кундалик иш фаолиятида, ҳаттоки, оиласвий муносабатларда уларга амал қиласди.

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Сайдаҳмедов Н.С. Ўқитувчининг педагогик тизимдаги фаолияти// Халқ таълими, 1993. №6-7.9-12 б.
2. Сайдаҳмедов Н.С. Янги педагогик технология моҳияти ва замонавий лойиҳаси. – Т., РТМ, 1999- 55 б.
3. Сайдаҳмедов Н.С., Н.Н.Индиаминов. Педагогик маҳорат ва педагогик технология. Т.”Фан ва технология”
4. Эргашев И, А.Холбеков. Фуқаролик жамияти ва миллий ғоя.Т. “Академия”. 2007 й.

<sup>10</sup> Қаранг: Отамуродов С. Талаба ёшларнинг миллий ўзлигини англаши // Ижтимоий фикр. 2000. №1-2. Б. 158.

**OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA BO'LAJAK BIOLOGIYA FANI  
O'QITUVCHILARINING EKOLOGIK MADANIYATINI  
RIVOJLANTIRISH**

*Berdibayeva Gulshat Sultamuratovna*

*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat  
pedagogika instituti tadqiqotchisi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqola oliy ta'lismuassasalarida bo'lajak biologiya fani o'qituvchilarining ekologik madaniyatini rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan bo'lib, ekologik ta'limning dolzarbliji, talabalarda ekologik madaniyatni rivojlantirishdagi muhim vazifalar hamda ekologik bilim va ekologik madaniyatning tayanch fazilatlari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** biologiya ta'limi, ekologik madaniyat, ekologik ta'lim, ekologik toza jamiyat, ekologik savodxonlik, atrof-muhitga mas'uliyatli munosabat, pedagogik yondashuv.

Dunyodagi globallashuv va ta'lim oluvchilarning ekologik madaniyatini rivojlantirish tabiat, jamiyat, madaniyat va inson ongingin barqaror rivojlanishiga erishishga imkon beradi. Oliy ta'lismuassasalari biologiya ta'limida talabalarning ekologik madaniyatini rivojlantirish - ekologik toza jamiyatni barpo etishning muhim omili sifatida e'tirof etilmoqda. Talim tizimini modernizatsiyalashga doir zamonaviy dasturlarda o'quv mashg'ulotlarining mahsuldar o'qitishga transformatsiyasi biologiya darslariga ham daxldor bo'lib, shu asosda ta'lim oluvchilarning har tomonlama kamolotga erishishi Yevropa komissiyasining "Barqaror rivojlanish uchun ta'lim bo'yicha strategiya" sida o'z aksini topgan.

Ijtimoy jamiyat taraqiyotining hozirgi bosqichida aholi o'rtasida sog'lomlashtirish ona tabiatga raxna solmaslik, yoshlarning ekologik madaniyatini shakllantirish ekologik tarbiyaning muhim potensial imkoniyatlarini amalga oshirish orqali insoniyat oldida turgan ekologik muammolarning ilmiy-amaliy yechimida dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ekologik madaniyat – bu tabiat haqidagi bilim, ong, idrok, savodxonlik, intellektual salohiyat va uni amalda qo'llay bilish faoliyati, atrof-muhitga nisbatan faoliyatning yuksak ko'rsatkichi, ongli va ma'suliyatli yondashuvdir. Ekologik bilim va ekologik madaniyatning tayanch fazilatlari quyidagilar hisoblanadi: 1) Axloqiy-ekologik onglilik shaxsning muhim madaniyatilik sifati bo'lib, uning atrof – muhitni hissiy bilish jarayoni atrof – muhitdagi obyektlar va hodisalarini sezishi, idrok etishi, tasavvur qilishi, ziyraklik va teranlik asosida tabiat muhofazasi bo'yicha amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishi lozimligini nazarda tutadi; 2) Ekologik ma'suliyatlilik shaxsda munosabat va ma'sullikni tarbiyalashda namoyon bo'ladi, bunday munosabat shaxsning bilib-

bilmay, uzoqni o‘ylamay tabiatga ko‘rsatgan salbiy ta’siri oqibatlarini anglash va bunday ta’sirni bartaraf etish istagi natijasidagina shakllanadi; 3) Ekologik irodaviylik shaxsning o‘zi va o‘zgalarning atrof – muhitdagi hattiharakatlarini baholashi va nazorat qilishi shaxsdagi qat’iyatlilik, tejamkorlik, ozodalik va pokizalik bilan bog‘liq.

Talabalarning ekologik madaniyatini shakllantirishda ekologik qadriyatlar alohida ahamiyatga ega, ularga tabiatni asrab-avaylashga intilish, tashabbuskorlik, izchillik, mehnatsevarlik va ongli faollik kabilar kiradi. Masalan, ekologik qadriyatning bir turi, ya’ni global, mintaqaviy va lokal ekologik muammolarni bilish yer, suv, energetik muammolar, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, bioxilma-xillikni saqlash, cho’llanish jarayoni, atmosfera havosining ifloslanishi kabi tushunchalar bilan chambarchas bo‘gлиq.

Ekologik muammolar mamlakatimiz siyosatini eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi-ki, keyingi yillarda atrof-muhit muhofazasi, tabiiy resurslarni asrab-avaylash, tabiat ne’matlariga oqilona munosabat, aholini ekologik madaniyatini oshirish, yoshlar o‘rtasida ekologik ta’lim-tarbiya, ekologik ma’rifat masalalariga alohida e’tibor qaratish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Fikrimizcha, oliy ta’lim muassasalarini biologiya ta’limida ekologik madaniyatni rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlarini kengaytirishda quyidagilarga e’tibor qaratish lozim: - biologiya ta’limiga zamонавиу ekologik yondashuvlarni, talabalarda ekologik ong, ekologik madaniyat, ekologik tarbiyani rivojlantirishni innovatsion usullarini joriy etish; - talabalarda ekologik masalalarga ongli munosabat bildirish; - ta’sirchan va samarali yangi ekologik targ‘ibot vositalarini ommalashtirish; - har bir ta’lim muassasasida ekologik xavfsiz o‘quv sharoitlarini yaratish; - talabalarda inson va tabiat o‘rtasidagi ziddiyatli munosabatlarni anglash va mavjud muammolarni bartaraf etish yo‘llarini aniqlashga yo‘naltirilgan pedagogik shart-sharoitlarni yaratish; mактаб biologiya fani o‘quv materiallarini ekologiya va atrof muhit bilan bo‘gлиq materiallar bilan yanada boyitish; talabalarni internet ma’lumotlari, sohaga doir yangiliklarni o‘рганиш, shuningdek, ekologiya va atrof-muhit masalalariga oid me’yoriy hujjatlar (qonun, kodeks, farmon, qaror, farmoyish va hokazo) mazmun mohiyatini bilishga undash va boshqalar.

Jamiyatning ekologik madaniyati yuksalishida tez natija beruvchi usul oliy ta’lim muassasalarida bo’lajak mutaxassislarning ekologik bilim va ko‘nikmalarini takomillashtirish, ekologik tarbiya mexanizmlarini takomillashtirishdan iboratdir. Zero, bugungi talaba ertaga jamiyatning yetakchi ziyoli qatlami sifatida yosh avlodga ta’lim va tarbiya berishdek sharaflı va mas’uliyatli kasbni egallaydi. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, zamонавиу ekologik ta’lim-tarbiyani

amalga oshirishda zamonaviy mutaxassisning ekologik kompetentligiga asos bo‘ladigan ekologik tayyorgarlikning pedagogik modelini yaratish maqsadga muvofiq.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti ulug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. - Toshkent: O‘zbekiston, 3-jild. 2019. B. 276.
2. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-maydagи “O‘zbekiston Respublikasida ekologik ta’limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi 434-sonli Qarori <https://lex.uz/docs/4354743>.
3. *Николина В.В.* Культурологические смыслы школьного географического образования // Актуальные проблемы современной географии: сборник статей. - Н. Новгород: Деловая полиграфия, 2010. - С. 216 - 222.
4. Zedler J.B., Callaway J.C. Restoration ecology. Combining the teachin of principles with group experiments and native plant restoration on the SDSU campus. // ESA Bulletin. 1997. -v. 78. -p. 67-69.
5. Mamajonov.Sh.A. Determinants of environmental education aimed at the development of mechanisms of environmental education in higher education // International Scientific and Practical Conference: “The role of science and Innovation in themodern world”. London, United Kingdom. 2022. P. 38-46.
6. Dwyer W.O., Porter B.E., Cobern M.K. Outcome research in environmental education. a critical review. // J. Col. Sci. Teach. 1993. 24 (4). - p. 8-21.
7. *Винокурова Н.Ф.* Культурно-экологический подход в модернизации географического образования: теоретико-методологические основы и методика реализации // Теория и методика обучения географии: история и современные направления развития. - СПб., 2004. - С. 18-25.

## AKADEMIK LITSEYLARDA O'QUVCHILARNING MUSTAQIL TA'LIM FAOLIYATINI SAMARALI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK YONDASHUVLARI

*Jumaniyazova Sanobar Kadambaevna*

*Nizomiy nomidagi Toshkent  
davlat pedagogika universiteti  
tadqiqotchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada akademik litseylarda o'quvchilarning mustaqil ta'lif faoliyatini samarali tashkil etish hamda rivojlantirishning pedagogik yondashuvlari yoritilgan bo'lib, mazkur yondashuvlarning ilmiy asoslari hamda o'quvchilarning mustaqil ta'lif shakllari va usullarini tanlash erkinligini taqozo etadigan sub'ekt-sub'ekt munosabatlaridagi o'rni va ahamiyati yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** yondashuvlar, mustaqil ta'lif faoliyati, akmeologik yondashuv, tizimli-faoliyatli yondashuv, kompetentlik yondashuvi, shaxsiy – faoliyatli yondashuv, kontekst yondashuv.

Akademik litseylarda o'quvchilarning mustaqil ta'lif faoliyatini samarali tashkil etishning bir nechta yondashuvlari bo'lib, mazkur yondashuvlarga quyidagilar kiradi: akmeologik, tizimli-faoliyatli, kompetentlik, shaxsiy – faoliyatli, kontekst yondashuvi. Quyida ushbu yondashuvlarning mohiyatiga qisqacha to'xtalamiz.

Akmeologik yondashuv. Akmeologiya dastlab professionalizm haqidagi fan hisoblanib, akmeologik yondashuv akmeologik muammo va vazifalarni hal qilish imkonini beruvchi tamoyillar, usullar va metodlar majmui vazifasini bajaruvchi asosiy umumlashtiruvchi tushuncha hisoblanadi. Akmeologik yondashuv nuqtai nazaridan o'quvchilarning kompetentligini rivojlantirishda asosiy tizim shakllantiruvchi omil – mustaqil ta'lif faoliyatini rivojlantirishdir.

Tizimli-faoliyatli yondashuv. O'quvchilarning mustaqil ta'lif faoliyatini rivojlantirishning o'zaro bog'liq elementlarining yaxlitlik majmuasi tizimi bo'lib, jarayon va hodisalarining o'zaro munosabati va bir-biriga bog'langanligini aks ettiradi. Mazkur yondashuv o'quvchilarning mustaqil ta'lif faoliyatini samarali tashkil etish va rivojlantirishning tarkibiy qismlarining integrativ sifatlari va tizim xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi.

Tizimli-faoliyatli yondashuv o'quvchilarning mustaqil ta'lif faoliyatida individual qobiliyatlarini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratishga mo'ljallangan va ularning subyektiv tajribasini ochib berishga imkon beradigan yondashuv hisoblanib, mazkur yondashuv o'quv faoliyatini tashkil etishning turli shakllari va usullaridan foydalanishni nazarda tutadi. O.S.Gabrielyanning fikriga

ko‘ra, tizimli-faoliyatli yondashuv, ta’lim jarayonining komponentlaridan biri sifatida o‘quv jarayonini loyihalashtirishga yo‘naltirilgan pedagogik texnologiyani qo‘llash imkonini beradi. Shuningdek, ushbu yondashuv o‘quvchilarda tizimli fikrlashni shakllantirish orqali bilish faoliyatini tashkil etish usuli hisoblanadi.

I.N.Zornikov ham tizimli-faoliyatli yondashuvning mazmuni-mohiyatiga to‘xtalib, ushbu yondashuvning o‘quvchilarni tizimli fikrlash, tizimli tahlil, modellashtirish, tadqiqotchilik kabi shaxsiy xususiyatlarini shakllantirishini ta’kidlaydi.

Kompetentlik yondashuvi. Mazkur yondashuv nuqtai nazaridan o‘quvchilarning tajribasi va tengdoshlari tajribasidan foydalanish asosida o‘quv jarayoni muammolarini mustaqil hal qilish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan mustaqil ta’lim faoliyati o‘rganiladi. O‘quvchilarning mustaqil faoliyati mazmuni bilish va g‘oyaviy muammolarni hal qilishning didaktik jihatdan moslashtirilgan ijtimoiy tajribasi sifatida tadqiq etiladi.

A.N.Dixinning bu boradagi fikriga ko‘ra, ta’lim jarayonni tashkil qilishdan maqsad ta’lim mazmunini tashkil etuvchi ijodiy muammolarni mustaqil hal etishda o‘quvchilarning tajribasini rivojlantirishga sharoit yaratishdir. Kompetentli yondashuv ta’limning amaliyatga yo‘naltirilganligini, faoliyat tajribasining zaruriyatini belgilab beruvchi yondashuv bo‘lib, kompetensiyalar o‘quvchilarning aynan mustaqil bilishga doir, kommunikativ, amaliy, ijodiy, tadqiqiy faoliyati jarayonida shakllanadi.

Shaxsiy-faoliyatli yondashuv. Shaxsiy-faoliyatli yondashuvning ilmiy asoslari mamlakatimizdagi ko‘pgina pedagog olimlar, jumladan, A.A.Abduqodirov, N.N.Azizzodjaeva, Sh.S.Sharipovlar tomonidan yaratilgan bo‘lib, ushbu yondashuv nuqtai nazaridan o‘quvchi shaxsi mustaqil ta’lim faoliyatining sub’ekti bo‘lib, uning o‘zi faoliyatda va muloqotga kirishganda shakllanib, bu faoliyatning xususiyatini belgilab beradi. Shaxsiy-faoliyatli yondashuv o‘quvchilarning mustaqil ta’lim faoliyatini uning milliy, jins-yosh, individual-psixologik, mavqe xususiyatlari nuqtai nazaridan ko‘rib chiqish uchun eng o‘rinli hisoblanadi. Shuningdek, mazkur yondashuv doirasida o‘quvchilarning mustaqil ta’lim shakllari va usullarini tanlash erkinligini taqozo etadigan sub’ekt-sub’ekt munosabatlari asosiy o‘rinda turadi.

Kontekst yondashuv. Mazkur yondashuv konsepsiyasini 1991 yilda Yu.A.Volgogradskaya tomonidan ishlab chiqilgan. Akademik litseylarda o‘quvchilarning mustaqil ta’lim faoliyatida seminarlar, to‘g‘araklar, laboratoriya ishlari va boshqa shu kabi faoliyatdar natijasi orqali amalga oshiriladi. Kontekst faoliyatida shaxsning faolligi, muammolilik, ta’lim va tarbiyaning birligi kabi tamoyillar mujassamlashlashadi.

Yuqoridaagi fikrlar asosida aytish mumkinki, o‘quvchilarning mustaqil ta’lim faoliyatini tashkil etishda tizimli-faoliyatli yondashuvi quyidagilarni nazarda tutadi: - har bir o‘quvchining individual imkoniyatlari hamda qobiliyatlarini hisobga olgan holda ularda ijodiy salohiyat, kognitiv motivlarning o‘sishini ta’minlaydi; - ta’limning asosiy ta’lim dasturini o‘zlashtirishning oldindan kutilgan natijalariga erishishni kafolatlaydi, bu o‘quvchilar tomonidan bilim, ko‘nikma, malaka, faoliyat turlari, usullarini mustaqil ravishda muvaffaqiyatli o‘zlashtirish uchun asos yaratadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati

1. Габриелян, О.С. Информация в современном учебном процессе/О.С. Габриелян, С.А. Сладков// Химия в школе. – 2008. - № 7. – С. 23.
2. Даҳин А.Н. Компетенция и компетентност: сколько их у российского школьника? / А.Н.Даҳин, М.Е.Бершадский//Народного образования. – 2004. -№4. – С. 136-138.
3. Зорников И. Н., Волкова Л. П. Проблемы и перспективы международной интеграции высшего образования. - Воронеж, 2009.
4. Abduqodirov A., Astanova F., Abduqodirova F. “Case-study” uslubi: nazariya, amaliyot va tajriba. – Toshkent.: Tafakkur qanoti, 2012. – В. 134.
5. Azizzodjaeva. N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.O‘quv qo‘llanma. -Т.: O‘zbekistan Yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006 y. В. 72.
6. Sharipov Sh.S. Talabalar ixtirochilik ijodkorligini shakllantirishning pedagogik sharoitlari: (Mehnat va kasb-hunar ta’limi fakultetlari misolida). Diss.ped.fan.nomz. – Т.: 2000. -103 b.
7. Волчегорская Е.Ю. Модел формирования познавательно аналитической компетенции младших школьников средствами исследовательской деятельности / Е.Ю.Волчегорская, О.В.Рябова//Вестник Челябинского государственного педагогического университета. 2016. -№7. – С. 19-24.

**UMUMTA'LIM MAKtablari GEOGRAFIYA DARSLARIDA  
O'QUVCHILARNING O'QUV-BILISH FAOLIYATINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

*Abdullayeva Dilnoza Narzullayevna*

*Nizomiy nomidagi TDPU  
“Geografiya va uni o'qitish metodikasi”  
kafedrasi dotsenti., p.f.d (DSc)*

*Mamatkulova Nilufar Turabovna*

*Jizzax davlat pedagogika universiteti  
Sirtqi bo'lim “Tabiiy va aniq fanlarda masofaviy ta'limga”  
kafedrasi o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada bilish faoliyati, umumta'lismaktablari geografiya ta'limida o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirish, bilish faoliyatining tarkibiy qismlari, o'quvchilarning ta'limgarayonlarida faolligini ta'minlash masalalari yoritilgan. Shuningdek, o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan ilmiy yondashuvlar va ularning mazmun-mohiyati yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'limgarayonlari, geografiya ta'limi, bilish faoliyati, bilish faoliyatini rivojlantirish, ilmiy yondashuvlar, ijodiy bilish faoliyati, didaktik yondashuv, psixologik yondashuv, bilish ehtiyojlari, muvaffaqiyat qozonish.

Mamlakatimizda joriy etilgan uzlusiz ta'limgarayonlari olib borilayotgan ijobjiy ishlardan yo'nalishi O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi “Ta'limgarayonlarning o'qituvchilari”gi Qonunida qayd etilgan. Ta'limgarayonlarning bilim salohiyatini rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan huquqiy-me'yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalar uzlusiz ta'limgarayonlarning barcha bo'g'indan oldiga yuksak vazifalar qo'ymoqda. Bugungi kunda o'quvchi-yoshlarni komil inson sifatida shakllanishlari uchun umuminsoniy va milliy madaniy qadriyatlardan unumli foydalanish, ularni yangi texnika va texnologiya bilan qurollantirish lozim ekanligi qayd etilmoqda. Ta'limgarayonlarning o'qituvchilar va ota-onalar zimmasiga yuklatilgan murakkab vazifalar davlat ahamiyatiga ega bo'lib, ularni amaliyotga joriy etish orqali ta'limgarayonlarning texnologiyasini takomillashtirishni, ta'limgarayonlarning o'qituvchilari qabul qilingan vazifalarini puxta va ixcham tizim sifatida ishlashini ta'minlash mumkin. Bunda ayniqsa, ta'limgarayonlarning jismoniy, axloqiy va aqliy etukligini ta'minlash vositalariga alohida e'tibor berish zarur. Shuning uchun umumta'lismaktablarda barcha fanlar qatori geografiya ta'limida ham o'quvchilarning chuqr bilim olishlariga shart-sharoitlarni yaratish dolzarb hisoblanadi. Chunki, har qanday o'quv-tarbiyaviy jarayon ota-onalar, o'qituvchi

hamda o‘quvchilar munosabatini ifodalovchi murakkab pedagogik tizim hisoblanadi.

Rossiyalik psixolog olim R.S.Nemov uch jilddan iborat “Psixologiya” kitobida pmazkur atama XVI asrda birinchi marta qo‘llanilganligini, ong va o‘zini kuzatish tufayli inson o‘zidagi psixik holatlarni o‘rgana borganligini, keyinchalik insonning faoliyati sohasida shu psixik jarayonlarni o‘rganish zarurati etilganligini izohlab bergen. Mazkur holatlarda o‘quvchilar o‘zaro bilish munosabatlari, muloqotga kirishadilar.

Geografiya darslarida o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyati hissiy idrok, nazariy tafakkur va amaliy faoliyat birligidir. U ta‘limning har bir bosqichida vujudga keladi va muntazam ravishda rivojlanib boradi. Bilish faoliyati o‘quvchilarning ijtimoiy aloqalari va o‘quv faoliyatlarining barcha turlarida mustahkamlanadi. Shu bilan bir qatorda, o‘quvchilar bilish faoliyatining kengayishida o‘quv jarayonlarida muayyan topshiriqlarni bajarishlari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik atamalar lug‘atida bilishga qo‘yidagicha ta‘rif beriladi: 1. Ta‘lim jarayonida o‘quvchi va talabalarga taqdim etilgan o‘quv materialining o‘zlashtirilganlik darajasi; 2. Borliq va uning obektiv qonuniyatlarini o‘rganish, o‘zlashtirish, egallash jarayonidir. Demak, bilish faoliyati jarayonida o‘quvchi taqdim etilgan bilimlarni o‘zlashtiradi va tevarak atrofdagi voqelikni anglab etadi.

Geografiya darslarida o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini tashkil etish jarayonida o‘qituvchi o‘z oldiga bu faoliyatni qanday kengaytirish kerak, degan savolni qo‘yishi lozim. Mavjud ilmiy manbalarning tahlili va amalga oshirilgan kuzatishlar natijasida o‘quvchilardagi o‘quv-bilish faoliyati quyidagi tarkibiy qismlardan iborat: – bilish qiziqishlari; – o‘quv maqsadlari; – hissiyotlar: shaxsiy bezovtalik va hissiy barqarorlik; – yutuqlarni qo‘lga kiritish va muloqot qilishga bo‘lgan ehtiyoj; – intellektual layoqatlilik va muloqotga kirishuvchanlik; – shaxsiy tajribalar hamda ko‘nikmalar.

O‘z-o‘zini hurmat qilish har bir shaxsning tahliliy sifatidir. Buning tarkibini tahlil qilish orqali o‘quvchilarning mayllari, qadriyatları, tayanadigan qoidalarini aniqlashga muvaffaq bo‘lindi. O‘quv-biluv jarayonida bilish faolligini rivojlantirishga bag‘ishlangan tadqiqotlarda o‘quvchilarning mustaqilligidan kelib chiqqan holda ular faolligini ta‘minlash uch yo‘nalishga ajratilgan: – namunaga asoslangan taqlidiy; – izlanuvchilikka asoslangan ijrochilik; – ijodiy bilish faoliyati.

Taqlidiy faoliyat harakatning tayyor namunalari asosida hosil bo‘ladi. Bu ayniqsa geografiya fani bo‘yicha tashkil etilgan amaliy mashg‘ulotlarida katta ahamiyatga ega. Ideal tarzda bo‘lgani singari, predmetlilik asosida ham

o‘quvchilarni tirishqoq bo‘lishga undaydi. Izlanuvchilikka asoslangan ijrochilik faoliyati geografiya fani bo‘yicha tadqiqotchilik faoliyati bilan qiyosiy tarzda o‘qituvchi tomonidan taklif etilgan muammoli vaziyatlarni yechish yo‘llarini mustaqil tarzda izlashdan iborat. Ijodiy faoliyat esa o‘quv-bilish faoliyati hosil bo‘lishining yuqori shakli sifatida muammolarni yechishning yangi, o‘ziga xos usullarini izlash, o‘z xatti-harakatlarini mustaqil boshqarishning yuqori ko‘rsatkichlarini namoyon qilish hamda mazkur darajani shaxsiy faollik bilan qiyoslash mumkin.

Ibn Sino axloqqa oid ko‘plab muammolarni odamning ruhiy holati va ma’naviy xossalaringin his-hayajonli paydo bo‘lishi asosida talqin etadi. Deviant xulq-atvor — mikroijtimoiy munosabatlar (oilaviy, mакtabdagи munosabatlar) va kichik ijtimoiy guruhlarga xos bulgan ijtimoiy me’yorlar va xulq-atvor qoidalarini buzish bilan bog‘liq me’yordan og‘uvchi xulq-atvor turlaridan biridir. Bu xulq-atvorni “g‘ayriintizomiy” deb atasak ham bo‘ladi. Deviant xulq-atvorning yorqin namoyon bo‘lishiga namoyish, agressiya, o‘qishdan qochish va daydilik, bolalar va o‘smirlar orasidagi aroqxo‘rlik, giyohvandlik va u bilan bog‘liq g‘ayriijtimoiy harakatlar, jinsiy tavsifdagi g‘ayriaxloqiy xatti-harakatlar, o‘ziga suiqasd qilishga urinishlarni misol qilib keltirsak bo‘ladi. Jamiyatda qabul qilingan qoidalar, xulq-atvor me’yordanidan chetga chiqqan o‘smirlarni “qiycin o‘smir” yoki “tarbiyasi og‘ir o‘smir” deyiladi.

“Tarbiyalash og‘ir” deganda, pedagogik ta’sirga qarshilik ko‘rsatish tushuniladi. Tarbiyalash og‘ir, qabul qilingan me’yor va qoidalarga tarbiyalanuvchi tomonidan amal qilinmasligini fanda deviatsiya (og‘ish) hodisasi orqali o‘rganiladi. Deviatsiya (og‘ish) ham insonga, ham uni o‘rab turgan olamga xos bo‘lgan o‘zgaruvchanlik hodisasining jihatlaridan biri hisoblanadi. Ijtimoiy sohada o‘zgaruvchanlik faoliyatga bog‘liq bo‘lib, insonning atrofdagilar bilan o‘zaro munosabatini aks ettiradigan xulq-atvorda o‘z ifodasini topadi. Avval aytib o‘tganimizdek, xulq-atvor me’yordan chetga chiqqan bo‘ladi. O‘smirning me’yordagi xulq-atvori uning ijtimoiylashuvi, rivojlanishi, ehtiyojlariga mostushuvchi mikrosotsium bilan o‘zaro munosabatida aks etadi. Agar atrofdagilar o‘smirning u yoki bu xususiyatlariga o‘z vaqtida e’tibor qaratishsa, uning xulq-atvori doimo me’yorda bo‘ladi. Bunday me’yordan og‘ishgan xul q-atvor jamiyat tomonidan bola shaxsiyati xususiyatlarini inobatga olmaslik oqibatida kelib chiqadi, degan tushuncha paydo bo‘ladi. Aftidan, me’yordan og‘ish gan xulq-atvor ijtimoiy dezadaptatsiya ko‘rinishlaridan biri hisoblanadi.

Bolalar va o‘smirlar dezadaptatsiyasi haqida gapirganda, bu jarayonga giriftor bo‘lgan bolalar toifalarini anikutab olish lozim: 1) mакtabga qatnamaydigan mакtab yoshidagi bolalar; 2) yetim bolalar; 3) ijtimoiy yetimlar. Ular tuzuk ovqatlanishmaydi, jismoniy, ruhiy, jinsiy qiynoqlarga duchor bo‘lishadi; 4) giyohvand va toksin moddalar iste’mol kiluvchi bolalar; 5) jinsiy intizomsiz bolalar; 6) g‘ayriqonuniy xatti-harakatlar sodir etgan bolalar.

Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra ularning soni kattalarga qaraganda, ikki hissa tez oshmoqda. Axborot inqilobi, qadriyatlarning uyg‘unlashuvi va moliyaviy bozorlarning integratsiyasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan ushbu davrda insonlarning ma’naviy-ruhiy olamini izdan chiqarishga qaratilgan turfa shakldagi mafkuraviy, ma’naviy tahdidlar sodir bo‘lmoqda. Bunday vaziyatda shaxsning axloqiy

tarbiyasi, ma’naviy kamoloti masalasi alohida dolzarblik kasb etadi. Ma’lumki, shaxs ma’naviy kamolotida oilaviy tarbiyaning o‘rni beqiyos. Oilaning bolalarga tarbiyaviy ta’sir doirasi o‘ta keng va ahamiyatlidir. Biroq keyingi paytda oilada farzandlar tarbiyasida, ularni kamol toptirishda bir qator muammolarga duch kelinmoqda. Ota-onalar va farzandlar o‘rtasidagi salbiy munosabatlar bolalarda xulq og‘ishi hamda psixosomatik kasalliklarning kelib chiqishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Xulq og‘ishi va tarbiyasida nuqsonlarga ega o‘smirlarning ota yoki onasidan birining spirthli ichimlikka ruju qo‘yishi holati ham oilada tarbiyalanayotgan bolalarga salbiy ta’sir etib, ularning alkogolizm ko‘chasiga kirib ketishlariga sabab bo‘ladi. Shu boisdan “Ota-onalardan birining jamiyat va axloq me’yorlariga zid bo‘lgan xulqqa ega bo‘lishi” holati bolalar va o‘smirlarda xulq og‘ishining kelib chiqishiga va tarbiya buzilishiga sabab bo‘lishi kuzatiladi. Oilaviy tarbiya inson ma’naviy kamolotida muhim o‘rin tutadi.

Oila birlamchi hayotiy ko‘nikmalarni, Vatanga muhabbat, ota-oni va atrofdagilarga sadoqat kabi yuksak axloqiy va ma’naviy sifatlarni shakllantirishda, turmushga, ijtimoiy faoliyatga nisbatan psixologik va amaliy jihatdan tayyorlashda katta imkoniyatlarga egadir.

Voyaga yetmaganlarda deviant axloq, xulq og‘ishi va tarbiya buzilishining kelib chiqishiga ta’sir etuvchi yana bir omil ota-onalarda farzandlar tarbiyasiga doir bilimlarning yetarli emasligidir. Bolalarga profilaktik ta’sir ko‘rsatishda o‘smirning shaxs sifatidagi shakllanishi jarayonini, uning o‘ziga xos xususiyatlarini, xarakter xislatlari va psixologiyasini hisobga olgan holda ish tutish yaxshi natija berishini unutmaslik lozim. Farzand tarbiyasida ularning yoshga oid va psixologik xususiyatlarini bilish hamda hisobga olish o‘ta muhimdir. Shuningdek, ularda o‘ziga ishonch, o‘z xulqini yaxshilash motivlarini quyidagicha shakllantirish zarur: – bolalarni o‘z xulq-atvorini o‘zi baholashga o‘rgatish; – farzandiga bo‘lgan ishonch; – oilada oldiga qo‘yilgan vazifalarni bajarishda erishgan yutuqlarini rag‘batlantirish; – tarbiya berishning optimal strategiyasini aniqlash; – bolalarga mustaqil faoliyat (o‘qish, o‘yin, mehnat, xobbi va qiziqishlari)ni tanlash uchun imkoniyat berish; -“Oila markaz”lari, amaliyotchi psixologlar, mahalla fuqarolaryig‘ini va shifokorlar bilan maslahatlashish.[

Ayrim oilalarda bolalar va o‘smirlarga yetarlicha shart-sharoit yaratib berilmasligi hamda ular faoliyatini cheklash – ularda infantillik (o‘zini nochor, yordamga muhtoj his qilish), muammoli vaziyatlardan chiqib ketish qobiliyatining susayishi kabilarga olib keladi. O‘smirlarda xulq og‘ishi va tarbiya buzilishining kelib chiqishiga ta’sir etuvchi sabablarni o‘rganar ekanmiz, ularning sub’ektiv va ob’ektiv ko‘rinishlarini bir-biridan farqlash lozim bo‘ladi. Tarbiya buzilishining

sub'ektiv sabablariga o'smir shaxsining qiziqish va ehtiyojlari, dunyoqarashi va ma'naviy olami, maqsad va yo'nalishlari, qadriyatlari, huquqiy ongi, hayotiy rejali, turmush tarzi va motivlari (hayotiy yo'nalishi, maqsad va qarashlari) kiradi. Sub'ektiv shart-sharoitlarga esa aholining demografik va ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, xusan, etnopsixologik jihatlari, xarakteri, temperamenti, yoshi va jinsi kiradi.

O'smirlarda tarbiya buzilishining kelib chiqishida moddiy yetishmovchilik ko'pincha sabab sifatida emas, balki xulq og'ishining kelib chiqishi uchun qiziqish va shart-sharoit tarzida xizmat qilgani kuzatiladi. Demak, aytish mumkinki, o'smirlarda tarbiya buzilishining kelib chiqishida iqtisodiy yetishmovchilik omili asosiy sabab sifatida namoyon bo'lmaydi. U faqatgina muayyan shart-sharoit sifatida xizmat qiladi xolos.

Xulosa qilib aytish mumkinki, mustahkam ma'naviy immunitetli, o'zining fikrlarini ravon aytga oladigan, yuqori marralarga erishuvchan avlodni tarbiyalash uchun ota-onas, oila muhiti juda katta ahamiyat kasb etadi. Hech kimga sir emas, insonning qalbi va ongini egallash, ayniqsa, yoshlarning ma'naviy dunyosini zaharlashga qaratilgan turli xavf-xatarlar ham kuchayib borayotgan bugungi kunda o'zining kimligini, qanday bebaho meros vorislari ekanini teran anglab, ona yurtga muhabbat va sadoqat hissi bilan yashaydigan, imon-e'tiqodi mustahkam yosh avlodgina muqaddas zaminimizni yot va begona ta'sirlardan, balo-qazolardan saqlashga, Vatanimizni har tomonlama ravnaq toptirishga qodir bo'ladi.

Farzandlarimizga shunday tarbiya beraylik, ular o'z ota-bobolariga, o'z tarixi, Vatani, ona tiliga, millati, diniga va an'nalariga sodiq bo'lib kamol topishsin.

Oilada ma'naviy-ruhiy hotirjamlik, o'zaro totuvlik xukmron bo'lsa, oila a`zolari bir-birlariga g'amxo'r bo'lsalar, bola tarbiyasining tayanch nuqtasini topa olsalar, bunday muhit bola tarbiyasiga ijobiy ta`sir etadi va ular farzandlariga haqiqiy baxt hadya etadilar, bu bilan ishimizda rivojlanish, jamiyatimizda olg'a siljish bo'ladi.

### Foydalilanilgan adabiyotlar

1. I.Sherbakov. "Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya". 2017-y.
2. Аргументы:"Какую роль в становлении личности может играть семья?" 2018 –y.
3. AbdusattorovaO.A. "Oila muhitida o'smirlarda shakllanadigan jinsiy identifikatsiyaning gender xususiyatlari", T: O'zMU, 2007-y.
4. A.Adler." Individualnaya psixologiya" asari.
5. Ahmedova Feruza: "O'smirlilik -ulg'ayish davri". 2013-y.
6. "Bolalar va o'smirlarda xulq og'ishi va tarbiya buzilishining oldini olish bo'yicha psixologik maslahatlar." Toshkent, 2019-y.

7. D. Nishonova, D.Abdullayeva, G.Baykunusova.“O’smirlik davri psixodiagnostikasi va psixokorrektsiyasi”. Toshkent-2015y.
8. Z.T.Nishanova, N.G.Kamilova, “Rivojlanish psixologiyasi.” Toshkent – 2018-y..

## СПОСОБЫ ПЕРЕВОДА С РУССКОГО НА УЗБЕКСКИЙ ЯЗЫК

*Самандарова Зарифа,  
Отабоева Мастура*

*Студенты 3-го курса факультета русского языка и литературы  
ДжГПУ*

*Мусаев А.С.  
Научный руководитель: д.ф.ф.н., доц.*

**Аннотация.** В статье рассматриваются особенности перевода с русского на узбекский язык с точки зрения лексических, семантических, грамматических и культурных различий. Основное внимание уделяется роли переводчика в точной передаче смысла, стилистики и национальной специфики оригинального текста.

**Ключевые слова:** перевод, узбекский язык, русский язык, лексика, грамматика, культура, адаптация.

Перевод с одного языка на другой представляет собой не просто механическую замену слов, а сложный процесс передачи смысла, который требует глубокого знания обеих языковых систем. Русский и узбекский языки принадлежат к разным языковым семьям, что делает процесс перевода между ними особенно интересным и в то же время сложным.

В русском языке существует большое количество фразеологизмов, устойчивых выражений, грамматических структур, которые не всегда имеют прямые эквиваленты в узбекском языке. Поэтому переводчику приходится применять различные методы и приёмы, чтобы сохранить не только смысл, но и эмоциональный оттенок оригинального текста.

При передаче лексических единиц важно учитывать наличие аналогов в узбекском языке. В тех случаях, когда эквивалентов не существует, используется описательный перевод. Например, слово «дача» может быть переведено как «шаҳар ташқарисидаги дам олиш уйи», что не является дословным, но передаёт смысл. Грамматические различия между языками также требуют внимания. В русском языке широко используются падежи, категория рода, а в узбекском — агглютинативная система с аффиксами. Это влияет на структуру предложения и порядок слов. Например, предложение

«У студента была книга» на узбекском языке будет звучать как «Talabada kitob bor edi». Культурные реалии — ещё один важный аспект. Перевод пословиц, поговорок, национальных терминов требует адаптации. Например, русская пословица «Семь раз отмерь, один раз отрежь» может быть передана как «Yetti o'lchab, bir kes», что является узбекским аналогом и сохраняет исходный смысл. Особую сложность представляют фразеологизмы и идиомы. Их перевод требует творческого подхода, знания контекста и способности найти аналог в целевом языке. Так, фраза «попасть впросак» может быть переведена как «poqulay holatga tushmoq».

Помимо языковых и культурных различий, переводчику важно учитывать жанровую специфику текста. Перевод научной статьи, художественного произведения и делового письма требует разных стратегий. Если художественный текст допускает определённую вольность, то юридический или официальный документ требует точности и соблюдения терминологии.

Таким образом, перевод между русским и узбекским языками — это не только языковой, но и культурный мост. Успешный перевод возможен только при глубоком понимании обеих культур, владении лексикой и грамматикой, а также при наличии определённого уровня художественного вкуса и интуиции переводчика.

**Заключение.** Перевод с русского языка на узбекский требует от переводчика широких знаний, чувствительности к лексическим и культурным нюансам, а также способности сохранять смысл и стиль оригинального текста. Качественный перевод — это результат глубокого анализа, понимания текста и умения адаптировать его к культуре целевой аудитории.

### Список литературы

1. Комиссаров В.Н. Теория перевода. – М.: Высшая школа, 1999.
2. Мирзаев Ш. Ўзбек тилида таржима назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 2006.
3. Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. – Routledge, 2011.
4. Бархударов Л.С. Язык и перевод: вопросы общей и частной теории перевода. — М.: Международные отношения, 1975.

## IMMERSIYA VA IMMERSIVE MUHITINI JORIY ETISHNING USLUBIY YONDASHUV ASOSLARI

*Ibodullayeva Gulshod Urinovna*  
*Termiz Iqtisodiyot va Servis Universiteti 2-bosqich magistranti*  
*tel +998978498838*

**Kalit so'zlar:** Immersiya, muhit, idrok, Psixologiya, virtual, multimodal, yondashuv, virtualizatsiya.

Immersivlik (inglizcha immersive — “hozirlik, sho‘ng‘ish”) — bu sun’iy yaratilgan muhitga sho‘ng‘ish effektini yuzaga keltiruvchi idrok etish usuli. Bunday sho‘ng‘ish effektining turli misollarini biz FPV-ushbu qurilmalarni boshqarishda, kinoda, teatrlashtirilgan sahnalarda, ijtimoiy tarmoqlardagi virtual hamjamiyat bilan uzlusiz muloqotda yoki ko‘p foydalanuvchili o‘yinlarda ko‘rishimiz mumkin. Immersevlik odatda sun’iy shakllantirilgan sharoitlarga sho‘ng‘ish deb ta’riflanadi. Bu holatda asosan ongni modellashtirish texnologik omillariga e’tibor qaratiladi — sun’iy muhitni vizual tarzda tasvirlash orqali.

Adabiyot va rassomlik san’ati paydo bo‘lgan ilk davrlardan boshlab immersiv idrok etishning muayyan darajalari kuzatilgan. Asarning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan aynan shu idrok chuqurligi bilan belgilanadi. Psixologiya fanining o‘rganish obyekti — inson ongining subyektiv, obyektiv va modellashtirilgan reallikni qanday ajratishini tushunish — hali to‘liq javob topmagan masala bo‘lib qolmoqda. Ushbu fenomen tarixi inson atrof-muhitini tasvirlashga birinchi urinilgan rasm, musiqa va boshqa usullar bilan boshlanadi. Bunday idrok har kimda bir xil bo‘lmagan — kimdadir kuchliroq, kimdadir zaifroq ta’sir ko‘rsatgan.

Immersevlik madaniyatga, asosan G‘arbda, keng joriy etilganiga ko‘plab misollar mavjud. Masalan, London shahridagi “Secret Cinema” (“maxfiy kino”) loyihasi odamlarni virtual haqiqatga sho‘ng‘ishga chorlaydi va haqiqiy hamda virtual olam o‘rtasidagi chegaralarni yo‘q qiladi. Nyu-Yorkdagi “Sleep No More” (“Endi uyqu yo‘q”) esa — bu immersiv teatr bo‘lib, tomoshabinlar vaqtincha modellashtirilgan reallikka sho‘ng‘ish uchun tashrif buyuradilar. Rossiyada ham teatr ushbu tendensiyanı bir necha yildan keyin qabul qildi. “Qora Rus” (Black Russian) immersiv myuzikli 2016-yil 15–18-sentabr kunlari ilk bor namoyish etilgan bo‘lib, teatrlashtirilgan san’atga yangicha yo‘nalish olib kirdi. Moskva shahrida quyidagi immersiv spektakllarni ko‘rish mumkin: “Morfeus”, “Qaytganlar”, “Noaniq ta’sirlar”, “Rus ertaklari”, “Sening o‘ying”, “Moskva 2048” va boshqalar.

Zamonaviy texnologik yechimlar atrof-muhitning ichki idrokini faollashtirish imkonini beradi, bu esa amalga oshirilayotgan jarayonga hissiy kirishish, ishtirok tuyg‘usini hosil qilish imkonini yaratadi.

Immersevlik effekti kino, teatr, rassomlik va ko‘ngilochar sanoatda faol qo‘llanilmoqda. Ongni virtuallashtirish tafakkur jarayonlarini faollashtirishga yordam beradi va idrokning o‘tkirligiga ta’sir qiladi. Immersev idrok psixologik jihatdan ham alohida qiziqish uyg‘otadi. Virtual muhit bilan o‘zaro aloqada bo‘lishda hozirlilik hissi — ya’ni u yerda haqiqiy ishtirokda bo‘layotgandek his qilish — inson kechinmalarining muhim qismidir. Bu his, texnologik tarzda yaratilgan sun’iy muhit ekanini anglamasdan, virtual obyektlar bilan bevosita muloqotda bo‘lishdek tuyuladi. Bu his ish samaradorligiga bevosita ta’sir qilmasa-da, virtual muhitdagi ish sifati va texnologik qaramliklarning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Hozirlilik hissining shakllanishiga texnologik va psixologik omillar ta’sir qiladi. Texnologik omillar — bu virtual muhitning realizm darajasini belgilovchi texnik jihatlar. Psixologik omillar esa — foydalanuvchining xususiyatlari bo‘lib, virtual muhitni qanchalik real qabul qilishini belgilaydi. Bu hissiyot subyektiv fenomen bo‘lib, texnologik imkoniyatlar bilan to‘liq aniqlanmaydi.

Xorijiy adabiyotlarda "Immersive learning" (immersive teaching, immersive education) atamasi uchraydi. Bu — ta’lim muhitida virtual olamlarning imkoniyatlarini o‘rganish va qo‘llashni anglatadi. Bunda o‘qituvchi roli o‘zgaradi — u ko‘proq multimodal virtual muhitni loyihalash, sho‘ng‘ish ssenariylarini yaratish bilan shug‘ullanadi. So‘nggi yillarda immersivlik ta’limda samarali va kuchli vosita sifatida tan olingan.

Immersev yondashuv — bu bilim olish strategiyasi, hamda sun’iy yaratilgan virtual muhitda ta’lim jarayoni ishtirokchilarining interaktiv muloqoti orqali shaxsni rivojlantirish va o‘zini o‘zi rivojlantirishga qaratilgan usullar majmuidir. Bu muhit tinglovchining sezgi kanallariga kompleks ta’sir ko‘rsatadi.

Immersevlik bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan yana bir atama — bu kognitiv nazorat. Bu — ongli idrokni boshqaruvchi metakognitiv funksiyalar tizimi bo‘lib, ular vazifalarni ma’lum sharoitda hal qilish uchun maxsus kognitiv jarayonlarni sozlaydi. Misol uchun, kognitiv nazoratga diqqatni boshqarish, muhim stimul atributlarini ajratish, nozarur reaksiyalarni bostirish, bir nechta vazifani bir vaqtning o‘zida muvofiqlashtirish, xatolarni aniqlash va tuzatish, kognitiv jarayonlarni yakunlash kiradi. Shunday qilib, kognitiv nazorat jarayonlari kognitiv faoliyatni boshqarish mexanizmlaridir va ular modellashtirilgan reallikka sho‘ng‘ish tuyg‘usining yuzaga kelishiga bevosita ta’sir qiladi.

Virtual reallik texnologiyalari bugungi kunda turli sohalarda faol qo'llanilmoqda. Jahon bo'ylab bu texnologiyalar ta'limda ham allaqachon keng qo'llanilib kelmoqda. Ayni paytda masofaviy ta'limda qo'llashga qaratilgan loyihalar ishlab chiqilmoqda. Bu ehtiyoj zamonaviy dunyoda tobora ortib borayotgan masofaviy ta'limning ahamiyati bilan bog'liq. Kengaytirilgan reallik (Augmented Reality) texnologiyasi ham tez sur'atlarda rivojlanmoqda — bu global axborot uzatish va qayta ishlash texnologiyalarining taraqqiyoti mahsulidir. Unda sun'iy yaratilgan reallik haqiqiy dunyo ma'lumotlari bilan birlashtiriladi. Virtualizatsiya jarayonlarining jadal rivojlanishi ushbu hodisaning inson ongi va idrokiga ta'sirini chuqur o'rghanishni talab qilmoqda, ammo bu borada hali yetarlicha tadqiqotlar olib borilmagan.

### Adabiyotlar

1. To'xtasinov, S. Sh. (2021). Raqamlı pedagogika: raqamlı ta'lim muhitini shakllantirish va baholash vositalari. Toshkent: "O'qituvchi" nashriyoti.
2. Mahmudova, D. A. (2020). Innovatsion ta'lim texnologiyalari. Toshkent: "Fan va texnologiya" nashriyoti.
3. Karimov, A. M. (2022). Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta'lim jarayonidagi o'rni. Toshkent: TDPU nashriyoti.
4. Ergashev, R. T. (2019). Multimedia va virtual muhitlarda ta'lim berishning zamonaviy usullari. Samarqand: SamDU nashriyoti.

## ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И АВТОМАТИЗАЦИЯ: ВЛИЯНИЕ НА РЫНОК ТРУДА И РАБОЧИЕ МЕСТА В БУДУЩЕМ

**Олимова Мухлиса Вохиджон кизи**

Старший преподаватель кафедры "Искусственный интеллект"  
Ташкентского государственного экономического университета  
*mukhlis.olimova1323@gmail.com*

**Сайдмурадов Саттор Умарбекович**

Студент первого курса направления "Искусственный интеллект"  
Ташкентского государственного экономического университета  
*sattorsaidmurodov17@gmail.com*

**Введение.** Современные технологии, такие как искусственный интеллект (ИИ) и автоматизация, трансформируют рынок труда, изменяя структуру занятости и производственные процессы. Цель данных тезисов — проанализировать влияние ИИ и автоматизации на рабочие места, выделить позитивные и негативные последствия, а также предложить пути минимизации рисков. В тезисах рассмотрены ключевые аспекты, включая


новые профессии, сокращение рабочих мест, переквалификацию и социальную поддержку.

### Искусственный интеллект и автоматизация в экономике

ИИ — это технологии, позволяющие машинам обучаться, анализировать данные и принимать решения. Автоматизация заменяет ручной труд механизированными и цифровыми решениями. Вместе они повышают производительность, снижают затраты и улучшают качество продукции и услуг.

#### Примеры применения:

- Робототехника в промышленности (например, сборочные линии).
- Чат-боты и голосовые помощники в клиентском сервисе.
- Анализ больших данных в маркетинге и здравоохранении.



*График 1. Динамика внедрения ИИ и автоматизации в экономике (2015–2025)*

*(Прогноз роста инвестиций в ИИ и автоматизацию по данным McKinsey)*

## 2. Позитивные последствия автоматизации и ИИ

ИИ и автоматизация создают новые возможности для работников и экономики в целом. Развитие ИИ стимулирует спрос на специалистов в области технологий.

#### Примеры профессий:

- Разработчик ИИ и машинного обучения.
- Специалист по анализу данных.
- Менеджер автоматизированных процессов.

*Таблица 1. Новые профессии, связанные с ИИ и автоматизацией*

| Профессия                       | Описание                         | Средняя зарплата (USD/год) |
|---------------------------------|----------------------------------|----------------------------|
| Разработчик ИИ                  | Создание алгоритмов ИИ           | 120,000–150,000            |
| Аналитик данных                 | Обработка больших данных         | 80,000–110,000             |
| Специалист по кибербезопасности | Защита автоматизированных систем | 90,000–130,000             |


### Повышение качества труда

Автоматизация освобождает работников от рутинных задач, позволяя сосредоточиться на творческой и стратегической работе. (В колл-центрах чат-боты обрабатывают стандартные запросы, а сотрудники решают сложные случаи).

### Развитие новых отраслей

ИИ способствует появлению инновационных секторов, таких как телемедицина, умные города и возобновляемая энергетика.

Диаграмма 1. Новые рабочие места по отраслям (2025)


*Диаграмма 1. Распределение новых рабочих мест по отраслям (2025)*

### 3. Негативные последствия автоматизации и ИИ

Несмотря на преимущества, технологии несут риски для рынка труда. Автоматизация угрожает низкоквалифицированным профессиям.

- Упаковка и сортировка товаров.

- Административные функции (например, ввод данных).



*График 2. Динамика сокращения рабочих мест в промышленности (2020–2030)*

#### Рост безработицы и социального неравенства

Снижение спроса на низкоквалифицированный труд может привести к увеличению безработицы и усилению разрыва между квалифицированными и неквалифицированными работниками.

Работники должны осваивать новые навыки, такие как программирование и работа с данными.

*Таблица 2. Навыки, востребованные в 2025 году*

| Навык                     | Описание                          | Уровень сложности |
|---------------------------|-----------------------------------|-------------------|
| Программирование          | Разработка ПО и алгоритмов        | Высокий           |
| Анализ данных             | Работа с большими данными         | Средний           |
| Управление автоматизацией | Настройка роботизированных систем | Высокий           |

#### 4. Пути минимизации рисков

Для смягчения негативных последствий необходимы комплексные меры.

##### Образование и переквалификация

Инвестиции в образование помогут работникам адаптироваться к новым требованиям.

Примеры программ:

- Онлайн-курсы по ИИ (Coursera, edX).
- Государственные программы переквалификации.

Социальная поддержка. Государства должны предоставлять помочь уволенным работникам.


Меры:

- Финансовая поддержка.
- Программы трудоустройства.
- Поддержка малого бизнеса.

*Развитие инноваций.* Инвестиции в новые отрасли создадут рабочие места.


Приоритетные направления:

- Биотехнологии.
- Экологически чистые технологии.
- Цифровая экономика.



*Диаграмма 2. Инвестиции в инновационные отрасли (2025)*

**Заключение.** ИИ и автоматизация кардинально меняют рынок труда, создавая как возможности, так и вызовы. Позитивные последствия включают появление новых профессий, повышение качества труда и развитие инновационных отраслей. Однако сокращение рабочих мест, рост безработицы и изменение требований к квалификации требуют немедленных мер. Образование, социальная поддержка и инвестиции в инновации позволяют обеспечить справедливый переход к рынку труда будущего.



*График 3. Баланс новых и утраченных рабочих мест (2025–2030)*

## TALABALAR MUSTAQIL ISHLARINI TASHKIL ETISH VA NAZORAT QILISHDA VEB-TEXNOLOGIYALAR NING ROLI (NOFILOLOGIK YO'NALISHLARI UCHUN)

*Ibodullayeva Gavhar Urinboyevna*

*2-kurs magistranti*

*Termiz iqtisodiyot va servis universiteti*

*Tel: +998978498838*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada ingliz tili darslarida kompyuter veb-texnologiyalaridan foydalanish masalalari, ayniqsa nofilologik fakultetlarida o'qiyotgan talabalar uchun, yoritib berilgan. Ta'lif tizimi holati va jamiyat rivojlanishidagi tendensiyalar kompyuter texnologiyalari asosida yagona ta'lifiy axborot muhitini shakllantirish orqali ta'lif tizimini ilg'or rivojlanishning eng dolzARB vazifalaridandir. Ilm-fanning tez rivojlanishi, ma'lumotlarning yangilanib borishi sharoitida butun umr o'qish imkoniy yo'q, shuning uchun doimiy o'z-o'zini rivojlanish va bilim olishga bo'lgan qiziqishni shakllantirish muhim hisoblanadi. Zamonaviy ta'lif texnologiyalari ta'sirida jamiyatda sodir bo'layotgan keskin o'zgarishlar ta'lif tizimini ham yangilash zaruratini yuzaga keltirmoqda. O'qitishning asosiy maqsadi — zamonaviy ta'lif sifatiga erishishdir.

**Kalit so'zlar:** audiovizual texnologiyalar, til muhit, og'zaki muloqot, modernizatsiya, internet-texnologiyalar, eshitish ko'nikmasi (audirovaniye).

Ojegov lug'atida "texnologiya" atamasi quyidagicha izohlanadi: "Muayyan sohadagi ishlab chiqarish usullari va jarayonlarining majmuasi, shuningdek ishlab chiqarish usullarining ilmiy tavsifi."

Kompyuterlar hozirda maktab, kollej va universitetlarda talabalar ta'lifini yengillashtirish uchun faol qo'llanilmoqda. Kollejlardagi professorlar va maktab o'qituvchilari bolalar uchun dars rejalarini tayyorlashda audiovizual texnologiyalardan foydalanadilar. Buning uchun ular Microsoft PowerPoint dasturidan foydalanib, ma'ruzalari uchun elektron taqdimotlar tayyorlaydilar. Ushbu taqdimotlarni multimedia va audio proyektorlar orqali sinfda namoyish etish mumkin. Bu usul talabalar uchun ham qiziqarli, ham oson tushuniladi.

Multimedia (ko'rgazmali va ovozli) taqdimotlarini o'qituvchilar osonlik bilan o'tkaza oladilar, chunki bu ko'p vaqt va kuchni tejaydi. Bugungi kunda o'quvchilar turli xil ta'lifiy resurslardan, shu jumladan o'quv videolaridan foydalanishlari va hatto topshiriqlarni internet orqali sotib olishlari mumkin — bularning barchasi kompyuterlar qulayligi tufayli sodir bo'lmoqda.

Biz talabalar uchun boy til muhitini yaratishimiz lozim, bunda talabalar doimo til faoliyatida ishtiroy etishlari kerak. Kompyuter og'zaki muloqotni

kuchaytirish vositasi sifatida xizmat qilishi mumkin. Veb-kitoblar orqali kompyuterlar o‘quvchilar orasida og‘zaki muloqotni kuchaytiradimi, yo‘qmi — shular o‘rganilgan. Ushbu kompyuter kitoblari ekranda matn va illyustratsiyalar bilan haqiqiy kitob ko‘rinishida paydo bo‘ladigan interaktiv hikoyalar shaklida bo‘ladi.

Kompyuter, internetga ulanish imkoniyati bilan birgalikda, ta’limda yangi ko‘nikma va bilimlarni egallash uchun eng kuchli vositalardan biridir. Kompyuter hayotning har bir sohasida muhim rol o‘ynaydi, chunki u bizga ko‘plab yo‘llar bilan yordam beradi.

Veb-texnologiyalar mustaqil ta’lim olayotgan talabalar uchun ham ta’lim tizimini yaxshilash va modernizatsiya qilish imkoniyatiga ega. Kompyuterlardan ta’limda foydalanish o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi o‘zaro aloqani yanada samarali va qiziqarli qilishi mumkin. Kompyuterdan veb imkoniyatlari orqali foydalanish tobora qadrlanmoqda. Bugun siz ushbu ma’lumotni o‘qiyotgan bo‘lsangiz, bu ham internet va kompyuter tufayli.

Kompyuter ta’lim tizimini barcha jabhalarda, ya’ni o‘qituvchilar tomonidan o‘tiladigan darslarda ham, talabalar tomonidan olinadigan bilimlarda ham takomillashtira oladi.

Mupatxo‘jayeva Z.B. “Innovative tendencies of teaching foreign languages” nomli maqolasida quyidagicha ta’kidlaydi: “Xorijiy tillar darslarida veb-texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirishning samarali omilidir. Ko‘pchilik bolalarga kompyuter bilan ishlash yoqadi. Chunki darslar noan’anaviy muhitda o‘tadi, o‘quvchilarga mustaqillik beriladi, ba’zilari esa axborot-kommunikatsion texnologiyalar borasidagi bilimlari bilan ajralib turadi. Internet-texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari bugun juda keng. Masalan: ingliz tilida so‘zlashuvchi mamlakatlar aholisi bilan elektron pochta orqali yozishmalar; xalqaro internet-konferensiyalar, seminarlar va boshqa shu turdagи tarmoq loyihibarida ishtiroy etish; veb-saytlar va taqdimotlar yaratish — bu ishlar o‘qituvchi va o‘quvchilar tomonidan birgalikda amalga oshirilishi mumkin. Bundan tashqari, turli davlatlardagi o‘qituvchilar o‘rtasida taqdimotlar almashinuvni ham mumkin.”

Xulosa qilib aytganda, veb-texnologiyalar orqali talabalar mustaqil ishlari davomida taqdimot tayyorlash, eshitish (audirovanie) ko‘nikmalarini mashq qilish, o‘z ovozini yozib olib, notanish so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishda xatolarini aniqlab, ularni tuzatish orqali o‘z bilimlarini oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

## INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA XARAKTERNI IFODALOVCHI PAREMALAR STRUKTURASIDAGI O'XSHASH VA FARQLI JIHATLAR

*Normamatova Farida Choriyevna  
Termiz Iqtisodiyot va servis universiteti magistranti  
E-mail: farida.normamatova@mail.ru  
Orcid: 0009-0006-2493-6710*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida xarakterni ifodalovchi paremiyalarning strukturaviy xususiyatlari tahlil qilinadi. Har ikki tilga xos paremiyalar inson xarakterining turli jihatlarini ifodalashda muhim lingvokulturologik vosita sifatida xizmat qiladi. Tadqiqotda ingliz va o'zbek tillaridagi paremiyalarning grammatik qurilishi, leksik tarkibi hamda uslubiy xususiyatlari qiyosiy tahlil asosida o'r ganiladi. Shuningdek, bu paremiyalarning xalq tafakkuri, qadriyatları va madaniy urf-odatlaridagi o'rni ham ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** ingliz tili, o'zbek tili, paremiyalar, xarakter, strukturaviy xususiyatlar, lingvokulturologiya, solishtirma tahlil.

**Аннотация.** В данной статье анализируются структурные особенности паремий, выражающих характер, в английском и узбекском языках. Паремии, характерные для обоих языков, служат важным лингвокультурологическим средством выражения различных сторон человеческого характера. В исследовании на основе сравнительного анализа рассматриваются грамматическое строение, лексический состав и стилистические особенности паремий в английском и узбекском языках. Также рассматривается роль этих паремий в народном мышлении, системе ценностей и культурных традициях.

**Ключевые слова:** английский язык, узбекский язык, паремии, характер, структурные особенности, лингвокультурология, сравнительный анализ.

**Abstract.** This article analyzes the structural features of paremias expressing character traits in the English and Uzbek languages. Paremias typical for both languages serve as important linguocultural tools for conveying various aspects of human character. The study presents a comparative analysis of the grammatical structure, lexical composition, and stylistic features of paremias in English and Uzbek. The article also examines the role of these paremias in folk thinking, value systems, and cultural traditions.

**Keywords:** english language, Uzbek language, paremias, character, structural features, linguoculturology, comparative analysis.

Til o'z tuzilishiga, qadriyatlar tizimiga, muammolar va tajribalarga ega bo'lgan yaxlit bir tizimdir. Maqol va matallar, frazeologik birliklar, neologizmlar, aforizmlar va boshqa vositalar nutqni yorqinroq, tasavvurliroq qiladi va shu bilan

tilni o'zlashtirishga kommunikativ, kognitiv va estetik motivatsiyani uyg'otadi. Maqol va matallar xalq hikmatini ixcham va obrazli ifodalash, xalq tarixi va dunyoqarashini, uning an'analari, urf-odat va qadriyatlarini aks ettirish imkonini beruvchi xalq og'zaki san'atining elementidir. Maqollarda avlod-ajdodlarning hayotiy tajribalari, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, etik va estetik tuyg'ulari, ijobiy fazilatlari mujassamlashgan.

Maqollarni chuqurroq tahlil etish va ularning turli tillardagi milliy-ma'daniy hamda umumbashariy qadriyatlarini aks etishi orqali o'rganish hozirgi zamon tilshunosligining dolzarb muammosi bo'lib kelmoqda. Qiyoslab o'rganadigan bo'lsak, dunyodagi barcha tillar o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin va aynan shu fenomen turli tillarni bir-biridan ajratadi. Lekin shu narsa ma'lumki, til o'rganuvchilar o'ziga begona bo'lgan tilni ona tili va shu til o'rtasida ma'lum bir bog'liqlik asosida o'zlashtiradi. Bu tillar ma'lum bir kategoriylar ostida birlashadi. Bu kategoriyalarda grammatik kategoriylar, leksik-semantik kategoriylar, funksiyonal kategoriyalarga o'xshagan lisoniy belgilar kiradi. Demak, umumlashtiruvchi kategoriylar tillardagi universallikni ta'minlaydi. SHu asnoda, maqollar har bir tilda uchraydigan o'ziga xos til birligi ekan, ularda ham umumiylilik mavjud. Shu haqda G. L. Permiakov quydagicha fikr yuritadi: holatlarni umumiylashtirish xususiyati ya'ni bir xil yoki o'xhash holatlarni birlashtirish turli xalqlar maqollarida uchraydi. Maqollardagi shu bir xillik universallikni ta'minlaydi va ko'p holatlarda alohida mantiqiy ma'noga ega bo'ladilar. Bundan kelib chiqadiki, maqol dunyosi jahon sivilizatsiyasi bilan bog'liqidir, uni faqat bir millatga tegishli deyish mutlaqo noto'g'ri. Maqollardagi universallik paremiologiyaning asosiy qirrasi bolib, u maqollardagi o'xhash va bir xil xolatlarni umumlashtiradi va hatto qarindosh bo'limgan tillarda, ularning tarixiga, etnosiga qaramay uchraydi. SHuni aytib o'tish kerakki, ko'plab maqollarning har xil tillardagi shakllarida ham shaklan, ham ma'no jihatdan yoki umumiy bajarayotgan funksiyalaridan o'xhashlik topsa bo'ladi.

O'zbek tilidagi ayrim maqollar ingliz maqollariga funksional jihatdan mos keladi. Masalan, First think, then speak maqolini o'zbek tilidagi muqobil varianti Avval o'yla - keyin so'yla maqoliga to'g'ri keladi, chunki bu maqol har ikkala tilda aynan bir xil ma'noga ega hamda uning grammatik tizimi ham ancha yaqin. Sturuktur jihatdan ham ikkala maqol bir xil sturukturaga ega. Ifoda maqsadiga ko'ra farak gap, tuzilishiga ko'ra soda yoyiq gap. SHu bilan birga, ma'lum bir tildan ikkinchi tilga berilgan o'girishlarda maqollarning aynan o'xshashini topish qiyin bo'ladi. SHunda izohlarga yoki ikkinchi bir adekvat variantga murojaat qilinadi. O'zbek tilidagi maqollarning ingliz tilida yoki ingliz tilidagi maqollarning o'zbek tilidagi muqobil variantini topish ancha mushkul, bu borada maqollarga

o'rni kelganda izoh berib o'tish tarjimaga putur etkazmaydi balki uni to'ldiradi va boyitadi. So'zlaguvchi nodon bo'lsa, eshitguvchi dono bo'lsin maqolinining aynan nusxasi inglizchalari yo'q bo'lgani holda bu maqolni uning yaqinroq ekvivalenti bilan berish mumkin. Lekin uni If speaker is fool listener should be wise deb tarjima qilinsa uning o'zbekcha qoloriti saqlanib qoladi va bu hammaga tushunarli bo'ladi.

Xuddi shu so'zlarni Qassob moy qayg'usida, echki - jon qayg'usida maqoliga ham qo'llab uni The butcher grieves for bacon, and the goat - for its life qabilida berilsa ma'qul bo'ladi. Qizi borning nozi bor maqolini ingliz tiliga Who has a daughter that has a whim qabilida berilsa Markaziy Osiyo xalqlari, xususan o'zbek urf-odatlaridan bexabar ingliz o'quvchisi uni butunlay tushunmasligi mumkin. Ingliz tiliga uni Parents of the bride may be capricious (they can expose their own terms) deb ag'darishdan boshqa chora yo'q. Boshqa yo'li: bu maqol mazmunini beruvchi boshqa maqol topish lozim deb hisoblaymiz. Bir-birlariga ma'no va stilistik vazifa jihatlaridan mos bo'lib, so'z tartibida kamdan-kam mos bo'lsa, sonda kamdan-kam farq qiladilar, leksik tarkib jihatidan farq qiladigan muqobil variantlar. Ularning ko'pchiligi shaklan milliy, mazmunan baynalmilaldirdar.

Ular shakli bilan o'zlarining muayyan milliy tilga mansubliklarini tasdiqlasalar, mazmuni bilan jahon madaniyati va sivilizatsiyasi mahsuli ekanliklarini namoyon qiladilar. Pigeon's milk Anqoning urug'i Every dog is a lion at home Har kim o'z uyida bek All bread is not baked in one oven Besh qo'l baravar emas No pleasure without pain Gul tikansiz bo'lmas Biror kamyob, kimmatabxo, orzu qilib etib bo'lmaydigan narsani inglizlar «Pigeon's milk» (kabutarning suti), ruslar «Ptiche moloko» desalar, o'zbeklar «anqoning urug'i » (afsonaviy qush tuxumi) deydilar.

Xalq og'zaki ijodining eng muhim janrlaridan biri bo'lgan maqol insonlarning yillar davomida to'plangan donishmandlik na'munalaridir. Maqollarni qaysi til yoki millatdan to'plashimizdan qat'iy nazar o'xshashlik jihatlarini uchratamiz chunki maqol va matallarda asosan insonlarning hayoti davomida bo'lib o'tgan voqealar asosida yozilgan.

Tadqiqotda paremalar sturuktur jaihatdan tahlil etilganda har ikkala tilda gaplarning ifoda maqsagida ko'ra tahlil etildi. Ingliz tilida ham o'zbek tilida ham xarakterni bildiruvchi paremalarning ko'pchiligi declarative/darak gap shaklidagi paremalar ekanligi aniqlandi. Har ikkala tilda imperative/buyruq gap shaklidagi xarakterni bildiruvchi paremalar uchradi ammo ularning salmog'i kamroq. Ingliz tilida ham o'zbek tilida ham xarakterni bildiruvchi paremalar interrogative/so'roq gap shaklidagi paremalar soni ozchilikni tashkil qildi. Har ikkala tilda Exclamatory/undov gap shaklidagi paremalar uchramadi.

### Foydanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abdullayeva N.E. Ingliz va o'zbek xalq maqollaridagi graduonimik munosabatlarning lingvopragmatik xususiyatlari: Filol. fan. dokt. (PhD) dis. avtoref. – Toshkent, 2019. – 52 b.
2. Farmonova M. Qadriyatlar–ma'naviy kamolot asosi. Ilmiy-uslubiy qo'llanma. –Toshkent: Tasviriy nashriyot uyi, 2019. – 36 b.
3. Jo'rayeva B.M. O'zbek xalq maqollari shakllanishining lingvistik asoslari va pragmatik xususiyatlari: Filol. fan. doktori diss. avtoreferati – Samarqand, 2019. – 74 b.
4. Аврорин В.А. Проблемы изучения функциональной стороны языка. – Л.: Наука, 1975. – 275 с.

## KOMPETENTLI YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHISINING KASBIY-PEDAGOGIK IJODKORLIGINI RIVOJLANTIRISH

*Eshqobilov Elmurod Menglimurod o'g'li  
Termiz davlat universiteti  
Sport boshqaruvi kafedrasи o'qituvchisi.  
Tel :+998995270792  
eshqobilovelmurod25@gmail.com*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada muallif jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishi talabalarining kelgusi kasbiy pedagogik faoliyatidagi ijodkorligini rivojlanirishda kompetentli yondashuvning ilmiy-nazariy jihatlari va uning ahamiyati to'g'risida fikir mulohazalar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** kompetent, yondashuv, faoliyat, pedagok, mutaxassis, ta'lim, noan'anaviy, kasb, mashg'ulot, kompetentsiya, qobiliyat, ijodkorlik, malaka, shakllanish, rivojlanish va metod.

Kirish. Hozirgi shiddat bilan rivojlanib borayotgan ta'lim amaliyotida kompetentli yondashuvni amalga oshirish ushbu jarayonning barcha jihatlarini chuqur va har tomonlama ilmiy o'rganishni talab etadi. Shu bilan birga, ta'kidlash kerakki, kompetentlikni pedagogik fenomen sifatida talqin qilish qiyin, chunki, kompetentlik kategoriysi pedagogikaga boshqa fanlardan kiritilgan bo'lib, u fanlarda etarli darajada chuqur anglab etilgan va o'zining mustahkam o'rniga ega. Dunyoda inson va jamiyatni takomillashtirish omili sifatida jismoniy madaniyatning roli sezilarli darajada oshib bormoqda. Shunga ko'ra, jamiyat va uning a'zolari tomonidan jismoniy tarbiya sohasida xizmat ko'rsatuvchi mutaxassislarni tayyorlash sifati va samarasiga yetarli darajada e'tibor qaratilib kundan kunga kasb malakalari darajasiga qo'yiladigan talablar ortib bormoqda.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limga murojaat qilish pedagogik ta'limning, shu jumladan jismoniy tarbiyaning yangi maqsadlarning paydo bo'lishiga olib keladi.

Yo'qoridagilardan kelib chiqqan holda, universitetning ta'lim maydoniga yangicha yondashuvlar va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish asosida pedagog kadrlar tayyorlash tizimini modernizatsiya qilish zarur.

Ta'lim amaliyotida kompetentli yondashuvni amalga oshirish ushbu jarayonning barcha jihatlarini chuqur va har tomonlama ilmiy o'rganishni talab etadi. Shu bilan birga, ta'kidlash kerakki, kompetentlikni pedagogik fenomen sifatida talqin qilish qiyin, chunki kompetentlik kategoriyasi pedagogikaga boshqa fanlardan kiritilgan bo'lib, u fanlarda etarli darajada talqin etilgan, o'rganilgan va o'zining mustahkam o'rniga ega. U ijtimoiyiqtisodiy jarayonlarning natijasi sifatida pedagogika fanining tushunchalari tarkibiga nisbatan yaqinda kirib kelgan va hozircha pedagogik, xususan didaktik tushunchalar tizimiga to'laqonli singdirilmagan.

Shu bilan birga, ta'limda kompetentlikka yo'naltirilgan yondashuvlarning dolzarbli tufayli "kompetentlik", "kompetensiya", "tayanch kompetensiyalar" atamalari ta'limning yangi sifatlariga doir masalalarni muhokama etishda tobora ko'proq ishlatilmoqda hamda keng tarqalib bormoqda. Pedagogik hamjamiyatda kompetentlik va kompetensiyalar, ulardan qaysi birlari tayanch (universal) hisoblanishi, ularni shakllantirish va baholash usullarining qanaqaligini tushunib etish jarayoni jadallahib bormoqda, ushbu tushunchalarni aniqlashtirish bo'yicha qizg'in munozaralar davom etmoqda. Shu sababli bugungi kunda ushbu tushunchalarning juda ko'plab ta'riflari va talqinlari mavjud.

Jismoniy tarbiya va sportning rivojlanishi hamda taraqqiy etishi aynan bo'lajak o'qituvchining kompetentliligin shakllantirish bilan ta'minlash mumkin.

Jismoniy tarbiya sohasini yaxshilashda bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining buyurtmachilari talablarini tahlil qilish zarur, chunki bugungi kunda ish beruvchilar o'qituvchilarga hozirgi zamonga mos ravishda alohida talablar qo'ymoqda. Bu talablar kasbiy mahorat, mehnat bozoriga mos ravishda kasbiy moslashuvchanlik, raqobatbardoshlik, o'z mutaxassisligi bo'yicha kasbiy kompetentlilik hamda ijodkorlik fazilatlariga egaligi kabilardan iborat.

O'qituvchilarning kasbiy kompetentligi pedagogik mehnatning barcha tomonlarida: kasbiy faoliyatda, kundalik munosabatlarda, shaxs rivojlanishida, mehnatning majmuiy natijasida namoyon bo'ladi va uning barcha komponentlari shakllanganligini talab etadi.

Maqsadga erishish uchun qaratilgan ta'lim tizimidagi har bir bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisining ta'lim yo'nalishi bo'yicha olgan nazariy bilimlarini amaliyotga joriy etish va barkamol avlodni tarbiyalashga oid kasbiy

kompetentligini shakllantirish imkonini beruvchi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish talab etiladi.

Kasbiy kompetentlikni rivojlantirishni muammoli o'qitish jarayonida amalga oshirish ham maqsadga muvofiq bo'ladi, buning mohiyati kasbiy faoliyatni yaxlit tizim sifatida ko'rish, unda tizimli faoliyat ko'rsata olish, yangi muammo va masalalarni hal eta bilish tajribalarini shakllantirish uchun zamin yaratishga xizmat qiladigan kasbiy faoliyat elementlarini ta'lim jarayoniga kiritishdan iborat.

Bespalko V.P ning fikriga ko'ra, kompetentsiya - bu shaxsning ma'lum bir toifadagi muammolarni hal qilish qobiliyati va bir qator shaxsiy fazilatlarning mavjudligi, bilim va ko'nikmalar zaxirasi deb hisoblagan.

Kompetentlik esa - bu mutaxassisning zarur kompetentsiyalar to'plamiga ega bo'lishidir.

L.M. Dolgova, P.V. Simonov va boshqalarning fikricha, kompetentlik – olingen bilimlarga asoslangan holda harakat qila olishlik demakdir. Namunalarga o'xhash harakatlarni ko'zda tutadigan "bilim, ko'nikma va malakalardan" farqli o'laroq, kompetentlik universal bilimlarga asoslangan holda mustaqil faoliyat tajribasini nazarda tutadi.

V.V. Bashevning ta'kidlashicha, kompetentliklar – insonning individual qobiliyati bo'lib, ular shartsharoitlar o'zgargan paytda ushbu qobiliyatning boshqa shartsharoitlarga ko'cha olishida namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, psixologik va pedagogik tadqiqotlarda "kompetentlik" tushunchasi juda noaniq ko'rib chiqiladi: harakat qilish qobiliyati sifatida; bilim, malaka, tajriba majmui sifatida; shaxsiy sifat sifatida; ijtimoiy-professional xususiyatlar; professionallik bilan sinonimdir va hokazo. Kompetentsiyani turlicha talqin qilish, birinchi navbatda, turli kasbiy sohalardagi mutaxassislар faoliyati tarkibida o'ziga xos xususiyatlar mavjudligi bilan bog'liq.

Rus psixoligi A.K. Markova o'qituvchi kasbiy kompetentligining asoslari bo'yicha eng ko'p ilmiy izlanishlar olib borgan pedagog olimdir. Uning qarashlarida qachonki keljak avlodni o'qitishda va tarbiyalashda pedagok yuqori natijalarga erishsa, shu holatdagina biz pedagokni kasbiy kompetentlikka ega bo'lgan o'qituvchi deb ayta olamiz. Uning fikricha, kompetentli o'qituvchi o'zining kasbiy bilimlarini, psixologik fazilatlarini o'z mehnatida qo'llashni bilishi kerak, deya ta'kidlaydi .

Ta'limning maqsadga muvofiq ravishda moslashtirilgan mazmuni va shakllari o'qitish vositalarini tanlashni belgilab beradi, ular esa, o'z navbatida, texnologiyalar tizimini samarali qo'llash uchun shart-sharoitlarni ta'minlaydi.

Kompetentli ijodkor pedagog o'z kasbining etuk ustasi – ustoz pedagog, ma'lum pedagogik mahoratga ega shaxs hisoblanadi. Pedagog barcha vaziyatlarda

ham o‘z faoliyatini muvaffaqiyatli olib borishi uchun doimiy ravishda o‘z bilim va mahoratini oshirib, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini, ilg‘or pedagogik tajribalarni, metod va usullarni muntazam o‘rganib, kasbiy-pedagogik ijodkorligini va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirib boradi. Ijodkorlikni rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash samarali natija beradi.

Demak, oliy ta’lim muassasasida kompetentlikka yo‘naltirilgan ta’lim shunday tashkil etilishi kerakki, talaba auditoriyadagi ta’lim vaqtida ham, auditoriyadan tashqaridagi vaqtarda ham ijodiy ish bilan mashg‘ul bo‘lishi va quyidagilarni bajara olishi lozim:

- muammoli vaziyatlarning echimini topa bilish;
- o‘z fikrini himoya qila olish va nostandard hayotiy va o‘quv vazifalarni hal etishda o‘zining nuqtai nazariga ega bo‘lish;
- o‘qish-o‘rganish va amaliy faoliyatda o‘zini namoyon qilishnin noan’anaviy usullarini doimiy ravishda egallab borish va h.

Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchisi kasbiy-pedagogik faoliyatini aniq bir maqsadga yo‘naltirishi va bu maqsadga erishish uchun quyidagi shartlarga rioya qilishi kerak.

1. O‘z bilimi va ko’nikmasini mustaqil oshirishda jismoniy tarbiya o‘qituvchisi mutaxassisligi bo‘yicha pedagogik amaliyot o‘tayotgan ta’lim muassasasining sportzal va maydonchalarini ta’lim oluvchilarga moslashtirishi kerak.

2. Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchisi ma’lum maqsad asosida va muayyan tartibda o‘zida quyidagi sifatlarni shakllantirib borishi kerak:

- o‘quvchilarning intilishlari, qiziqishlarini chuqur his qilish, tushunish, ularning ma’naviy ehtiyojlarini hisobga ola bilish;
- o‘quvchilar bilan emotsiyal aloqa o‘rnatish, ularning aqliy, axloqiy va amaliy faoliyati tomonlariga faol ta’sir etish.

3. Jismoniy tarbiya o‘qituvchisi umumiy pedagogika, psixologiya, yosh fiziologiyasi va gigienasi, anatomiya fanlari bo‘yicha ijodkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan savollar ro‘yxatini mustaqil o‘rganib chiqishlari shart.

4. Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchisi o‘zining pedagogik mahoratini oshirish ustida ishlash tizimining eng samarali usullari, yo‘llarini tanlab olishi, jismoniy faoliyatni va mashg‘ulotlarni olib borish joylarini to‘g‘ri tanlab faoliyat ko‘rsatishi kerak.

Taom iste’mol qilgach, minnatdorchilik bildirib, rahmat aytish ham qariyb barcha millatlarga xos. G‘.X.Rahimovning ma’lumot berishicha, bunday vaziyatda ruslar, ruminlar, nemislар va boshqa yevropaliklar “Rahmat” so‘zini bevosita qo‘llasalar, fransuzlar “boshqa biror narsani” aytishni ma’qul ko‘rishadi. [3;157] Olimning fikriga ko‘ra, o‘zbeklar va boshqa islam madaniyati vakillari bu holatda “Xudoga shukur” kalimasini aytishni o‘rinli deb bilishadi. Bu holat hurmatni bildiruvchi iboralarning tarixan sehrli duo, iltijolarga borib taqalishining yana bir isbotidir.

Darhaqiqat, ovqatdan so‘ng ayttiluvchi “Xudoga shukur” modal iborasi Olloh tomonidan mana shu rizq berilganiga shukur keltirishni anglatadi.

Anglashiladiki, minnatdorlik hissini bildirishda Ollohga nisbatan shukur, insonga nisbatan esa rahmat modallari qo‘llanadi.

Ingliz tili egalari taom tanovvul qilgach, o‘z minnatdorchiliklarini, asosan, “Ovqat uchun rahmat, azizam!” ifodasi orqali ma’lum qilishadi. Lekin o‘zbek oilalari berilgan taom uchun minnatdorlik hissini “Ovqat shirin chiqibdi, qo‘llaringiz dard ko‘rmasin”, “Ovqat mazali bo‘libdi, mazza qildik” kabi ifodalar orqali bildirishni afzal ko‘rishadi. Bu kabi kalimalar ko‘pincha ovqat tayyorlagan uy bekalariga, kelinlarga qarata aytildi. O‘zbek oilalarida ovqatga berilgan mana shunday ijobiy baho minnatdorlik ifodasini anglatadi. Nafaqat taom iste’mol qilingandan so‘ng, balki boshqa vaziyatlarda ham minnatdorlik ifodalashning mana shunday qoliplashgan shakllaridan foydalanish o‘zbeklar nutqiga xos xususiyatlardan biri sanaladi.

Boshqa til egalaridan farqli o‘laroq, o‘zbek muloqot madaniyatida biror holatni inkor etishda rahmat modal so‘zini qo‘llash ham millatimiz qadriyatlaridan biridir. Chunki bunday inkor javob replikasi o‘zbeklarning milliy madaniyatida hurmat, andisha kabilarni ifodalaydi. Aytish joizki, “..xulq-atvor, odob, tartibli xatti-harakat, insoniy muomala qoidalari va tamoyillari majmuidir. Aynan ana shu sifatlarning turmushda qo‘llanish jarayonlarida axloqning o‘ziga xos tarkibiy

o‘lchamlari ro‘yobga chiqadi. Bular: yaxshilik, burch, vijdon, or-nomus, sabr, farosat, kamtarlik, andisha kabilardir” [4;264]. Quyidagi matnga e’tibor qaratamz:

- Uyga kiramizmi? – dedi Mirfayoz. – Kooot-ta bog‘im bor. Ko‘rasiz.

Polvon kulimsirab:

- Rahmat, - dedi. – Nasib qilsa, yaxshi kunlarda bog‘ingizni ko‘ramiz. (N.Qilich. “Chig‘iriq”)

Ushbu parchada qahramon so‘zlovchining taklifini rad etish maqsadida “Rahmat” modal so‘z-gapini qo‘llagan. Boshqacha qilib aytganda, nutq egasi Suxbatdoshining taklifiga “yo‘q, uyingizga hozir kira olmayman” deb emas, balki “Rahmat” modali bilan ifoda etgan. Rus tili nutqiy muloqotida ham rahmat modal so‘zi orqali inkor ma’noni ko‘rishimiz mumkin:

Ingliz tili egalari nutqida esa raddiyaning No, inkor ifodasi va unga qo‘shimcha tarzda Thank you (Thanks), (No, thanks) yordamida ifoda etilishi kuzatiladi. [5] Masalan:

Ingliz tilida: “You must be tired, do you want some coffee?” Roden said.

“No, thank you.”

“Water?”

“No.” ( “Chachabsiz shekilli, biroz kofe ichasizm?” dedi Roden. “Yo‘q, rahmat.” “Suvchi?” “ Yo‘q”) (Th.Harris. “The silence of the lambs”) Bu dialogda kofeni rad etishda No, thank you ifodasi qo‘llangan bo‘lsa, suvni rad etishda esa to‘g‘idan to‘g‘ri No inkor ifodasi ishlataligan.

XULOSA. Minnatdorlik hissi va uning ifodasi insonning eng yuksak ma’naviy fazilatlaridan biri bo‘lib, u insonlar o‘rtasida samimiyl aloqalarni mustahkamlaydi va jamiyatda ijobiy muhit yaratishga xizmat qiladi. O‘zbek va ingliz tillarida minnatdorlikni ifoda etilishi, o‘ziga xos va rang-barang shakllarda namoyon bo‘lishi uning butun insoniyat uchun qadrli va umumiy qadriyat ekanini ko‘rsatadi..

### Adabiyotlar

- Маслова В.А. Лингвокультурология. — М.: Издательский центр «Академия», 2001. — 208с.
- Жалолова Ф.Н. “Ўгай она” концептининг лингвомаданий талқини (инглиз ва ўзбек халқ эртаклари мисолида): филол.фенлари бўйича фалс.док. (PhD) дисс.автореф. Тошкент-2023. – 26 б.
- Рахимов F.X. Инглиз тилининг Ўзбекистонда тарқалиши (Социолингвистик ва прагматик жиҳатлари): Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2018. – Б. 157.

4. Юсубов Д.А. Фалсаф:Дарслик / Д.А. Юсубов, Х.Б., Сайтходжаев, А.А Мавлянов. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2012. – Б. 264.
5. Каримова З. Ўзбек ва инглиз тилларида сўз-гапларнинг социопрагматик хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалс. док. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2021. –140 б.

## **SOVET HOKIMIYATI DAVRIDA SURXON VOHASIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI KOLLEKTIVLASHTIRISH JARAYONI VA UNING OQIBATLARI**

*Bozorov Muhiddin  
Denov, O’zbekiston*

**Kalit so‘zlar:** Sovet hokimiyati, Surxon vohasi, kollektivlashtirish, qishloq xo‘jaligi, qo‘shma xo‘jalik (kolxoz), davlat xo‘jaligi (sovxozi), repressiyalar, majburiy mehnat

Muammo. Sovet hokimiyati davrida qishloq xo‘jaligini kollektivlashtirish siyosati barcha ittifoq hududlarida, jumladan, Surxon vohasida ham amalga oshirildi. Bu jarayon dehqonlarning ijtimoiy-iqtisodiy holatiga qanday ta’sir ko‘rsatdi? Kollektivlashtirishning qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga qanday natijalar keltirdi va uning mahalliy aholiga bo‘lgan ta’siri qanday bo‘ldi?

Maqsad. Sovet davrida Surxon vohasida amalga oshirilgan kollektivlashtirish jarayonini o‘rganish, uning qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga va aholi turmush tarziga ta’sirini aniqlash. Shuningdek, kollektivlashtirishning uzoq muddatli ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik oqibatlarini tahlil qilish.

Metod. Bu tezisda tarixiy tahlil va solishtirma metoddan foydalанилди. Kollektivlashtirish jarayoni haqida mavjud tarixiy hujjatlar, arxiv materiallari, davr matbuotidagi materiallar va boshqa manbalar tahlil qilinadi. Shuningdek, kollektivlashtirishning ijtimoiy-iqtisodiy ta’sirini aniqlash uchun Surxon vohasidagi mahalliy aholi xotiralariga tayaniladi.

Kollektivlashtirish jarayonining boshlanishi va Surxon vohasidagi yondashuv. Sovet hokimiyati tomonidan amalga oshirilgan kollektivlashtirish siyosati 1929-yilda boshlandi. Ushbu siyosatning asosiy maqsadi qishloq xo‘jaligini markazlashtirish, ishlab chiqarishni samarali boshqarish va mehnatni tashkil qilishdan iborat edi. Kollektivlashtirishning boshlanishi barcha ittifoq hududlarida, shu jumladan Surxon vohasida ham keskin va tezkor tarzda amalga oshirildi.

Surxon vohasi, o‘zining qishloq xo‘jaligi salohiyati bilan taniqli edi. Vohada asosan paxtachilik, chorvachilik va g‘alla ekinlari yetishtirilgan. Kollektivlashtirish jarayonining birinchi bosqichi yerkarni kollektivlashtirishni, ya’ni yerkarni

o‘zlashtirish va uni kolxozlar va sovxozi tashkil qilishga yo‘naltirishni o‘z ichiga oldi. Bu davrda vohada ko‘plab kolxozlar va sovxozi tashkil etildi. Kollektivlashtirishning o‘ziga xos xususiyati shundaki, u yerlar va mulklarni musodara qilishni ham o‘z ichiga oldi. "Kulak" deb atalgan boy dehqonlar sinfi kiritildi, ularning yer va mulklari davlat tomonidan tortib olindi.<sup>42</sup>

Kollektivlashtirish jarayoni, asosan, yer va mulklarni davlatlashtirishni o‘z ichiga olganligi sababli, dehqonlarning iqtisodiy mustaqilligi zaiflashdi. Sovet hukumati o‘zining iqtisodiy va siyosiy strategiyasiga ko‘ra, kolxozlar orqali markazlashtirilgan boshqaruvni amalga oshirishi kerak edi. Biroq, bu jarayon mahalliy dehqonlar uchun og‘ir sinovga aylandi.

Sovet hokimiyati tomonidan kollektivlashtirish jarayonida "kulak" deb atalgan dehqonlar sinfi hal qilindi. Kulaklar, ya’ni boy dehqonlar, ularning yer va mulklari musodara qilindi. Bu jarayonning ijtimoiy oqibatlari juda katta bo‘ldi. Boshqa sinfga mansub dehqonlar ham xuddi shu tarzda yerlarini yo‘qotdilar. Ijtimoiy tarmoqda jiddiy sinfiy ajratishlar yuzaga keldi. Kollektivlashtirish jarayonida ko‘plab oilalar ko‘chishga majbur bo‘ldi, ba’zi hollarda esa qarshiliklar keltirib chiqdi. Dehqonlar yerlarini tark etib, yangi tuzilgan kolxozlarga ko‘chishga majbur bo‘ldi.

Surxon vohasida bu jarayonning ijtimoiy oqibatlari o‘ta dolzarb bo‘ldi. Ko‘plab dehqonlar, ayniqsa, boylar va yer egalari, yangi kolxozi tizimiga qo‘shilishdan bosh tortdi. Shuningdek, kollektivlashtirish jarayonida dehqonlarning erkinligi cheklangan, ular mehnatni kollektiv asosda bajarishga majbur bo‘lgan. Mahalliy aholining qarshiliklari va noroziliklari, shuningdek, qarshi chiqishlar vohanining ba’zi hududlarida to‘qnashuvlarga olib keldi.

Kollektivlashtirish jarayonining iqtisodiy oqibatlari Surxon vohasida ham sezilarli darajada o‘zgarishlarga olib keldi. Sovet hukumati kollektiv xo‘jaliklarni tashkil qilish orqali qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini markazlashtirishni maqsad qilgan edi. Kolxozlar va sovxozi tashkil etilishi qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini bir tizimga solishga imkon berdi.

Paxtachilik Surxon vohasida asosiy iqtisodiy tarmoq sifatida rivojlanishga kirishdi. Kolxozlar paxta yetishtirishni maqsad qilgan holda, bu boradagi texnologik jarayonlarni takomillashtirishga harakat qilishdi. Sug‘orish tizimlari yaxshilandi, yangi kanallar qurildi va yerlar zamonaviylashtirildi. Biroq, bu jarayonning salbiy oqibatlari ham mavjud edi. Paxtachilikka bo‘lgan ortiqcha

<sup>42</sup> Shukurov, R. (1993). Surxon vohasida paxtachilik va kollektivlashtirish — Tashkent: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi nashriyoti, 1993.

e'tibor, boshqa tarmoqlarga zarba berdi. Shuningdek, paxtaning ko'payishi yerlarning sho'rlanishiga olib keldi, tuproqning unumdorligi pasayib ketdi.<sup>43</sup>

Bundan tashqari, kollektivlashtirish jarayoni mehnat resurslarini markazlashtirishi va kollektiv ishlashni joriy etishi iqtisodiy zaifliklarni kuchaytirdi. Kollektiv ishlashning boshqaruv tizimi samaradorligini ta'minlashda qiyinchiliklar yuzaga keldi. Kolxozlar va sovxoziyorlari tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar ko'p hollarda markazlashgan tizimda o'z vaqtida va sifatli ishlov berilmadi, bu esa iqtisodiy zaifliklarga olib keldi.

Xulosa. Sovet hokimiysi davrida Surxon vohasida amalga oshirilgan kollektivlashtirish jarayoni qishloq xo'jaligini markazlashtirishga qaratilgan bo'lsa-da, uning ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik oqibatlari uzoq muddatli salbiy ta'sirlarni keltirib chiqardi. Kollektivlashtirish jarayonining boshlanishi qishloq aholisi uchun ijtimoiy qarshiliklar va sinfiy ziddiyatlarni kuchaytirdi. Kolxozlar tashkil etilishi va paxtachilikka e'tibor qaratilishi yerlarning sho'rlanishi va tuproqning salomatligiga zarar yetkazdi. Biroq, kollektivlashtirishning samarali tashkil etilgan tizimi orqali qishloq xo'jaligi ishlab chiqarilishi markazlashtirildi va paxtachilik rivojlantirildi.

Ushbu jarayonlar, ayniqsa, ekologik muammolar va iqtisodiy zaifliklar nuqtai nazaridan o'rganilishi zarur bo'lgan tarixiy hodisalardir. Bu tajriba keyingi avlodlarga ekologik muammolarni hal qilishda, qishloq xo'jaligini barqaror ravishda rivojlantirishda o'z saboqlarini beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Aminov, A. (2000). Sovet davrida qishloq xo'jaligi va kollektivlashtirish jarayoni — Toshkent: Fan, 2000.
2. Vahidov, T. (1987). Sovet O'zbekistonida qishloq xo'jaligi islohotlari — Toshkent: O'zbekiston davlat nashriyoti, 1987.
3. Shukurov, R. (1993). Surxon vohasida paxtachilik va kollektivlashtirish — Tashkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi nashriyoti, 1993.
4. Zaripov, M. (2001). Sovet davrida yer va mulkni musodara qilish: Tarixiy-tahliliy yondashuv — Toshkent: Universitet nashriyoti, 2001.
5. Aminov, B. (2005). Sovet O'zbekistonida ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar: 1920-1950 yillar — Toshkent: Sharq, 2005.
6. Alimov, S. (1992). Sovet davri tarixi va kollektivlashtirish — Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi nashriyoti, 1992.

<sup>43</sup> O'zbekiston SSRning paxta sanoati tarixiy yilliklari (1917-1991) — Toshkent: O'zbekiston Respublikasi paxta sanoati nashriyoti, 1992.

7. Davlatov, A. (2010). Surxon vohasidagi kolxoz tizimi: Xususiyatlar va muammolar — Toshkent: O‘zbekiston davlat iqtisodiy universiteti nashriyoti, 2010.
8. O‘zbekiston SSRning paxta sanoati tarixiy yilliklari (1917–1991) — Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi paxta sanoati nashriyoti, 1992.
9. Ilyasov, Z. (1994). Kollektivlashtirish jarayoni va uning oqibatlari — Moskva: O‘zbekiston va Rossiya tarixiy nashriyoti, 1994.

## SAYYID BURHONIDDIN TERMIZIYNING PEDAGOGIK QARASHLARI

*Abdunabiyev Sunnat Ne’mat o’g’li  
Termiz davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Sayyid Burhoniddin Termiziyning pedagogik qarashlari, alloma qalamiga mansub “Maorif” asarining mazmun-mohiyati, undagi axloqiy, ma’naviy va ruhiy tarbiya g’oyalari tahlil qilinadi. Asar yoshlar ongini shakllantirishda, ularni ma’rifatga, tafakkurga, ilmlilik va kamtarlikka undashda muhim manba sifatida qaraladi. Tadqiqotda Sayyid Burhoniddin Termiziy tafakkurining so’fiyona-ma’naviy jihatlari orqali bugungi yoshlar tarbiyasiga qanday amaliy yondashuvlar olib kirish mumkinligi o’rganiladi. Shuningdek, “Maorif” asaridagi tarbiyaviy g’oyalarning zamonaviy ta’lim jarayonida qo’llanish imkoniyatlari ko’rib chiqiladi. Maqola yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish va tarbiyaviy tizimni boyitish borasida qadimiy manbalar asosida innovatsion yondashuvlarni shakllantirishga qaratilgan.

**Kalit so’zlar:** Sayyid Burhoniddin Termiziy, “Maorif”, yoshlar tarbiyasi, ma’naviy-axloqiy tarbiya, so’fiylik, ta’limiy meros, ruhiy tarbiya, ilm-ma’rifat, ma’naviyat, tarbiyaviy yondashuvlar.

Tarbiya – bu shaxsni kamolga yetkazuvchi uzlusiz va murakkab jarayondir. U jamiyat taraqqiyotining bosh omili hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, islom sivilizatsiyasi tarixida faoliyat ko’rsatgan mutafakkirlarning asarlari, ayniqsa, tasavvuf muktabi vakillarining ruhiy tarbiyaga oid qarashlari bugungi kunda ham dolzarb ahamiyatga egadir. Ana shunday allomalardan biri Sayyid Burhoniddin Termiziy (1165–1241) bo’lib, u o’zining “Maorif” asari orqali nafaqat tasavvuf, balki Sharq pedagogikasining rivojiga ham katta hissa qo’shgan.

Sayyid Burhoniddin Termiziy tasavvufda “Muhaqqiq”, “Orif”, “Sayyidi sirdon” kabi nomlar bilan e’zozlanadi. U Sultonul ulamo Bahouddin Valadning ma’naviy shogirdi va Jaloliddin Rumiyning ustozи sifatida tanilgan. Sayyid Burhoniddin Termiziyning pedagogik faoliyati avvalo ustoz-shogird

munosabatlari, ruhiy tarbiya va inson kamolotiga bag'ishlangan g'oyalari bilan alohida ahamiyatga ega.

"Maorif" asari shaklan irfoniy tafakkur asosida yozilgan bo'lsa-da, mazmunan pedagogik jarayonning barcha bosqichlarini qamrab olgan. Asardagi asosiy mavzular quyidagilardan iborat:

Ilm o'rganish odobi – bilimni ixlos bilan talqin qilish va amaliy foydasiga e'tibor;

Ustoz-shogird munosabatlari – ma'naviy yetakchilik va tarbiya jarayonidagi shaxsiy namuna;

Qalbni va jismni poklash – ichki va tashqi tarbiyaning uyg'unligi;

Muomala va axloq – jamiyatda insoniy munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yish;

Nafsni mag'lub etish – shaxsiy intizom, iroda.

Asarda bu mazmunlar tasavvufiy tarbiya modelidagi to'rt maqom – shariat, tariqat, ma'rifat, haqiqat konsepsiylariga bog'liq holda bayon etilgan.

"Maorif" asari nafaqat tasavvufiy irfon, balki Sharq pedagogikasining amaliyotga yo'naltirilgan modelidir. Unga xos tarbiyaviy metodlar – zamonaviy axloqiy, ruhiy va ma'naviy ta'limning asosiy komponentlari bilan chambarchas bog'liq. Shu sababli, mazkur asar talabalar uchun ham nazariy, ham amaliy qimmatga egadir. Ushbu asar tasavvuf falsafasi va ta'limoti bilan bog'liq bo'lib, insonni nafaqat ilmiy, balki ruhiy va axloqiy jihatdan tarbiyalashga qaratilgan ko'plab pedagogik prinsiplarga ega.

Maorif asarining eng muhim xususiyatlaridan biri — uning qisqa va o'zgacha uslubda yozilganligidir. Har bir jumla o'zining mazmuni bilan alohida bir mavzuni o'z ichiga olib, uzun va murakkab ifodalardan qochadi. Bu asarni o'quvchiga to'g'ridan-to'g'ri va samarali tarzda taqdim etishga imkon beradi. Tarbiya jarayonida qisqa, aniq va oson qabul qilinadigan iboralarning qo'llanilishi, pedagogik nuqtai nazardan juda muhim ahamiyatga ega. Bu uslub, talabalarning tez va samarali tushunishiga yordam beradi va ularga muayyan masalalarni teranroq anglash imkonini beradi.

Asar, nafaqat ilmiy bilimlarni, balki insonning ruhiy va axloqiy tarbiyasiga ham katta e'tibor qaratadi. Alloma ilohiy bilimlar orqali insonni axloqiy fazilatlar bilan tarbiyalashga intiladi. O'quvchilarga o'z ichki olamini anglash, nafsni tozalash orqali ruhiy yuksalishning yo'lini ko'rsatadi. Bu pedagogik usul o'qituvchilarning faqat ilmiy bilimlarni berish emas, balki o'quvchilarning ruhiy o'sishini ta'minlash zarurligini anglatadi.

Maorifda har bir mavzu o'ziga xos chiroyli misollar bilan tushuntiriladi. Bu, o'quvchilarni mavzuni chuqurroq anglashga undaydi va ularga ta'limni yanada yengillashtiradi. Misollar orqali ta'lim berish, pedagogik usul sifatida juda samarali

bo'lib, o'quvchilarning diqqatini jalb qilish va mavzuni o'zlashtirishni osonlashtirishda katta rol o'ynaydi. Shuningdek, misollar orqali o'quvchilarni tafakkur qilishga va o'z fikrlarini shakllantirishga undaydi.

Sayyid Burhoniddin Termiziy ta'limotida suhbat va muloqot ta'lim berishning eng samarali usullaridan biri sifatida ko'rsatiladi. Suhbat davomida muhokama qilingan mavzular o'quvchilarning tafakkurini shakllantirishga yordam beradi va ularni haqiqiy ilm olishga undaydi. Bu pedagogik usul o'quvchilarning faol ishtirokini talab qiladi va ularni to'g'ridan-to'g'ri ta'lim jarayoniga jalb qiladi.

"Maorif" asarida Sayyid Burhoniddin inson kamoloti, nafsni isloh qilish, qalb pokligi, ilmni nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan singdirish zarurati haqida ta'lim beradi. Asardagi ruhiy tarbiya usullari — muroqaba, zikr, nafsni mushohada qilish kabi amallar bevosita insonni komillik sari boshqaradigan tarbiyaviy mexanizmlar sifatida talqin qilinishi mumkin.

Jaloliddin Rumiyning "Fiyhi mo fiyhi" asarida ustozi Burhoniddin Muhaqqiq Termiziyning fikriy ta'siri katta. Asarning uslubi va mazmuni "Maorif" bilan irfoniy-ma'rifiy bog'liqlikni yaqqol namoyon qiladi. Bu bog'liqlik ustoz-shogird munosabatlari orqali pedagogik merosning avloddan avlodga o'tishida qanday ulkan o'rincini namoyon etadi.

Allomaning "Maorif" asari pedagogika tarixida inson qalbi va axloqiy tarbiyani markazga qo'ygan ta'lim konsepsiyasining mukammal namunasidir. Undagi ruhiy-axloqiy g'oyalar, ustoz-shogird an'analari, irfonni bilim va amal asosida talqin etish yo'naliishlari zamonaviy pedagogik texnologiyalar uchun boy ilmiy-ma'naviy manba bo'lib xizmat qilishi mumkin. Shu bois, mazkur asar va uning tarixi pedagogika fanining ma'naviy merosiga tayangan ilmiy tahlillarida alohida o'rganilishi lozim.

Sayyid Burhoniddin Termiziyning "Maorif" asarida keltirilgan ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarning pedagogik jihatlarini tahlil qilish pedagogika tarixida muhim hisoblanadi. Sayyid Burhoniddin Termiziy tasavvufiy qarashlarni ta'lim metodikasi jarayonlariga qo'llab, nafaqat aqliy bilimlarni, balki ruhiy va ma'naviy poklanishni ham o'rgatishni muhim deb biladi. Uning qarashlari, pedagogikada faqat tashqi bilimlarni emas, balki ichki dunyo va ruhiy yetuklikni ham rivojlantirishga e'tibor qaratish zarurligini ta'kidlaydi.

Allomaning ta'limiy qarashlarida bilim, faqat tashqi va dunyoviy ma'lumotlar to'plami sifatida ko'rilmaydi. U ilmni, nafsni poklash va ilohiy haqiqatlarga yetishish yo'lidagi vosita sifatida qaraydi. Bu pedagogik nuqtai nazardan, ta'limda faqat aqliy bilimlarni emas, balki talaba shaxsining ruhiy va ma'naviy poklanish jarayonini ham hisobga olishni anglatadi. Ya'ni, ta'lim faqat talaba uchun tashqi bilimlarni o'rgatish emas, balki uning ichki dunyosini shakllantirishni ham o'z

ichiga olishi kerak. Bu tasavvufiy qarashlar, pedagogika tarixida muhim qo'shimcha kiritadi.

Sayyid Burhoniddin Termiziy ta'limni faqat tashqi bilimlar bilan chegaralashni rad etadi va haqiqiy bilimga erishish uchun nafsnı poklashni, ya'ni o'zini bilishni va ilohiy muhabbatni tushunishni muhim deb biladi. Bu pedagogik yondashuv, talaba shaxsining ruhiy va ma'naviy salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan, barcha ta'lim tizimlarida muhim bo'lgan aspektidir. Shuning uchun, ta'limda ma'naviyat va ichki o'zgarishlarni hisobga olish nafaqat bilishning o'zi, balki shaxsiy o'zgarish va etika ham o'rgatilishi kerak.

Mutafakkir qarashlari pedagogika tarixida yangi bir ta'lim maqsadining asoslarini qo'yadi. U ilmni faqat ma'lumotlarning yig'indisi sifatida emas, balki insonning ruhiy va ma'naviy poklanishiga erishish vositasi sifatida ko'radi. Ta'limning asosiy maqsadi faqat bilim o'rgatish emas, balki o'quvchini o'zining ruhiy poklanishiga erishishga yo'naltirishdir.

Umuman aytganda, allomaning ta'limiy qarashlari pedagogika tarixida ruhiyatga asoslangan ta'lim tizimlarining rivojiga ta'sir ko'rsatgan. Uning fikrlari, ayniqsa, XIX-XX asrlarda tasavvuf pedagogikasi va ma'naviy tarbiya bilan shug'ullangan pedagoglar uchun yangi istiqbollar yaratdi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abdülbâki Gölpinarlı, Mevlânâ Celâleddin, İstanbul 1952, s. 44-48.
2. Ahmad Aflokiy. Manoqibul orifin. Tahsin Yaziji tarjimasi. – Istanbul. 1989.
3. Davlatshoh. Tazkira. Najotiy Lugal tarjimasi. – Istanbul. 1977. – B. 249.
4. Faridun Sipohsolor. Risola: Mavlono va atrofidagilar. Tahsin Yaziji tarjimasi. – Istanbul, 1977. – B. 117–120.
5. Mavlono Jaloliddin Rumiy. Fihi ma fihi Ahmad Avni Konuk tarjimasi. – Istanbul. 1994.
6. Necîb Mâyil-i Herevî, "Burhân-ı Muhaqqîk", DMBİ, XII, 59-61.
7. Sulton Valad. Ibtidonomâ. Abdulboqi Gulpinorli tarjimasi. – Anqara. 1976.

## TALABALARНИ О`QITISHDA STEAM TA`LIMINI QO`LLANILISHI

*Abdurahmonova Muxayyoxon Abdurahimovna  
Qo`qon universiteti Andijon filiali  
Klinik fanlar kafedrasи katta o`qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada zamonaviy ta`limda keng qo`llanilayotgan STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) ta`lim yondashuvining talabalarning bilim olish jarayoniga ta`siri tahlil qilinadi. STEAM modeli orqali talabalarning ijodiy fikrlash, muammolarni hal qilish ko`nikmalarini rivojlantirish, fanlararo integratsiyani ta`minlash imkoniyatlari yoritiladi. Shuningdek, maqolada STEAM yondashuvining amaliy jihatlari, uni o`quv jarayoniga joriy etish usullari va pedagogik samaradorligi haqida fikr yuritiladi. Tadqiqot natijalari talimda innovatsion yondashuvlardan foydalanishning dolzarbligini ko`rsatadi.

**Kalit so`zlar:** STEAM ta`limi, integratsiyalashgan yondashuv, innovatsion pedagogika, talaba faoliyati, fanlararo aloqadorlik, kreativ fikrlash, muammoli o`qitish.

Hozirgi davrda ta`lim tizimining asosiy vazifalaridan biri — talabalarda zamonaviy dunyoqarash, tanqidiy va kreativ fikrlash, fanlararo bilimlarni uyg`unlashtira olish ko`nikmalarini shakllantirishdan iborat. Ana shu maqsadga erishishda innovatsion yondashuvlardan biri bo`lgan STEAM ta`limi muhim o`rin egallaydi. STEAM (Science — fan, Technology — texnologiya, Engineering — muhandislik, Art — san`at, Mathematics — matematika) modeli orqali o`quv jarayoniga kompleks yondashuv joriy etiladi va talabalarning nazariy bilimlarini amaliyot bilan bog`lash imkoniyati yaratiladi.

Ushbu yondashuv orqali talabalarning nafaqat fanlar bo`yicha bilimlari, balki mustaqil fikrashi, muammolarni hal qilishdagi yondashuvlari, jamoada ishlash qobiliyati ham rivojlanadi. Shuningdek, STEAM ta`limi bugungi tez o`zgaruvchan mehnat bozorida raqobatbardosh, ijtimoiy va texnologik jihatdan moslashuvchan mutaxassislarni tayyorlashda muhim vositaga aylangan.

Bugungi kunda ta`lim tizimida chuqur o`zgarishlar yuz bermoqda. An`anaviy o`qitish uslublari zamonaviy talablarni to`liq qondira olmayapti. Shu bois, innovatsion yondashuvlar, jumladan, STEAM ta`limi konsepsiysi keng joriy etilmoqda. Ushbu yondashuv fanlararo integratsiyani nazarda tutib, ilm-fan, texnologiya, muhandislik, san`at va matematikani uyg`un holda o`qitishga asoslanadi.

STEAM ta`limining asosiy maqsadi — talabalarda kreativ fikrlashni, muammolarni tahlil qilish va hal etish ko`nikmalarini, shuningdek, amaliy

loyihalarda ishtirok etish orqali o‘z bilimlarini real hayotda qo‘llay olishni shakllantirishdir. Bu yondashuv ayniqsa kasb-hunar ta’limi, muhandislik, axborot texnologiyalari, pedagogika va sog‘liqni saqlash kabi sohalarda muhim ahamiyatga ega.

### STEAM ta’limining asosiy jihatlari:

1) Fanlararo integratsiya: STEAM ta’limi talabalarga bir vaqtning o‘zida bir nechta fanlar doirasida fikrlashni o‘rgatadi. Masalan, biologik jarayonni o‘rganish bilan bir qatorda unga tegishli matematik modellash, texnologik vositalar yordamida tahlil qilish va vizual taqdim etish ko‘nikmalari ham shakllanadi.

2) Ijodkorlik va kreativlik: “Art” komponenti orqali talabalar ijodkorlikka undaladi. Bu esa ularning muammoga yangicha yondashuv topish, loyihalash va taqdim etishdagi ishtirokini oshiradi.

3) Amaliyotga yo‘naltirilgan yondashuv: Talabalar laboratoriya ishlari, guruhli loyihalar, muammoli vaziyatlar tahlili orqali o‘z bilimlarini mustahkamlashadi. Bu esa nazariy bilimlarning real hayot bilan uyg‘unlashuvini ta’minlaydi.

4) Raqamli savodxonlik: Texnologik vositalardan foydalanish talabalarda IT ko‘nikmalarini, zamonaviy dasturlash va tahlil qilish usullarini egallashga yordam beradi.

STEAM ta’limini joriy etish o‘qituvchilardan ham yangi metodik yondashuvlarni talab qiladi. Jumladan, loyihaviy o‘qitish, dizayn-o‘ylash (design thinking), kollegial tahlil, kross-fanli seminarlar kabi faol metodlar qo‘llaniladi.

Shuningdek, talabalar bilan o‘tkazilgan amaliy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, STEAM asosidagi ta’lim ularda o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshiradi, bilimga bo‘lgan qiziqishni kuchaytiradi va jamoaviy ishlashga tayyorlaydi.

Zamonaviy tibbiy ta’lim, xususan stomatologiya yo‘nalishida STEAM ta’lim yondashuvini qo‘llash talabalarda kompleks fikrlashni shakllantirish, nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg‘unlashtirish, kreativ yechimlar ishlab chiqish va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Stomatologik fanlar — anatomiya, fiziologiya, biomaterialshunoslik, protezlash texnologiyasi, ortodontiya, xirurgik stomatologiya kabi fanlarni STEAM tamoyillari asosida integratsiyalab o‘qitish orqali o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish mumkin.

### STEAM yondashuvining stomatologiyada qo‘llanishi:

#### 1) Science (Ilm-fan):

- Stomatologiyada anatomiya, histologiya, fiziologiya kabi fanlar asosida organizm tuzilishi va funksiyasini chuqr o‘rgatish orqali talabalarda ilmiy dunyoqarash shakllanadi.

- Ilmiy-tadqiqot metodlari yordamida kasalliklarni o‘rganish, statistik tahlil qilish va xulosalar chiqarish ko‘nikmalari rivojlanadi.

2) Technology (Texnologiya):

- Raqamli stomatologiya vositalari (CAD/CAM tizimlari, 3D-printerlar, intraoral skanerlar)ni o‘rgatish orqali talabalarda texnologik savodxonlik shakllanadi.
- Simulyatsion treninglar va virtual reallik texnologiyalari yordamida amaliy ko‘nikmalar mustahkamlanadi.

3) Engineering (Muhandislik):

- Protezlar, apparatlar va stomatologik moslamalarning tuzilishi, ishslash mexanizmini o‘rganish orqali talabalarining muhandislik asosidagi tahliliy fikrlashi rivojlanadi.
- Biomexanika asosida chaynash bosimlari, yuklama taqsimoti kabi muammolarni muhandislik yondashuvi bilan hal qilish o‘rgatiladi.

4) Art (San’at):

- Tish shakli, rangini qayta tiklashda estetikani hisobga olish — stomatologiyada ijodkorlik va badiiy didni talab etadi.
- Vizual dizayn ko‘nikmalari (rassomlik, model yasash) estetik restavratsiya va protezlashda muhim rol o‘ynaydi.

5) Mathematics (Matematika):

- O‘lchovlar, proporsiyalar, biometrik hisob-kitoblar, 3D model parametrлari bilan ishslash orqali matematik tafakkur rivojlanadi.
- Diagnostik ma’lumotlarni tahlil qilish, o‘lchov asboblaridan foydalanish, sonli qiymatlarni tahlil qilish amaliyotda keng qo‘llaniladi.

Amaliy tatbiq va metodik yondashuvlar:

Talabalarga real klinik holatlarda loyiha asosida ishslash imkoniyati beriladi: masalan, bemor uchun individual protez yoki ortodontik moslama ishlab chiqish loyihasi.

Multidisiplinar seminarlar tashkil qilinadi — bunda fiziolog, biomaterialshunos va ortodont ishtirokida muammoni turli nuqtai nazardan muhokama qilish o‘rgatiladi.

3D modellashtirish mashg‘ulotlari orqali talabalar tish strukturasi, protez dizayni va o‘sma joylashuvlarini vizual modellashtiradi.

Natijada STEAM asosidagi yondashuv stomatologiya yo‘nalishidagi talabalarning:

kasbiy kompetensiyalarini,  
innovatsion fikrlash salohiyatini,

amaliyotga tayyorlik darajasini keskin oshiradi va ularni keljakda raqobatbardosh mutaxassis etib yetishtirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, stomatologiya yo‘nalishida STEAM ta’limini joriy etish talabalarning kasbiy tayyorgarligini oshirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Bu yondashuv fanlararo bog‘liqlikni ta’minlab, nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko‘nikmalarni ham chuqur egallash imkonini beradi.

STEAM modeli orqali talabalar ilmiy-tahliliy fikrlash, texnologiyadan foydalanish, muhandislik asosida dizayn yaratish, estetik qarashni rivojlantirish va matematik asosda aniq hisob-kitoblar olib borishni o‘rganadilar. Ayniqsa, zamonaviy stomatologiyada zarur bo‘lgan estetik tahlil, 3D modellashtirish, individual protez va apparatlar ishlab chiqish kabi amaliy mashg‘ulotlar STEAM tamoyillariga asoslangan holda samarali tashkil etiladi. Shu boisdan, stomatologik ta’limda STEAM yondashuvini keng tatbiq etish — zamonaviy, innovatsion fikrlaydigan, ko‘p yo‘nalishli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashda muhim omil hisoblanadi. Keljakda ushbu yondashuvni yanada takomillashtirish va o‘qituvchilarni STEAM asosidagi metodikalarga tayyorlash dolzarb vazifalardan biridir.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nishonov S.N., & Qodirova, M. S. (2022). Zamonaviy ta’limda STEAM yondashuvi: Nazariya va amaliyot. Toshkent: Fan va texnologiya.
2. Yakubov B.Sh. (2021). Tibbiy ta’limda integratsiyalashgan yondashuvlar. Andijon davlat tibbiyot instituti ilmiy jurnali, 3(12), 45–52.
3. Ozodova N.M. (2023). Stomatologiya ta’limida raqamli texnologiyalarning o‘rni va ahamiyati. "Tibbiyot va innovatsiyalar" jurnali, 5(2), 60–66.
4. Beers S.Z. (2011). 21st Century Skills: Preparing Students for a Changing World. Solution Tree Press.
5. Güven B., & Yildiz A. (2019). The Effect of STEAM Activities on Academic Achievement and Attitudes Toward Science. International Journal of Science Education, 41(7), 965–981.
6. World Dental Federation (FDI). (2022). FDI Vision 2030: Delivering Optimal Oral Health for All. Geneva.
7. Solodovnikova O.V. (2020). Primenenie tekhnologiy STEAM v professional’noy podgotovke studentov meditsinskogo vuza. Vestnik sovremennoy nauki, 6(48), 89–94.

## STOMATOLOGIYA FANLARIGA STEAM TA'LIMIY YONDASHUVNING AHAMIYATI

*Abdurahmonova Muxayyoxon Abdurahimovna  
Qo`qon universiteti Andijon filiali  
Klinik fanlar kafedrasi katta o`qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada stomatologiya fanlariga zamonaviy STEAM ta'lifi yondashuvini tatbiq etishning dolzarbliji, afzalliklari va pedagogik samaradorligi tahlil qilinadi. STEAM modeli orqali talabalar nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog'lab, fanlararo integratsiya asosida chuqurroq o'zlashtirishga erishadilar. Ayniqsa, stomatologiyada anatomiya, biomaterialshunoslik, ortodontiya, protezlash va estetik restavratsiya kabi fanlarda texnologik savodxonlik, muhandislik fikrlashi va badiiy-estetik yondashuvning uyg'unligi muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada stomatologik ta'lim jarayonida STEAM asosidagi loyihaviy o'qitish, 3D modellashtirish, simulyatsion mashg'ulotlar va kreativ dizaynnning o'rni yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** stomatologik ta'lim, STEAM ta'limi, fanlararo integratsiya, 3D modellashtirish, innovatsion pedagogika, texnologik ko'nikmalar, estetik restavratsiya, amaliy o'qitish, kreativ yondashuv.

Zamonaviy ta'lim tizimi doimiy ravishda yangi metodik va pedagogik yondashuvlarga talab qilar ekan, STEAM ta'limi (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) so'nggi yillarda o'zining samaradorligi bilan e'tiborni tortmoqda. STEAM modeli fanlararo integratsiyani nazarda tutgan holda, talabalarni fanlar, texnologiya, muhandislik, san'at va matematikani uyg'un tarzda o'rgatishga qaratilgan. Bu yondashuv talabalar nafaqat nazariy bilimlarni o'zlashtiradi, balki amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga ham yordam beradi.

Stomatologiya ta'limi ham o'zining xususiyatlari bilan STEAM yondashuvi uchun ayni muddao hisoblanadi. Stomatologiya sohasida talabalarga tishlarning tuzilishi, funksiyalari, kasalliklari, diagnostikasi, davolash va estetik restavratsiya kabi ko'plab mavzularni chuqur o'rganish zarur. Ushbu jarayonda texnologiya va san'atning o'zaro uyg'unlashuvi, shuningdek, matematik va muhandislik bilimlarining amaliyotga tatbiqi alohida o'rin tutadi. Shuning uchun STEAM ta'limining stomatologiyada qo'llanilishi, talabalarni nafaqat texnik va ilmiy bilimlar bilan, balki kreativ fikrlash va estetik qarash bilan ham ta'minlaydi.

Ta'lim tizimida STEAM yondashuvini joriy etish, talabalar uchun stomatologik fanlarda mustahkam nazariy poydevor yaratish bilan birga, zamonaviy texnologiyalarni, masalan, 3D protezlash, simulyatsion tibbiyot, biomateriallar va dizayn yondashuvarinini o'z ichiga oladi. Ushbu yondashuv

stomatologiyada eng so‘nggi yangiliklar va innovatsion texnologiyalarni o‘zlashtirishda katta ahamiyatga ega.

Shuningdek, stomatologiya ta’limida STEAM yondashuvi talabalarga amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish imkoniyatini beradi, chunki ular real klinik holatlar va 3D model yaratish kabi mashg‘ulotlar orqali bilimlarni mustahkamlaydilar. Bu esa kelajakda stomatologiyada yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashda katta rol o‘ynaydi.

STEAM ta’limi o‘zining integratsiyalashgan yondashuvi bilan zamonaviy ta’lim tizimida ko‘plab ijobiy o‘zgarishlarga olib kelmoqda. Bu model fanlararo bilimlarni taqdim etish orqali talabalarni har bir fan bo‘yicha chuqur nazariy bilimlarni egallashga undaydi. Stomatologiya sohasida STEAM yondashuvining qo‘llanishi nafaqat talabalarni stomatologik bilimlar bilan ta’minalash, balki ularni innovatsion texnologiyalar, estetik dizayn va muhandislik fikrlash bilan birlashtirishga imkon yaratadi.

**Science (Ilm-fan):** Stomatologiya sohasida anatomiya, fiziologiya, histologiya, biomateriallar kabi fanlar asosida ilmiy bilimlarni chuqur o‘rganish talab qilinadi. Bu bilimlar stomatologiyada kasalliklarning diagnostikasi, tishlarni tiklash, davolash va profilaktikasi kabi sohalarda qo‘llaniladi. Masalan, stomatologiya fanlarida tish tuzilishini o‘rganish uchun ilmiy ma'lumotlar talab etiladi. STEAM ta’limi bu jarayonni ilg‘or ilmiy metodlarga asoslanib, amaliyot bilan birlashtirishga yordam beradi.

**Technology (Texnologiya):** Stomatologiya sohasida texnologiyalarni qo‘llash talabalarga zamonaviy stomatologik asbob-uskunalar, 3D printerlar, intraoral skanerlar, CAD/CAM tizimlari va boshqa innovatsion texnologiyalarni o‘rgatadi. Ushbu texnologiyalar yordamida talabalar protezlar va boshqa stomatologik apparatlarni yaratish jarayonini tushunib, ularni samarali qo‘llashni o‘rganadilar. STEAM ta’limi talabalarni texnologiyalardan to‘g‘ri foydalanishga o‘rgatish va kelajakdagi stomatologik innovatsiyalarni ishlab chiqishga tayyorlaydi.

**Engineering (Muhandislik):** Stomatologiyada biomekanika, materialshunoslik, tish shaklini tiklash va boshqa texnik jihatlar katta ahamiyatga ega. Muhandislik yondashuvi yordamida talaba stomatologik protetikalarni, ortodontik moslamalarni va boshqa tibbiy qurilmalarni yaratish jarayonida texnik bilimlarni o‘rgatadi. Bu yondashuv talabalarga stomatologiyada zamonaviy muhandislik texnologiyalarini qo‘llashni o‘rgatadi va ularning loyihaviy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

**Art (San’at):** Estetik restavratsiya va protezlash sohalarida san’at yondashuvi muhim rol o‘ynaydi. Stepanov va boshqalar (2021) tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlarga ko‘ra, tishlarning estetik ko‘rinishi, shakli va rangini tiklashda

san'atning roli kattadir. STEAM ta'limi stomatologiyani san'at bilan uyg'unlashtirishni ta'minlaydi, bu esa talabalarga estetik dizaynni o'rganish va amaliyotda qo'llash imkoniyatini beradi.

**Mathematics (Matematika):** Stomatologiyada matematikani qo'llash, masalan, tishlar o'lchamlari, protezlar dizayni, biomateriallar hisobi kabi sohalarda katta ahamiyatga ega. Matematik usullar stomatologik diagnostika va davolashda aniqlikni ta'minlashga yordam beradi. STEAM ta'limida matematika stomatologik amaliyotda keng qo'llanadigan aniq hisob-kitoblar, o'lchovlar va modellashtirish orqali talabalarning matematik ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

STEAM ta'limi stomatologiya yo'nalishida amaliy treninglar va simulyatsion mashg'ulotlar orqali talabalarni o'zlashtirgan bilimlarni haqiqiy klinik holatlarda qo'llashga tayyorlaydi. Masalan, 3D modellashtirish va simulyatsion stomatologiya dasturlari yordamida talabalar tishlarning shaklini va tuzilishini yaratish, protezlar va ortodontik qurilmalarni modellashtirishda amaliy ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Bunda STEAM yondashuvining barcha elementlari: ilm-fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika uyg'unlashtirilgan bo'ladi.

Talabalar o'z bilimlarini loyiha asosida o'rgatish orqali real klinik sharoitda o'zgaruvchan vaziyatlarga moslashishni va stomatologik muammolarni hal qilishni o'rghanadilar. Masalan, virtual reallik texnologiyalari orqali stomatologik protseduralarni simulyatsiya qilish, stomatologik asbob-uskunalarini va metodlarni sinash imkonini yaratadi.

Shu kunga kelib, stomatologiya sohasida STEAM ta'limi integratsiyalashgan va innovatsion yondashuv sifatida ta'lim tizimiga keng tatbiq etilmoqda. Ushbu ta'lim modeli, ayniqsa, stomatologik ta'limda ilmiy, texnologik, muhandislik, san'at va matematika kabi fanlarning uyg'unligini ta'minlaydi. STEAM ta'limi orqali talabalar nafaqat nazariy bilimlarni o'zlashtiradi, balki amaliy ko'nikmalarini rivojlantiradi, bu esa ularning kasbiy kompetensiyalarini oshiradi.

Stomatologiya fanlariga STEAM yondashuvining joriy etilishi, talabalarni eng zamonaviy tibbiy texnologiyalar, simulyatsion mashg'ulotlar, 3D modellashtirish, estetik dizayn va muhandislik fikrlash kabi sohalarda tayyorlaydi. Bu yondashuv, o'z navbatida, stomatologiyada yuqori malakali mutaxassislarini tayyorlashda samarali vosita bo'ladi. Masalan, 3D modellashtirish va protezlashda talabalar o'z bilimlarini amaliyotga tatbiq etish orqali amaliy ko'nikmalarini egallaydi, estetik restavratsiya va biomaterialshunoslikda esa san'at va texnologiya elementlarini birlashtiradilar.

Shu bilan birga, STEAM ta'limi stomatologiyada yangi innovatsion usullarni o'rgatish, tibbiy texnologiyalarni yaratish va shuningdek, talabalar uchun ijodiy

yondashuvni shakllantirishga katta yordam beradi. Bu jarayonda ilmiy tadqiqotlar, texnikaviy yondashuvlar, kreativ dizayn va analitik fikrlashning uyg‘unligi talabalar uchun mustahkam bilim va ko‘nikmalar poydevorini yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, STEAM ta’limi stomatologiya ta’limining samaradorligini oshiradi, uni innovatsion va amaliy jihatdan boyitadi, shuningdek, zamonaviy stomatologiyada yangi imkoniyatlar yaratish uchun mustahkam poydevor tayyorlaydi. Kelajakda STEAM yondashuvini yanada rivojlantirish va stomatologiya ta’limida keng qo‘llash o‘qituvchilar va mutaxassislar uchun muhim vazifalardan biri bo‘lib qoladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Beers S.Z. (2011). 21st Century Skills: Preparing Students for a Changing World. Solution Tree Press.
2. Yakovleva N.O. (2020). STEAM-obrazovanie: integratsiya nauki, texnologiy, iskusstva i matematiki. Moskva: Prosveshchenie.
3. Güven B., & Yildiz A. (2019). The Effect of STEAM Activities on Academic Achievement and Attitudes Toward Science. International Journal of Science Education, 41(7), 965–981.
4. Sultonova D.A., & Sirojiddinov O.I. (2022). Innovatsion ta’lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik. Toshkent: O‘zbekiston pedagogika nashriyoti.
5. Kamola Qodirova, & Baxodirxonova F.A. (2021). Ta’limda innovatsion texnologiyalardan foydalanish va kreativlik. O‘zbekiston ta’limi jurnali, 4(9), 21-25.
6. Ministry of Higher Education of the Republic of Uzbekistan. (2021). Oliy ta’lim tizimida STEAM ta’limini joriy etish bo‘yicha uslubiy qo‘llanma. Toshkent.
7. Stepanov A., & Ilyukhina E. (2021). Innovative Approaches in Dental Education: Integrating Technology and Art in Dentistry. Journal of Dental Education, 85(8), 1094-1102.

## ЎЗБЕКИСТОНДА ХОТИН-ҚИЗЛАРНИНГ ИЖТИМОЙ-СИЁСИЙ ФАОЛЛИГИНИ ОШИРИШИ ВА ГЕНДЕР ТЕНГЛИКНИ ТАЪМИНЛАШ ИСЛОҲОТЛАРИ

*Зулхуморхон Бойматова Анваржоновна  
Кўқон университети Андижон филиали  
Ижтимоий-иқтисодий факултети кафедраси  
ўқитувчиси*

**Аннотация.** Мазкур мақола Ўзбекистонда хотин-қизларниң жамиятдаги фаоллигини ошириш юзасидан амалга оширилаётган ислоҳатлар ва олиб борилаётган самарали ишлар ҳақида маълумотлар ёритилган.

**Калит сўзлар:** Ўзбекистон, хотин-қизлар, жамият, оила, ҳукуқ, ижтимоий-сиёсий.

**Аннотация.** В данной статье освещена информация о проводимых в Узбекистане реформах и плодотворной работе по укреплению семей и повышению активности женщин в обществе.

**Ключевые слова:** Узбекистан, женщины, общество, семья, право, социально-политическая.

**Abstrakt.** This article covers information on reforms and effective work carried out in Uzbekistan on the strengthening of families and increasing the activity of women in society.

**Key words:** Uzbekistan, women, society, family, law, socio-political.

Инсоният жамияти шакллангандан буён аёл ва унга муносабат масаласи, аёлнинг оила ва ижтимоий ҳаётдаги ўрни, келажак авлод тарбиясидаги ўзига хос вазифаси оддий кишилардан тортиб, башариятнинг буюк даҳоларини ҳам мушоҳада қилишга мажбур этган. Ўзбекистонда дунёни янгича идрок этадиган, ҳақ-ҳукуқи учун курашадиган, ўз тақдирини халқи, Ватани тақдирини билан бир деб билиб фаолият қўрсатаётган барқамол авлод шаклланмоқда. Улар ҳам аждодлар маънавий меросини ва умумбашарий қадриятлар, ақлий кашфиётларни баробар ўзлаштирумоядалар. Қалбида миллий ифтихор туйғуси, Ватан муҳаббати жўш урган билимдон, доно, тадбиркор инсонлар ҳар бир мамлакатнинг салоҳияти, келажагини белгилайдиган буюк кучdir. Мамлакатда элни сафарбар этувчи етук инсонлар қанча кўп бўлса, тараққиёт имконияти шунчалик кўп бўлади ва айни вақтда юрт осойишталиги, сиёсий, иқтисодий, барқарорлик кафолатиниаёл меҳнатисиз тасаввур этиб бўлмайди.

Хотин-қизларниң ижтимоий-сиёсий фаоллигини ошириш, уларниң ҳукуқлари ва қонуний манфаатларини ҳимоя этиш, юртимизда давлат сиёсатининг устувор йўналишларидан бири саналади. Бугун

қонунчилигимизда Ўзбекистон хотин-қизларининг хуқуқлари ва эркинликларини таъминлашнинг барча хуқуқий асослари яратилди., бу соҳада қонунчилик базаси шакллантирилди. Бош қомусимиз –Ўзбекистон Конститутцияси, Меҳнат, Оила кодекслари ва бошқа норматив-хуқуқий хужжатлар, умуман, юзга яқин меъёрий хужжатлар бевосита аёллар хуқуқлари, қонуний манфаатлари ва эркинликларини ҳимоя қилиш алоқадордир.

Муҳтарам Президентимиз таъкидлаганидек, ҳар қандай жамият ва давлатнинг қай даражада халқпарвар ҳамда адолатли экани унинг хотин-қизларга бўлган муносабати ва ғамхўрлиги билан белгиланади. Шу маънода сўнгги йилларда мамлакатимизда оиласларни мустаҳкамлаш, хотин-қизларнинг хуқуқ ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш, уларнинг иқтисодий, ижтимоий ва сиёсий фаоллигини ошириш, соғлигини саклаш, касбга ўқитиш ва бандлигини таъминлаш, тадбиркорликка кенг жалб этиш, эҳтиёжманд хотин-қизларни ижтимоий қўллаб қувватлаш, гендер тенгликни таъминлаш борасида олиб борилаётган ислоҳотларни тизимли давом эттириш, шунингдек, Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Глобал кун тартибининг барқарор ривожланиш мақсадларини изчил амалга ошириш мақсадида муҳтарам юртбошимиз Ш.М. Мирзиёев бир қатор қарор ва фармонлар орқали хотин-қизларнинг жамиятдаги ўрни ва ижтимоий-сиёсий фаолиятини мустаҳкамлаб берди.

Жумладан, 2023 йил 21-декабрдаги ПҚ-401 сонли “Оиласларни мустаҳкамлаш ва хотин-қизларнинг фаоллигини ошириш бўйича қўшимча чора тадбирлар тўғрисида”ги қарорида хотин-қизларнинг жамиятдаги ролини ошириш, гендер тенглик ва оила масалалари бўйича республика комиссияси ҳамда Вазирлар Маҳкамаси барча бўғиндаги ҳар бир давлат органи, ташкилоти ва корхонасида, шу жумладан маҳаллий ижро этувчи ҳокимият органи, суд тизимида ва хуқуқни ҳимоя муҳофаза қилувчи органлардан бошқарув ходимлари орасидаги хотин-қизларнинг улушини 2030 йилга қадар 30 фойзга етказиш талаби давлат корхоналарининг ижро органлари, шу жумладан директорлар кенгаши ва қузатув кенгашларининг таркибини шакллантиришда ҳам тадбиқ этилишига алоҳида ургу бериб ўтган.[2]

Муҳтарам Президентимизнинг қарор ва фармонлари асосида 2022-2026 йилларда хотин-қизларнинг мамлакат иқтисодий, сиёсий ва ижтимоий ҳаётининг барча жабҳаларида фаоллигини ошириш бўйича “Миллий Дастанур” ишлаб чиқилди. “Миллий дастанур” уч босқичда амалга оширилиши

режалаштирилган, яъни 2022-2023 йиллар, 2024-2025 йиллар ва 2026 йил давомида амалга оширилади. [3]

Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенатининг “2030 йилга қадар Ўзбекистон Республикасида гендер тенгликка эришиш стратегиясини тасдиқлаш ҳақида”ти қарори, халқаро ҳукуқнинг умумэътироф этилган тамойиллари ва меъёрлари, Ўзбекистон Республикасининг халқаро шартномаларидан келиб чиқувчи қоидалар ва бошқа қонун ҳужжатларига мувофиқ тайёrlанган.[4]

Парламентда хотин-қизларнинг сони БМТ томонидан белгиланган тавсияларга мос даражага етиб, 32 фоизни ташкил этди. Хотин-қизларнинг бошқарув лавозимидаги улуши 27 фоизга, тадбиркорлик соҳасида 25 фоизга, сиёсий партияларда 44 фоизга, олий таълимда 46 фоизга етди.[5]

Ўнлаб опа-сингилларимиз “Ўзбекистон Қаҳрамони”, “Ўзбекистон фан арбоби”, “Ўзбекистон халқ ўқитувчиси”, “Ўзбекистон халқ шоири”, “Ўзбекистон халқ артисти” сингари давлатимизнинг юксак фахрий унвонларига, орден ва медалларига сазовор бўлган. Уларнинг орасида 500 нафардан зиёд фан докторлари ва академиклар, минглаб фан номзодлари ўз билими ва истеъоди билан Ватанимиз равнақига астойдил хизмат қилиб келмоқда. [6]

Жамият ва давлат ҳаётида фаоллик ва ташаббускорлик кўрсатганлар билан бир қаторда, фарзандларини баркамол этиб тарбиялаб вояга етказган аёлларга ҳам бериладиган “Мўътабар аёл” кўкрак нишони таъсис этилди. Ўтган давр мобайнида 1000 дан ортиқ фаол аёллар ушбу кўкрак нишони билан тақдирланди. [7]

Хулоса қилиб айтганда, Ўзбекистон ахолисининг ярмини хотин-қизлар ташкил этиб, бутун инсоният салоҳиятини тўлиқ рўёбга чиқариш уларнинг жамият ҳаётига даҳлдорлигига боғлиқ бўлиб, иқтисодий ривожланиш кўрсаткичларидан тортиб, жамиятда тинчлик ва тотувликни таъминлашгача қамраб олади. Ишонч билан айта оламизки, хотин-қизларимиз Мухтарам Президентимиз, республика раҳбарияти кўрсатаётган бекиёс ғамхўрлик, алоҳида эътибор ва қўллаб –қувватлашларга жавобан янада фаол, ғайратшижоат билан ишлаб, дунё миқёсида ҳам ўзларини намоён этадилар.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйҳати**

1. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенатининг 2021-yil 28-майдаги “2030-йилга қадар Ўзбекистон Республикасида гендер тенгликка эришиш стратегиясини тасдиқлаш ҳақида “ти SQ-297-IV-сонли қарори.
2. Ўзбекистон Республикасининг Президенти Шавкат Мирзиёевга

халқаро хотин-қизлар байрамига бағишланган учрашувидаги нутқи. Зарафшон газетаси, 2018 йил 8-март, № 28 (22988).

2. <https://lex.uz/docs/5466673> .Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенатининг қарори, 28.05.2021 йилдаги СҚ-297-IV-сон
3. Саодат журнали, 2022-йил 3-сони, С-1,”Мустаҳкам оила, фаол хотин-қизлар жамият фаровонлигини белгилайди” мақоласи.
4. Ш.Мирзиёев Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. Тошкент-“Ўзбекистон”-2020, С-462.
5. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси Қарори, 02.04.2018 йилдаги 257-сон <https://lex.uz/docs/-3607779>
6. Аёлга эҳтиром. Тошкент. ”Ўзбекистон” 1999. С145.

## SARVONTEPA ME'MORIY MAJMUA YODGORLIGI

*Zulxumorxon Boymatova Anvarjonovna  
Qo'qon Universiteti Andijon Filiali  
Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Andijon viloyati Andijon shahridagi Sarvontepa yodgorligi tarixi, uning hozirgi kundagi ahvoli va tarixiy ahamiyati tog'risida ma'lumot beradi.

**Kalit so'zlar:** yodgorlik, tarixiy, arxeologiya, temir davri, tosh davri, majmua, sayyooh

**Аннотация.** В статье представлена информация об истории, современном состоянии и историческом значении памятника Сарвонтепа в Андижане Андижанской области.

**Ключевые слова:** памятник, исторический, археология, железный век, каменный век, комплекс, туристический

**Abstract.** This article provides information on the history of the Sarvontepa monument in the city of Andijan, Andijan region, its current state, and historical significance.

**Keywords:** monument, historical, archaeology, Iron Age, Stone Age, complex, tourist

Tarixiy obidalarni asrash har qanday jamiyatning madaniy va ma'naviy merosini kelajak avlodlarga yetkazishdagi muhim vazifalardan biridir. Bu obidalar o‘zida xalqning ko‘p asrlik tarixini, urf-odatlarini, me'moriy yutuqlarini va hayot tarzi haqida qimmatli ma'lumotlarni saqlaydi. Shuning uchun ularni himoya qilish va asrab qolish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Jahon tamaddunida ulkan o‘rin egallagan “Buyuk ipak yo‘li” yo‘nalishidagi Andijon qadimgi davrdan, bundan deyarli 2,5 ming yildan beri tarix sahnasida o‘z o‘rniga, boy va ko‘rkam o‘tmishiga ega bo‘lgan, kelajagi porloq, buyuk va azim shahardir.

Sarvontepa me’moriy majmua yodgorligi (miloddan avvalgi VIII-VI-asrlar) Andijon shahrining temir davriga oid eng mashhur qadimiy arxeologik yodgorliklaridan biri. Sarvontepa majmuasi Andijon shahri markazining shimoli-g‘arbiy qismida, Tutzor va Sujoat ko‘chalari kesishmasi yonida joylashgan[1]. Dastlab, o‘tgan asrning 50-yillarida yodgorlik ro‘yxatga olingan

Qadimgi manzilgohda dastlabki qazishmalar XX -asrning 60-70-yillarida olib borilgan. Bu yerdan miloddan avvalgi V-VIII-asrlarga oid birinchi madaniy qatlamlar topildi. 2001-yilda shaharda ish olib borayotgan arxeologlar, Sarvontepani uncha katta bo‘lmagan 30 x 20 metr kattalikdagi saqlangan qismida qazish ishlari o‘tkazdilar. Natijada hozirgi shahar ko‘chalari kesishgan joydan 3—4 metr chuqurlikda, insoniyat hayotining ibridoib davrga oid madaniy qatlamlar qayd etildi. Qatlamlardan miloddan avvalgi VI-IV-asrlarga to‘g‘ri keladigan guldor sopol idishlar va tosh buyumlar majmuasi oddiy maishiy o‘choq yaqinidan ajratib olindi.

Arxeologik tadqiqotlarga ko‘ra, Sarvontepa hududi 1 gektarga yaqin bo‘lgan. Yodgorlik Temir davrining boshlariga (miloddan avvalgi VII—IV-asrlar) tegishli bo‘lib, Eylaton madaniy markazi tarkibiga kiradi. Sarvontepani o‘rganish vodiysi tarixi uchun o‘ta muhim sanaladi. Sababi, Farg‘ona vodiysi qadim shaharlari hududida (xususan, Andijonda) ilk bor 2400—2600 yillik arxeologik kompleks aniqlandi. Bundan tashqari Andijonsoyni bunyod etilish tarixini yanada qadimiylashtiradi. Sarvontepa hududi Andijon shahri ilk (dastlabki) o‘rni bo‘lgani haqidagi fikr haqiqatga yaqin deb sanaladi. Aynan ushbu hududda keyinroq o‘rtasrlar arki va shahristonni joylashgani sabab qilib ko‘rsatiladi. Farg‘ona vodiysi tarixini o‘rganishda Sarvontepa majmuasini o‘rganish katta ahamiyatga ega. Bugungi kunda qadimiy arxeologik yodgorlik hududi devor bilan o‘ralgan bo‘lib, Andijon viloyatining qadimiy tarixiga oid alohida muhofaza etiladigan hududlar ro‘yxatiga kiritilgan[2].

Sarvontepa — Andijon shahrining shimoli-g‘arbiy qismida, Eski shahar hududida joylashgan qadimiy arxeologik yodgorlikdir. Ilk temir davriga oid bo‘lib, miloddan avvalgi VI-IV asrlarga to‘g‘ri keladi. Bu yodgorlik Eylaton madaniyatini majmuasiga kiradi.

Sarvontepa hududi 1 gektarga yaqin maydonga ega bo‘lib, dastlab XX asrning 50-yillarida ro‘yxatga olingan. 1960—1970-yillarda kichikroq arxeologik qazishmalar o‘tkazilgan va V-VIII asrlar bilan sanalgan edi. 2001-yilda shaharda

olib borilgan arxeologik qazishmalar natijasida, hozirgi shahar ko‘chalari kesishgan joydan 3–4 metr chuqurlikda yaxshi saqlangan qadimiy madaniy qatlamlar aniqlangan. Bu qatlamlardan miloddan avvalgi VI-IV asrlarga to‘g‘ri keladigan guldor sopol idishlar va tosh buyumlar majmuasi topilgan.

Sarvontepa arxeologik yodgorligi Farg‘ona vodiysi qadimiy shaharlari hududida ilk bor 2400–2600 yillik arxeologik kompleks sifatida aniqlangan. Bu yodgorlik Andijonsoyni bunyod etilish tarixini yanada qadimiylashtiradi, chunki Sarvontepa ushbu kanal bo‘yida joylashgan va uning suvidan foydalangani aniq. Shuningdek, Sarvontepa Andijon shahrining dastlabki o‘rni bo‘lgani haqidagi fikrni tasdiqlaydi.



*Sarvontepa tarixiy yodgorligining hozirgi ko‘rinishi (1-rasm)*

Bugungi kunda Sarvontepa hududi devor bilan o‘ralgan bo‘lib, Andijon viloyatining qadimiy tarixiga oid alohida muhofaza etiladigan hududlar ro‘yxatiga kiritilgan. Bu yodgorlik sayyohlar uchun ochiq bo‘lib, turizmni rivojlantirish maqsadida obodonlashtirish ishlari olib borilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Sarvontepa yodgorligi o‘zining tarixiy va madaniy ahamiyati bilan Andijonning qadimiy merosini o‘rganishda juda muhim manba

hisoblanadi. Bu yodgorlik nafaqat Andijon, balki butun O'rta Osiyo hududining tarixiy rivojlanishiga oid yangi bilimlar olishga yordam beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

- „Andijon viloyatining tarixiy diqqatga sazovor joylariga ziyorat safari“. 2023-yil 1-iyunda asl nusxadan arxivlangan. Qaraldi: 2023-yil 7-iyun.
- [„Паломнический туризм Источник: https://vesb.ru/zierat-turizm-chto-eto“](https://vesb.ru/zierat-turizm-chto-eto). Qaraldi: 2023-yil 7-iyun.
- O'zbekiston milliy ensiklopediyasining rasmiy veb-sayti (Wayback Machine saytida 3-fevral 2014-yil sanasida arxivlangan)[sayt ishlamaydi]
- O'zbekiston milliy ensiklopediyasining barcha jildari (Wayback Machine saytida 1-fevral 2014-yil sanasida arxivlangan)[sayt ishlamaydi]
- Ziyo.uz portali virtual kutubxonasida O'zbek Milliy Ensiklopediyasi

## BIOLOGIYA FANINI TIBBIYOT TALABALARIGA KLINIK YO'NALISH ASOSIDA O'QITISH METODIKASI

*Turdiyeva Muribatxon Mashrabovna  
Qo'qon universiteti Andijon filali  
Tibbiyot fakulteti o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada biologiya fanini tibbiyot yo'nalishidagi talabalar uchun klinik yo'nalishga yo'naltirilgan holda o'qitishning zamонавиј metodik yondashuvlari yoritilgan. Klinik-biologik bilimlarni integratsiyalash orqali talabalarni kelajakdagi kasbiy faoliyatiga tayyorlash, ularda amaliy ko'nikmalar va klinik tafakkurni shakllantirishning o'quv-uslubiy asoslari tahlil qilingan. Shuningdek, dars jarayonida interaktiv metodlar, muammoli ta'lif, amaliy topshiriqlar va tibbiy-biologik holatlar asosida o'qitish tajribalari keltirilgan. Klinik yo'nalish asosida biologiya fanini o'rgatish tibbiy ta'lif sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qilishi ta'kidlangan.

**Kalit so'zlar:** biologiya fanini o'qitish, tibbiy ta'lif, klinik yo'nalish, integratsiyalashgan ta'lif, interaktiv metodlar, amaliy ko'nikmalar, muammoli o'qitish, tibbiyot talabasi.

Hozirgi kunda tibbiy ta'lif tizimida fundamental fanlar, xususan, biologiyaning o'rni beqiyosdir. Biologiya fani tibbiyot fanlarining asosiy tayanchlaridan biri sifatida talabalarda organizm tuzilishi, funksiyalari va hujayra darajasidagi jarayonlar haqidagi bilimlarni shakllantiradi. Ayniqsa, biologiyani klinik yo'nalishda o'qitish — ya'ni biologik bilimlarni kasbiy va amaliy jihatdan tibbiy holatlar bilan bog'lab o'rgatish — bugungi zamонавиј tibbiy ta'lifning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda.

Tibbiy bilimlar tizimi ketma-ket va uzviy bog‘liq bo‘lgan fanlarga asoslangan bo‘lib, biologiyani klinik nuqtai nazardan o‘qitish orqali talabalarda kasbiy kompetensiyalarni erta bosqichdan shakllantirish mumkin bo‘ladi. Mazkur yondashuv talabani nafaqat nazariy bilim bilan, balki amaliy, diagnostik va tahliliy ko‘nikmalar bilan ham qurollantiradi. Shunday ekan, biologiyani an’anaviy shakldan farqli ravishda, tibbiy va klinik holatlar asosida o‘qitish metodikasini ishlab chiqish dolzARB masalalardan biridir.

Biologiya fanini tibbiyot yo‘nalishidagi talabalarga o‘qitishda klinik yondashuvni qo‘llash — bu fanni shunchaki nazariy jihatdan emas, balki uni amaliy tibbiyot bilan uzviy bog‘lab o‘rgatishni nazarda tutadi. Bunday metodika talabaning kasbiy faoliyatga tayyorgarligini kuchaytiradi, ilmiy-tahliliy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi va biologik bilimlarni real klinik holatlar bilan bog‘lab tahlil qilishga o‘rgatadi.

Biologiya — barcha tibbiy fanlarning asosini tashkil etuvchi, hujayra, to‘qima, organ va tizimlar darajasida organizmning tuzilishi va funksiyalarini o‘rgatuvchi muhim fan sanaladi. U orqali talabalar patologik jarayonlarning sabablari, mexanizmlari va oqibatlarini chuqurroq anglaydi. Ayniqsa, genetika, molekulyar biologiya va immunologiya kabi bo‘limlar zamonaviy klinik tibbiyot bilan bevosita bog‘liqdir.

Klinik yo‘nalishda o‘qitishning afzallikkabi. Klinik yo‘nalish asosida o‘qitishda har bir biologik mavzu klinik holatlar bilan bog‘lanadi. Misol uchun:

- Genetik kasallikkarni o‘rganishda — nasliy sindromlar (masalan, Daun sindromi, Xochtington kasalligi) misolida o‘rgatish.
- Immun tizim bo‘limini o‘rganishda — autoimmun kasalliklar (lupus, sklerodermiya) klinik jihatdan tahlil qilinadi.
- Hujayra bo‘limida — onkologik jarayonlar, hujayra o‘sishi va mutatsiyalar asosida tahlil qilinadi. Bu yondashuv orqali talabalar biologik asoslarni tibbiy amaliyatga tafbiq qilishni o‘rganadi.

Interaktiv va innovatsion metodlar. Klinik yo‘nalishda o‘qitishda quyidagi interaktiv metodlar muhim o‘rin tutadi:

- Case-study (klinik holatlarni tahlil qilish): Talabalarga real yoki model klinik vaziyatlar taqdim etilib, ulardan biologik asoslarni aniqlash talab qilinadi.
- Muammoli o‘qitish (PBL – Problem Based Learning): Talabalar mustaqil ravishda klinik muammoni hal qilishga yo‘naltiriladi.
- Multimedia va AKT vositalari: Elektron darsliklar, 3D modellar, simulyatorlar orqali mavzular yanada vizual va tushunarli bo‘ladi.
- Laboratoriya tajribalari: Mikroskopik kuzatuvlari, genetik testlar, eksperimentlar orqali bilimlar mustahkamlanadi.

Biologiyani klinik yondashuvda o‘qitishda baholash ham an’anaviy testlar bilan cheklanmaydi. Quyidagilar qo‘llaniladi:

- Klinik holat asosida yozma tahlil topshiriqlari;
- Jamoaviy muhokama asosidagi ball tizimi;
- Amaliy laboratoriya ishlari natijalariga ko‘ra reyting bahosi.
- Metodik tavsiyalar:
  - Har bir mavzuni o‘qitishda unga mos klinik holat tanlash;
  - Biologik tushunchalarni kasalliliklar patogenezi bilan bog‘lash;
  - Tibbiy terminologiya va klinik tafakkurni bir vaqtning o‘zida rivojlantirish;
  - Talabalarni mustaqil tahlil qilishga va ilmiy asoslangan qaror qabul qilishga o‘rgatish.

Tibbiy ta’limda biologiya fanini klinik yo‘nalishda o‘qitish zamonaviy pedagogik yondashuvlar, interaktiv metodlar va tibbiy-biologik integratsiyaga asoslangan holda tashkil etilishi zarur. Bunday yondashuv orqali talabalar biologik bilimlarni amaliy tibbiyot bilan bog‘lashni, klinik tafakkur yuritishni va kasbiy qarorlar qabul qilishni o‘rganadilar. Ayniqsa, case-study, muammoli o‘qitish, laboratoriya amaliyotlari va klinik holatlar asosida mashg‘ulotlar o‘tkazish o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi. Biologiya fanini klinik asosda o‘qitish nafaqat fanni chuqurroq o‘zlashtirish, balki talabalarni shifokorlik faoliyatiga kompleks tayyorlashda muhim omil hisoblanadi. Shu sababli tibbiy oliy ta’lim muassasalarida biologiyani o‘qitishda klinik yo‘nalishli metodikani keng joriy etish, pedagoglarning shu boradagi malakasini oshirish va yangi o‘quv-uslubiy resurslar yaratish dolzarb vazifalardan biridir.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Axmedov B.A., Karimov Sh.M. Biologiya o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Fan, 2020. – 256 b.
2. Jo‘rayev M.T., Raximova M.M. Tibbiyot oliy ta’limida biologiya fanining o‘rni va ahamiyati // Tibbiyot ta’limi jurnalı. – 2022. – №3. – B. 45–50.
3. Abdullayeva Z.T. Biologiya fanini klinik yo‘nalishda o‘qitishning pedagogik asoslari // Innovatsion ta’lim va ilmiy tadqiqotlar jurnalı. – 2023. – №1. – B. 72–76.
4. Rasulov I.M. Tibbiy ta’limda integratsiyalashgan yondashuv: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Tibbiyot nashriyoti, 2021. – 198 b.
5. World Health Organization. Medical education: global standards for quality improvement. – Geneva: WHO Press, 2021. – 56 p.
6. Harden R.M., Laidlaw J.M. Essential skills for a medical teacher. – 3rd ed. – Edinburgh: Elsevier, 2020. – 320 p.

## TIBBIYOT SOHASIDAGI TALABALAR UCHUN BIOLOGIYANI INNOVATSİON TEKNOLOGİYALAR ASOSIDA O'QITISHNING AFZALLIKLARI

*Turdiyeva Muribatxon Mashrabovna  
Qo'qon universiteti Andijon filali  
Tibbiyot fakulteti o`qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada tibbiyot sohasidagi talabalarga biologiya fanini innovatsion texnologiyalar asosida o'qitishning afzalliklari yoritiladi. Zamonaviy ta'linda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, virtual laboratoriylar, interaktiv dasturlar va multimedia vositalarining qo'llanilishi talabalarning fanga bo'lgan qiziqishini oshiradi, bilimlarni chuqurroq egallashiga ko'maklashadi. Shuningdek, innovatsion yondashuvlar orqali o'quv jarayoni samaradorligi ortadi, talabalarda mustaqil fikrlash, ilmiy izlanish va kasbiy kompetensiyalar shakllanadi. Maqolada innovatsion texnologiyalarning o'quv jarayoniga integratsiyalashuvi va ularning natijaviyligi misollar asosida tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** innovatsion texnologiyalar, tibbiyot ta'limi, biologiya fani, virtual laboratoriya, interaktiv o'qitish, AKT, talaba faolligi, kasbiy kompetensiya, zamonaviy ta'lif.

Bugungi kunda jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri bu – sifatli va zamonaviy ta'lif tizimini yo'lga qo'yishdan iborat. Ayniqsa, tibbiyot sohasida yuqori malakali, chuqur bilimga ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlashda biologiya fanining o'rni beqiyosdir. Biologiya fani tibbiy bilimlarning asosi bo'lib, inson organizmining tuzilishi, funksiyalari va rivojlanish qonuniyatlarini tushunishda muhim ahamiyatga ega.

So'nggi yillarda ta'lif jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshirish, ularning mustaqil fikrlash va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyati kengaymoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, interaktiv usullar, virtual laboratoriylar va multimedia vositalarining o'quv jarayonida qo'llanilishi biologiya fanini o'rgatishda yangi bosqichni boshlab berdi.

Bugungi globallashuv davrida ta'lif sohasiga bo'lgan talab va ehtiyojlar keskin o'zgarib bormoqda. Ayniqsa, tibbiyot sohasida bilim berishning samaradorligini oshirish, amaliy ko'nikmalarni mustahkamlash hamda talabalarni kasbiy faoliyatga puxta tayyorlash zaruriyati ortib bormoqda. Biologiya fani esa tibbiy ta'lifning poydevori bo'lib, talabalarni asosiy tibbiy fanlarni o'zlashtirishga

tayyorlaydi. Shu boisdan, bu fanni o‘qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish zamonaviy ta’limning muhim yo‘nalishlaridan biridir.

Innovatsion texnologiyalar deganda nafaqat zamonaviy kompyuterlar yoki texnik vositalar, balki o‘quv jarayonini takomillashtirishga qaratilgan ilg‘or pedagogik yondashuvlar, interaktiv metodlar, raqamli platformalar, multimedia vositalari, virtual va simulyatsion laboratoriylar tushuniladi. Bunday texnologiyalar talabalarning bilimni egallash jarayonini jonlantiradi, ularni darsga faol jalg etadi va o‘zlashtirish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Masalan, biologiya darslarida 3D-modellashtirish dasturlari yordamida inson organizmining ichki tuzilishini ko‘rsatish, hujayra tarkibiy qismlarini yiriklashtirib ko‘rish, turli fiziologik jarayonlarni animatsion tarzda namoyish qilish imkoniyati mavjud. Bu orqali talaba faqat nazariy bilim emas, balki vizual, amaliy tushuncha hosil qiladi. Bundan tashqari, test tizimlari, interaktiv taqdimotlar, masofaviy o‘quv platformalari orqali bilimlar mustahkamlanadi.

Innovatsion texnologiyalar yordamida biologiyani o‘qitishning yana bir muhim jihat – bu individual yondashuv imkoniyatining kengayishi. Har bir talaba o‘z o‘quv sur’atiga, tushunish darajasiga va qiziqishiga qarab bilim oladi. Mustaqil o‘rganish, o‘z-o‘zini baholash va tahlil qilish ko‘nikmalar shakllanadi. Bu esa talabada tanqidiy fikrlash, ilmiy izlanishga bo‘lgan intilish va mas’uliyat hissini kuchaytiradi.

Shuningdek, innovatsion metodlar orqali biologiyani tibbiyat sohasiga bog‘lab o‘qitish imkoniyati ham mavjud. Misol uchun, genetik jarayonlarni o‘rganishda real klinik holatlар asosida muammoli vaziyatlar (kasuslar) tahlili, laboratoriya natijalarini baholash, simptomlar asosida tashxis qo‘yish kabi usullar tibbiy-biologik tafakkurni rivojlantiradi.

Shu bilan birga, o‘qituvchining roli ham sezilarli darajada o‘zgaradi. U endilikda bilim beruvchi emas, balki yo‘naltiruvchi, maslahat beruvchi, ta’lim jarayonini boshqaruvchi va motivator sifatida ishtiroy etadi. Bu esa pedagogik mahorat va zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash ko‘nikmalarini talab etadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, biologiyani innovatsion texnologiyalar asosida o‘qitish tibbiyat sohasidagi talabalarning nafaqat fan bo‘yicha chuqur bilimga ega bo‘lishini, balki ularning kasbiy va shaxsiy kompetensiyalarini shakllantirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Bu yondashuv zamonaviy tibbiy ta’lim tizimini takomillashtirishda asosiy omillardan biri sifatida e’tirof etiladi.

Tibbiyat sohasidagi talabalarga biologiya fanini innovatsion texnologiyalar asosida o‘qitish bugungi kunda dolzarb va zaruriy yo‘nalishlardan biridir. Ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalar, virtual laboratoriylar, interaktiv metodlar va

multimediaviy vositalarni joriy etish nafaqat o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, balki ularning tahliliy fikrlash, mustaqil ishlash, ilmiy izlanishga bo‘lgan intilishini ham rivojlantiradi.

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, biologiya fanining innovatsion yondashuvlar asosida o‘qitilishi tibbiy ta’lim samaradorligini oshiradi, fanlararo integratsiyani ta’minlaydi va talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Bunday yondashuv orqali o‘quvchilar nafaqat nazariy bilimga, balki amaliy ko‘nikmalarga ham ega bo‘ladilar, bu esa ularning kelgusidagi kasbiy faoliyatiga ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shunday qilib, innovatsion texnologiyalarni ta’lim jarayoniga keng jalb qilish – zamonaviy pedagogikaning talablariga javob beruvchi, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning muhim garovidir. Biologiya fanini shu yo‘nalishda o‘qitish esa tibbiyot sohasidagi professional tayyorgarlikni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Jo‘rayev Sh., Raxmatova M. Biologiya fanini o‘qitishda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020. – 144 b.
2. Abdullayeva N.X., Tursunov Sh.K. Zamonaviy biologiya ta’limida axborot texnologiyalaridan foydalanish. // "Ta’lim va taraqqiyot" ilmiy-metodik jurnali. – 2021. – №4. – B. 45–49.
3. Axmedov I., Mirzayeva D. Tibbiyot ta’limida fanlararo integratsiyaning roli. // "Tibbiyot va ta’lim" jurnali. – 2022. – №2. – B. 30–34.
4. Musurmonova O.B. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan, 2019. – 256 b.
5. G‘ulomova M.R. Interaktiv o‘qitish metodlari va ularning samaradorligi. // "Pedagogik innovatsiyalar" ilmiy jurnali. – 2020. – №1. – B. 17–22.

## XX ASR 20-30-YILLARIDA O'ZBEKISTONDA TA'LIM TIZIMIDA AYOLLAR MASALASI

*Yusubova Iroda Davron qizi  
Sharof Rashidov nomidagi  
Samarqand Davlat Universiteti talabasi  
yusubovairoda@gmail.com*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Sovet hokimiysi tomonidan olib borilgan O'zbekiston xotin-qizlarining "ozodlik"ka chiqarish siyosatini asl mohiyatini ochib berish; sovet davlatidagi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarning xotin-qizlar hayotidagi o'rnni ko'rsatilgan.Qatag'onlik siyosatining O'zbekiston xotin-qizlariga ta'sirini tahlil qilish aks etgan hamda mustabid tuzum davrida nohaq qatag'onga uchragan o'zbekistonlik xotin-qizlarining taqdirini yoritilgan

**Kalit so'zlar:** sotsialistik rejim, SSSR, kommunistik rejim, kolxoz, qatag' onchilik, „Hujum”, Turkiston ASSR, Vladimir Lenin, Nurxon Yo'ldosheva, Naima Aytmatova, Tojixon Shodiyeva, Jahon Obidova

**Annotation.** This article reveals the true nature of the policy of "liberation" of Uzbek women carried out by the Soviet authorities; the place of socio-political changes in the life of women in the Soviet state is shown. The analysis of the impact of the repressive policy on Uzbek women is reflected and the fate of Uzbek women who were unfairly repressed during the autocratic regime is highlighted.

**Key words:** Socialist regime, USSR, communist regime, kolkhoz, repression, "Attack", Turkestan ASSR, Vladimir Lenin, Nurkhan Yoldosheva, Naima Aitmatova, Tajikhon Shodiyeva, Jahon Obidova

Zero, Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Xalqimiz azaldan muqaddas Ona zotiga, xotin-qizlarga doimo yuksak ehtirom ko'rsatib keladi. Ayolga bo'lган hurmat-e'tibor – bu avvalo, oilaga, jamiyat kelajagiga bo'lган hurmat-e'tibor ifodasidir. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, yer yuzidagi har qaysi jamiyatning madaniy darajasi uning ayollarga nisbatan munosabati bilan belgilanadi degan hikmatli so'zlarda, albatta, chuqr ma'no bor"[1].

Rossiyadagi oktaybr to'ntarishidan so'ng yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy holat, iqtisodiy, madaniy-mafkuraviy vaziyat O'zbekistonda sobiq sovet davlatining barcha bosqichlarida mohiyatan chuqr o'zgarishlarga sabab bo'ldi.

Sobiq kommunistik partyaning kuchli siyosiyashgan institutlari XX asr 20-yillaridan boshlab xotin-qizlar masalasida boshqa davrlarga xos bo'limgan, alohida siyosat yurgiza boshladi.

Ta'kidlash joizki, ushbu davrda O'zbekistonda xotin-qizlarni jamiyatni faol ishtirokchisiga aylantirishga oid amalga oshirilgan ishlar haqiqatdan muhim va ahamiyatlidir. Xotin-qizlarni ozod qilish eng avvalo ularning jamiyatda tutgano'rnni

belgilash bilan ro'yobga chiqadi. Shu sababli ham 20-yillar bu boradagi ahamiyatli bosqich bo'ldi.

1917-yildagi bolsheviklar inqilobidan keyin SSSR hukumati uzoq muddatda kuchli va buzilmas sotsialistik rejim o'matish uchun iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy muammolarni hal qilishga harakat qildi. Buning uchun ko'plab huquqiy me'yorlar va targ'ibot vositalaridan foydalanildi. Sovet tuzumi Ittifoqning boshqa joylarida bo'lgani kabi O'rta Osiyoda ham ittifoq iqtisodiyotiga erishishga, ateistik, tenglikparast va dunyoviy davlat barpo etishga, til, madaniy va an'anaviy farqlaridan qat'i nazar, bir xil qadriyatlarga ega bo'lgan sovet xalqini yaratishga harakat qildi.

Xotin-qizlar ijtimoiy hayotga jalb qilingandan so'ng ham ularning haqhuquqlariga rahna solindi. Bunga misol tariqasida O'zbekiston Milliy Arxivida ijtimoiy kelib chiqishi tufayli ishdan bo'shatilgan ayollarning hujjatlarini keltirishimiz mumkin. Jumladan, Islomova Zebixon ijtimoiy kelib chiqishini ataylab yashirgani uchun ishdan olingan.

4. Собирова Д.Т. Ўзбекистонда совет тоталитар тузумининг аёллар масаласидаги сиёсати ва унинг оқибатлари (XX асрнинг 40-80 йиллари). Тарих фан. номз. дисс. – Тошкент, 2009. – Б. 25.

Yana shuni alohida ta'kidlash lozimki, sovet hukumatining jamoalashtirish siyosati ham juda qiyinchilik bilan amalga oshirilgan. Mahalliy aholi o'z noroziliklarini namoyishlar orqali namoyon qilganlar. [5:8]

Ma'lumotlarga ko'ra, bu tadbirga qarshi bosh ko'targanlar orasida ayollar ham bo'lgan. Manbalarga ko'ra, Samarqand okrugi G'allaorol rayonining Yangiqo'rg'on, Qoraqishloq, Mo'tal, Baxmal, Galdrat, Kaltasoy, Gubdum, Qoratosh qishloq sovetlari bo'yicha 105 ta xo'jalik qulqoq xo'jaligi sifatida ro'yxatga olingan. Ro'yxatda mehnatga layoqatli 170 erkak, 189 ayol, mehnatga yaroqsiz 43 erkak, 21 ayol bo'lgan. Bu xo'jaliklar qulqoqqa tortilgan. Ularning hammasi qishloq xo'jalik mahsulotlari yetkazish bilan, dehqonchilik bilan mashg'ul bo'lishgan 35 nafar Qatag'on qurbanlari xotirasi davlat muzeyida qulqolashtirish bo'yicha surgun bo'lgan ayollar haqidagi ma'lumotlarni ko'rish mumkin. Xosiyat Sulaymonova farzandlari bilan 1930-yilda Ukrainaga surgun qilingan. Turmush o'rtog'i Mavlon Sulaymonov 1938-yil 10-iyunda qayta qatag'on qilinib, otib tashlangan. Ikkinchi jahon urushidan keyin o'g'llari Sultonmurod va Mirzamurod bilan O'zbekistonga qaytib kelgan. Shimoliy

Kavkazga surgun qilingan ayollar: Salovat Asadova –Samarqand viloyati, Tanishka qishlog'idan, Xosiyatxon Yormuhammedova –Samarqand viloyati, Kattaqo'rg'on tumanidan 1931-yili oila a'zolari bilan surgun qilinib, 1946-yilda O'zbekistonga qaytib kelgan. Toji Shukurovning qizlari Qo'ysun (1920-1983) va Xosiyatlar otasi (1924) Toji Shukurov bilan 1929-yil qulqoqqa tortilib, 10 yilga

surgun qilingan. Muallima va Muhabbat Xudoyberdiyevalar 1931-yilda Nikolo-Aleksandrovska qishlog‘iga surgun qilingan. 1946-yili O‘zbekistonga qaytib kelgan [6:83].

5. Mirsaidova K. Tillayeva M. Markaziy Osiyoda ayollarning ilm fandagi o’rni va ahamiyati. Talqin va tadqiqotlar ilmiy jurnali 8.2281-3035

6. Шамсутдинов Р., Мамажанов А. Шимолий Кавказ сургунидаги юртдошлар қисмати. – Тошкент: Шарқ, 2005. – Б. 83

XX asrning 20–30-yillarida O‘zbekistonda xalq ta’limi tizimining ahvoli va unda xotin-qizlarning ishtiroki masalasini tahlil qilish quyidagi xulosalarni chiqarishga asos bo‘ldi:

1. Ta’lim, maorif, madaniyat o‘ziga xos ko‘rinishda aks etgan Turkiston o‘lkasida XX asrning 20–30-yillarida yangi sovet maorifi shakllanish davriga asos solindi.

Biroq bu jarayon har bir davr uchun turli mashaqqatlar evaziga qo‘lga kiritilgan.

Ushbu davrni SSSRning Turkiston o‘lkasiga ma’naviy hujum davri deb baholansa mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki, maorif sohasidagi tub islohot asrlar davomida diniy ta’lim bilan tarbiyalangan, musulmonlik arkonlari va milliy an’analar asosida ta’lim-tarbiya ko‘rgan Turkiston aholisi ongida ziddiyatlari tushunchalar va mafkuraviy tafovutlarni keltirib chiqardi.

2. 1924-yilda O‘rta Osiyodagi milliy-hududiy chegaralashi oqibatida bir nechta milliy respublikalar, shu jumladan, O‘zbekiston SSR ham tashkil etildi.

O‘zbekiston SSRda ta’lim sohasini isloq qilish davom etdi. Biroq bu borada jiddiy xatoliklarga yo‘l qo‘yildi. Jumladan, respublikaning chekka hududlarida maktab yoshidagi bolalarning bir qismi o‘qishga tortilmadi. Ayniqsa, tub joy aholi qizlarining maktablarga jalb qilinishi ko‘rsatkichlari darajasi juda past edi.

Mahalliy millat bolalari orasida maktabni tashlab ketish hollari ham ko‘p kuzatilar edi.

3. Respublikada tashkil etilayotgan ko‘pgina maktablarda muallimlarning bilim darajasi yetarli bo‘limganligi tufayli o‘qish saviyasi talabga javob bermas edi.

Shuningdek, maktablar soni muttasil ortib borayotgan bo‘lsa-da, ularning o‘qituvchi kadrlar ta’minoti, o‘quv moddiy bazasi nochor ahvolda qolayotgan edi.

Maktablarni mutaxassis kadrlar bilan ta’minalash darajasi juda past darajada bo‘lib, ayniqsa milliy tillarda dars o‘tadigan ayol o‘qituvchilar juda kam edi.

6. Milliy tillarda o‘qitiladigan maktablarda dars o‘tuvchi o‘qituvchilar, xususan, ayol muallimlar juda ozligini e’tiborga olingan. Hamda sovet hukumati O‘zbekistonning bir qancha shaharlarida xotin-qizlar bilim yurtlari va pedagogika

texnikumlarini tashkil etgan. Ularda mahalliy xotin-qizlar tahsil olishi yo'lgan qo'yilgan. Bu kabi bilim yurtlari asta-sekin ayol o'qituvchilarga bo'lgan ehtiyojni to'ldirib bordi. Biroq, kadrlar tayyorlaydigan o'quv yurtlariga dastlabki davrlarda xotin-qizlarning kirishi jalb etilishi past dapajada bo'lgan. Oqibatda, ularni o'rta maxsus va oliv ta'limga tortish bo'yicha ham sovet hukumati katta targ'ibot ishlarini olib borishiga to'g'ri kelgan.

7. Sovet hukumati qonunlarida ayollar va erkaklarni teng huquqli deb e'lon qilish bilan jamiyatda xotin-qizlarning masalasi hal qilindi, ijtimoiy muammolar tugatildi, deb hisoblangan. Hukumat qonunlarida ayollar va erkaklar teng huquqlarning ta'minlanishi, xotin-qizlarga erkaklar qatori korxona va tashkilotlarda ishslash imkoniyatining berilishi deb qaraldi.

Xotinqizlar ozodligi uchun kurash aslida sinfiy kurash emas dunyoqarashlar kurashi edi. "Hujum" harakati ortidan O'rta Osiyoda o'qimishli ayollar ko'paydi. Ammo ko'pchilik bu haqida dinimizni qoralamasdan, hujum harakatini bunchalik ayovsiz o'tkazmasdan ham ayollarni o'qimishli qilish mumkin edi degan xulosaga keladi. Lekin afsuski, kommunistlar hukmron bo'lgan Sovet Ittifoqi ayovsiz kurash yo'llini tanladi va bu yo'l ko'pchilikda og'ir asoratlar qoldirdi.

Hozirgi kunda O'zbekiston ayollarining ilm-fandagi o'rni kundan-kunga ortib bormoqda. Shu bilan birga, davlat rahbari Sh.Mirziyoyevning mamlakatda xotinqizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy faolligini oshirish, bandlikni ta'minlash, tadbirkorlik va ilmiy faoliyatga keng jalb etish bo'yicha keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirish borasidagi tashabbusini qayd etish zarur.

### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis Senatining yigirmanchi yalpi majlisidagi nutqi. 22.06.2019
2. Broxup, M., "Soviet Perception of Militant Islam", in Malik H. (ed.), Domestic Determinants of Soviet Foreign Policy toward South Asia and the Middle East, Palgrave Macmillan, 1990, bet-20
3. Nishonboyeva Q.V. O'zbekistonda xotin-qizlar masalasini hal etishning madaniy jihatlari/20-30 yillar/ tajriba va oqibatlar. Tarix fan.diss.,1998. bet-31
4. Собирова Д.Т. Ўзбекистонда совет тоталитар тузумининг аёллар масаласидаги сиёсати ва унинг оқибатлари (XX асрнинг 40-80 йиллари). Тарих фан. номз. дисс. – Тошкент, 2009. – Б. 25.
5. Mirsaidova K. Tillayeva M. Markaziy Osiyoda ayollarning ilm fandagi o'rni va ahamiyati.Talqin va tadqiqotlar ilmiy jurnali 8.2281-3035

6. Шамсутдинов Р., Мамажанов А. Шимолий Кавказ сургунидаги юртдошлар қисмати. – Тошкент: Шарқ, 2005. – Б. 83

**MUNDARIJA**

|   |    |
|---|----|
| <b>Tairova M.A.</b> Mamlakatshunoslikka oid terminlarda kalkalar tarjimasi .....  | 3  |
| <b>Sharifjonova K.</b> Ona tilini psixolingistik yondashuv asosida o‘qitish jarayoniga uslubiy yondashuvlar.....  | 5  |
| <b>Nuriddinova H.B.</b> Grammatical features of english and uzbek riddles .....   | 9  |
| <b>Kalekeeva S.T.</b> Mantiqiy fikrlashga oid klassik xorijiy nazariyalarining o‘qituvchilarining fikrlash jarayonlariga ta’siri .....  | 13 |
| <b>To‘xtayev N.</b> Vahiy va ijтиҳод bosqichlarida fiqhning urfga rioya qilishi .....   | 16 |
| <b>Zakirova F.M., Buranova D.A.</b> Qishloq xo’jaligi talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish .....  | 19 |
| <b>Анварова Н.Х., Давлатова С.К.</b> Роль темпоральной лексики в понимании исторического и социального контекста через призму творчества Ф.М. Достоевского: контрастивный анализ русского и узбекского языков ..... | 23 |
| <b>Артикова Г.Х.</b> Ўсмир-ёшларнинг ижтимоийлашув самарадорлиги самарали ва тўғри ташкил этилган таълимга боғлиқдир.....   | 30 |
| <b>Berdibayeva G.S.</b> Oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak biologiya fani o‘qituvchilarining ekologik madaniyatini rivojlantirish.....   | 34 |
| <b>Jumaniyazova S.K.</b> Akademik litseylarda o‘quvchilarining mustaqil ta’lim faoliyatini samarali tashkil etishning pedagogik yondashuvlari.....  | 37 |
| <b>Abdullayeva D.N., Mamatkulova N.T.</b> Umumta’lim maktablari geografiya darslarida o‘quvchilarining o‘quv- bilish faoliyatini takomillashtirish.....   | 40 |
| <b>Amirqulova M.A.</b> O‘quvchilarga chet tili grammatikasini o‘qitish metodlari .....  | 43 |
| <b>Хабибуллаева И., Хожиакбарова С.</b> Подготовка наглядный пособий для занятий иностранным языком с использованием информационных технологий .....  | 47 |
| <b>Murodova G.R.</b> Zarafshon daryosi havzasida oq sla ( sander lucioperca l) balig‘i yetishtirishning afzallik va istiqbollari .....  | 51 |
| <b>Saydaliyeva U.Sh.</b> Maktabgacha yoshdagи bolalarning intellektual salohiyatini rivojlantirish muammolari.....  | 55 |
| <b>Набижонова Л.А.</b> «Филлеры в косметологии: вред, риски и перспективы с позиции современной медицины» .....   | 58 |
| <b>Nabijonova L.A.</b> Iatrogenesis .....   | 62 |
| <b>Rahmonova S.N.</b> The role of partonyms in linguistics .....  | 66 |
| <b>Amirqulova M.A.</b> O‘quvchilarga chet tili grammatikasini o‘qitish metodlari .....  | 69 |
| <b>Эрназарова М.Н., Хамроева Р.Х.</b> Математические задачи и логическое мышление на русском языке .....  | 73 |
| <b>Hamroyeva D.M.</b> Klinik laborator diagnostika fanini o‘qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish .....  | 75 |
| <b>Sharifjonova K.</b> Ona tilini psixolingistik yondashuv asosida o‘qitish jarayoniga uslubiy yondashuvlar.....  | 78 |
| <b>Komilova A.H.</b> O‘smirlar ijtimoiylashuvida ota-oná va bola munosabatlarining psixologik xususiyatlari.....  | 82 |
| <b>Самандарова З., Отабоева М., Мусаев А.С.</b> Способы перевода с русского на узбекский язык .....   | 86 |

|   |     |
|---|-----|
| <b>Ibodullayeva G.U.</b> Immersiya va immersive muhitini joriy etishning uslubiy yondashuv asoslari .....   | 88  |
| <b>Олимова М.В., Сайдмуродов С.У.</b> Искусственный интеллект и автоматизация: влияние на рынок труда и рабочие места в будущем .....                           | 90  |
| <b>Ibodullayeva G.U.</b> Talabalar mustaqil ishlarini tashkil etish va nazorat qilishda veb-tehnologiyalarning roli (nofilologik yo‘nalishlari uchun) .....     | 96  |
| <b>Normamatova F.Ch.</b> Ingliz va o‘zbek tillarida xarakterni ifodalovchi paremalar strukturasidagi o‘xshash va farqli jihatlar .....                          | 98  |
| <b>Eshqobilov E.M.</b> Kompetentli yondashuv asosida bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchisining kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirish .....             | 101 |
| <b>To‘lanboyev M.E., Raxmonov.A.B.</b> Sharq ruhi – Yevropaga saboq: Aleksandr Faynbergning “Вступление для европейца” she’ri haqida .....                      | 106 |
| <b>Isamatdinova U.</b> S.Bahadirovaniň “Tágdir” roman-trilogiyasiniň ideyaliq baǵdari .....   | 108 |
| <b>Qurolova S.</b> 12 muchal hayvon nomlari bilan bog‘liq iboralarni madaniy konnotatsiyalarining boyligi va iboralarning shakllanishi .....                    | 111 |
| <b>Samatov X.O’, Isoqova G.R.</b> Ma’naviy qadriyatlarning yoshlar tarbiyasidagi o’rni .....  | 113 |
| <b>Xodjayeva D.</b> Klimakterik sindromli ayollarni davolashni xalq tabobati usullaridan integratsiyalangan holda olib borish va samaralarini baholash .....    | 119 |
| <b>Kadirova Sh.A.</b> Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarida kasbiy kompetentsiyani shakllantirish vositasi sifatida o‘quv fanlari .....                     | 121 |
| <b>Baxramov S.A., Xushvaqtov J.G, Qushimatova K.I.</b> Geofizik signallarni splayn metodi asosida modellashtirish .....   | 124 |
| <b>Baxramov S.A., Qobilov S.Sh., Sharofova U.O.</b> Gastroenterologik signallarni lokal interpolatsion kubik splayn modeli asosida raqamli ishlov berish .....  | 128 |
| <b>Qobilov S.Sh.</b> Noteks tarmoq segmentlarida berilgan gidrogeologik ma’lumotlarni tugun nuqtalarga bog‘liq bo‘lmagan splayn funksiyasi orqali tiklash ..... | 132 |
| <b>Khasanova M.A., Rakhimova G.P.</b> Aspects of clinical pathogenetic early diagnosis of chronic heart failure in chronic kidney disease .....                 | 136 |
| <b>Хасанова М.А, Рахимова Г.П.</b> Остеопатия при хронической болезни почек .....   | 138 |
| <b>Хасанова М.А, Рахимова Г.П.</b> Эффективность применения статинов при лечении остеопороза .....  | 140 |
| <b>Xasanova M.A., Raximova G.P.</b> Surunkali yurak yetishmovchiligidida osteoporoz etiologiyasiga ko‘ra xususiyatlari .....                                    | 141 |
| <b>Khasanova M.A., Rakhimova G.P.</b> Renal dysfunction in patients with podagric nephropathy features .....  | 143 |
| <b>Raximova G.P., Xasanova M.A.</b> Miokard infarkti va surunkali buyrak kasalligini kechish xususiyatlari .....  | 146 |
| <b>Rakhimova G.P., Khasanova M.A.</b> Clinical features of myocardial infarction in patients with chronic kidney disease: a comparative study .....             | 147 |
| <b>Рахимова Г.П., Часанова М.А.</b> Клинические особенности течения инфаркта миокарда у пациентов с хронической болезнью почек .....                            | 149 |
| <b>Raximova G.P., Xasanova M.A.</b> Yurak ishemik kasalligi: stabil va nostabil stenokardiyaning klinik-kechish xususiyatlari va diagnostik yondashuvlar .....  | 151 |
| <b>Baxramov S.A., Xushvaqtov J.G., Rahmatullayev J.I.</b> Splayn funksiyalari asosida signalni silliqlashtirish va tiklash usullari .....                       | 153 |

|  |     |
|--|-----|
| <b>Norpo'latov H.B.</b> Fosfat parchalovchi bakteriyalar va ularning mexanizmlari va ahamiyati ...                                       | 157 |
| <b>Jummayeva M., Uralova O.</b> General translation issues.....  | 161 |
| <b>Mukhiddinova M.</b> Eastern classical genres in the view of devin deweese .....   | 164 |
| <b>Toshkulova M.M.</b> The structure and stylistic devices of an expository text .....   | 169 |
| <b>Toshkulova M.M.</b> Concept of the text .....   | 172 |
| <b>Mamajonbekov H.E., Xoliqov I.L., Karimjonov A.A.</b> Sun'iy intelekni iqtisodiyotda qo'llanilishi.....                                | 174 |
| <b>Karimova Z.G'., Madaminjonova Z.M.</b> O'zbek va ingliz tillarida minnatdorlik hissining ifodalaniishi .....                          | 183 |
| <b>Bozorov M.</b> Sovet hokimiysi davrida Surxon vohasida qishloq xo'jaligini kollektivlashtirish jarayoni va uning oqibatlari.....      | 187 |
| <b>Abdunabiyev S.N.</b> Sayyid Burhoniddin Termiziyning pedagogik qarashlari.....  | 190 |
| <b>Abdurahmonova M.A.</b> Talabalarni o'qitishda STEAM ta'lmini qo'llanilishi .....  | 194 |
| <b>Abdurahmonova M.A.</b> Stomatologiya fanlariga STEAM ta'lmiy yondashuvning ahamiyati  | 198 |
| <b>Бойматова З.А.</b> Ўзбекистонда хотин-қизларнинг ижтимоий-сиёсий фаоллигини ошириши ва гендер тенгликни таъминлаш ислоҳотлари.....    | 202 |
| <b>Boymatova Z.A.</b> Sarvontepa me'moriy majmua yodgorligi.....   | 205 |
| <b>Turdiyeva M.M.</b> Biologiya fanini tibbiyot talabalariga klinik yo'nalish asosida o'qitish metodikasi.....                           | 208 |
| <b>Turdiyeva M.M.</b> Tibbiyot sohasidagi talabalar uchun biologiyani innovatsion texnologiyalar asosida o'qitishning afzallikkleri..... | 211 |
| <b>Yusubova I.D.</b> XX asr 20-30-yillarida O'zbekistonda ta'lim tizimida ayollar masalasi .....   | 214 |